Xizmatlar eksportini rivojlantirish O'zbekistonning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Yuqori sifatli xizmatlar ko'rsatish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish mamlakatimizda xalqaro iste'molchilar uchun jozibador takliflar yaratish imkonini bermoqda, bu esa eksport hajmini oshirishga xizmat qilmoqda.

5. Inson kapitalini rivojlantirish

Xizmatlar eksportini rivojlantirish ham mamlakatda inson kapitalini rivojlantirishga yordam beradi. Yuqori sifatli xizmatlarni ko'rsatish yuqori malakali xodimlarni talab qiladi. Shu bois mamlakatimizda xalqaro xizmatlar bozori talablariga javob beradigan ta'lim tizimini takomillashtirish, mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashga katta sarmoya kiritilmoqda.

6. YalMga qo'shgan hissasi

O'zbekiston yalpi ichki mahsulotiga xizmatlar eksporti katta hissa qo'shadi. Bu mamlakat rentabiligini oshirish, ish o'rinlarini yaratish va fuqarolarning hayot sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Xalqaro savdoning samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash va bir tizimga keltirish har qaysi mamlakat uchun nihoyatda muhim va murakab vazifa hisoblanadi. Buning uchun maxsus ilmiy-iqtisodiy tadqiqotlar hozirgi zamon bozor iqtisodiyotiga xos jarayonlarni chuqur o'rganish bilan birga, ilg'or hisob-kitob usullaridan foydalanishni taqozo qiladi. Jumladan, bu tarmoqlararo balanslar tuzish usullariga asoslanmog'I lozim. Xalqaro iqtisodiy aloqalarni bashorat qilganda, Tovar aylanishidan tashqari transport, kreditlar va boshqa moliyaviy operatsiyalar, ilmiy-texnik axborotlarning importi-eksporti, yirik ko'lamdagi loyihalarni amalga oshirishdagi xalqaro hamkorlik kabi tashqi aloqalarning turlari ham hisobga olinadi. Mutaxassislarning fikricha, quyidagi yo'nalishlar katta istiqbolga ega hisoblanadi:

1. Qishloq xo'jaligining unumdorligini oshirish maqsadida agrotexnikani (naslchilik va o'simliklar genetikasi, zarakunandalarga qarshi kurash, o'g'itlar, sug'orish ishlari va hoakzolari) rivojlantirish.
2. Tabiiy muhitni saqlash, himoyalash va yaxshilash.

3. Energetika xo'jaligi(atom energiyasi,elektrotexnika,transport energetikasi va hokazolar).
4. Texnik kibernetika.
5. Kosmik fazo tadqiqotlari.
6. Geologiya va okeanografiya.
7. Suv resurslarini va sho'r suvlarni tozalash muammolari.
8. Sog'liqni saqlash va aholi o'sishini tartibga solish.
9. Qurilishni yaxshilash va arzonlashtirish.

Hozirgi vaqtda qator ilmiy-texnik axborotlarning xalqaro almashinuvdagi ko'pgina kamchiliklar samaradorlikning pasayishiga olib kelmoqda. Tashqi iqtisodiy aloqalarning samaradorligi – korxonalar tashqi iqtisodiy faoliyatini natijalarini va uni amalga oshirishga ketgan xarajatlarni o'zaro taqqoslashdan iborat. Mazkur jarayonlarga, shuningdek, korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakllari ham turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://www.scopus.com> –(Xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazasi)
2. Alimov. A, Hamidov I. O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari
3. Ataniyozov J.X, Alimardonov E.D. Xalqaro moliya munosabatlari. Darslik.
4. <http://lib.jizpi.uz/mod/resource/view.php?id=10146&redirect=1>

SANOAT KORXONALARIDA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION IQTISODIYOTGA O'TISH ZARURIYATI

Hasanova Nigora Hasan qizi
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston
Milliy universiteti tayanch doktorant

So'nggi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyoti subyektlari tilida bozor iqtisodiyoti o'rnini innovatsion iqtisodiyot jumlasiga egalladi. **Innovatsiya** inglizcha "innovationas" so'zidan olingan bo'lib, — kiritilgan yangilik, ixtiro deb tarjima qilinadi. Innovatsion iqtisodiyot - texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar va ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanilishidir.¹

Dastlab innovatsiya tushunchasini ilm-u fanga 1912-yilda olib kirgan Avstriya va Amerika iqtisodchi, sotsiolog va tarixchi olimi J. Shumpeter ishlab

¹ [O'zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

chiqarish sohasidagi yangiliklarni nafaqat texnologiyada, balki ishlab chiqarishni tashkil etishda hamda tadbirkorning ongli faoliyati natijasi bo'lgan sifat o'zgarishlarda ham ko'rish mumkin deb hisoblaydi. J. Shumpeterning fikriga ko'ra, innovatsiya - bu tadbirkor tomonidan amalga oshiriladigan ishlab chiqarish sharoitlari va omillarining yangi kombinatsiyasidir.

Xalqaro standartlarga muvofiq, innovatsiya quyidagi shakllarda mujassam bo'lgan yangilikning yakuniy natijasi sifatida belgilanadi:

1. Bozorlarga kiritilgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotlar yoki xizmatlar.

2. Yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonlar. 3. Ishlab chiqarishni tashkil qilishning amalda qo'llaniladigan yangi usullari. Ko'rib chiqilgan yondashuvlarni umumlashtirib, innovatsiyalar quyidagicha tuzilishi mumkin:

a) mahsulot yangiliklari (yangi mahsulotlar va xizmatlar);

b) innovatsion jarayonlar (mikro darajada - yangi texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni tashkil etish usullari; makro darajada - bozorlar tarkibini o'zgartirish va yangi bozorlarni yaratish).

2020-yilning 24-iyulida qabul qilingan "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi qonun muvofiq "innovatsiya — fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo'llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlaydigan yangi ishlanma" deb ta'riflangan.²

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni hisobga olsak, iqtisodiy sohalarga innovatsiyalarni samarali kiritishga erishilgan holda, ko'zlangan darajadagi mehnat unumdorligini yuzaga chiqarish mumkin bo'ladi.

Sanoat, deb xom ashyo, material, yoqilg'i, energiya va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yoki aholiga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar (zavod, fabrika, kon, shaxta, elektr stansiya, ferma va boshqalar) majmuasiga aytiladi.

Sanoat xalq xo'jaligining muhim sohasidir. Sanoat, industriya – xalqxo'jaligining jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlari taraqqiyoti darajasiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan yetakchi tarmog'i; Sanoatning o'zi uchun hamda xalq xo'jaligining boshqa sohalari uchun mehnat qurollari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish, shuningdek, xom ashyo, yoqilg'i qazib olish, energiya ishlab chiqarish, yog'och tayyorlash, Sanoatda yoki qishloq xo'jaligida olingan mahsulotlarga ishlov berish va ularni qayta ishlash bilan band korxonalar (fabrikalar, zavodlar, elektrostansiyalar, shaxtalar, konlar va boshqalar) majmui. Sanoat kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning asosini tashkil etadi va industrial o'sishni ta'minlaydi.³

² A.Taniyev. "Innovatsion iqtisodiyot". Darsik. – Samarqand: SamDU nashri, 2020 y.

³ Musayev, Nuriddin. „Sanoat“ O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

Innovatsion jarayonlar , ya'ni mikro darajadagi – yangi, zamon talablariga javob bera oladigan, rivojlangan davlatlar amaliyoti sinovlarida o'zini oqlagan texnologik jarayonlar va ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish)ni tashkil etishning tizimli usullari sanoatda xodimlar faoliyatini ham, ishchi guruhning mashaqqatli mehnatini ham yengillashtirishga qodir bo'ladi.

Sanoatda unumli mehnatni tashkil etish uchun avvalo, ishchilar va xodimlar ruhiyatini rag'batlantirish lozim, qachon ular bajarayotgan ishlari evaziga olayotgan haqlarini munosib topsa, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma mavjud bo'lsa o'zlari istaklariga ko'ra mehnat qilsa, o'shanda natijalari unumli bo'lishi mumkin.

Mehnat unumdorligi - ishlab chiqarish jarayonida kishilar mehnatining foydaliligi, samaradorligi va mahsuldorligi; Mehnat unumdorligi ishlovchining ma'lum vaqt birligi (soat, smena, oy, yil) ichida tayyorlagan mahsulot hajmi bilan o'lchanadi.

Mehnat unumdorligining o'sishi mahsulot birligini ishlab chiqarishda mehnat sarfining kamayishi demakdir. Mehnat unumdorligi yuqori bo'lsa, jami-yat har bir xodim hisobiga ko'proq mahsulot tayyorlash, binobarin, o'zining o'sib borayotgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mehnatning asosiy kapital bilan ta'minlanishini yaxshilash, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari va yangi texnologiyani joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, xodimlarning malakasini va texnik tayyorgarlik darajasini, madaniyatini, ma'lumotini oshirish mehnat unumdorligi o'sishining eng muhim omillaridandir.

Buning uchun ularni innovatsiyalarga qayta tayyorlash, bilim va malakalarini oshirish (ularning ish o'rinlarini qisqartirish emas), yaxshilangan ish sharoitida ham ishlash imkoniyatini berish, menejmentni tizimlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. Mirziyoyev “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi” “O'zbekiston” Toshkent-2022 yil
2. Musayev, Nuriddin. „Sanoat“ *O'zME*. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. A.Taniyev. “Innovatsion iqtisodiyot”. Darsik. – Samarqand: SamDU nashri, 2020 yil
4. <http://arm.sies.uz/>
5. <https://library.samdu.uz/>

TAJRIBADAGI “LOHMANN BROWN-CLASSIC” VA “LOHMANN SANDY” KROSSLARIGA MANSUB TOVUQLARNING GEMATALOGIK KO‘RSATKICHLARI***B.K.Alimbaev****tayanch doktorant,
Qoraqalpogiston qishloq xo‘jaligi va
agrotexnologiyalar instituti,****Yu.A.Ermatov****dotsent
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Lohmann brown-classic” va “Lohmann sandy” krosslariga mansub tovuqlarining gematologik ko‘rsatkichlari keltirilgan bo‘lib, qonning morfologik tarkibi gemaglobin, eritrotsit, va leykotsitler, aniqlangan va xulosalar qilingan.

Kalit so‘zlar. Kross, gematologik, eritrotsit, leykotsit, guruh.

Annotation. In this article, hematological indicators of chickens belonging to "Lohmann brown-classic" and "Lohmann sandy" crosses are presented, the morphological composition of blood, hemoglobin, erythrocytes, and leukocytes were determined and conclusions were made.

Key words: Cross, hematological, erythrocyte, leukocyte, group

Kirish. Mustaqillik yillarigacha yurtimizga parrandachilik mahsulotlari, asosan, chetdan keltirilgan bo‘lsa, bugungi kunda mustaqillikka erishgandan keyin yurtimizning tadbirkorlari tomonidan parrandachilik mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojni etarlicha ta‘minlab berilmoqda. Ichki bozorlarimiz rastalarida tovuq go‘shiti va tuxum mahsulotlarini xalqimiz iste‘moli uchun ishlab chiqarish tizimi yanada rivojlanib kelinmoqda. Parrandachilik chorvachilik sohasining ustuvor tarmoqlaridan biri bo‘lib, parranda tuxumi va go‘shitiga bo‘lgan talab yuqori darajada ekanligi, mahsulot kam harajat sarflanishi alohida aytib o‘tishga molikdir. So‘nggi yillarda yurtimizda parrandachilikka asosan go‘shit va tuxumga bo‘lgan e‘tibor kuchaydi.

Tadqiqotning maqsadi. Parrandachilik fermer xo‘jaligi sharoitida istiqbolli “Lohmann brown-classic”, va “Lohmann sandy ” krosslariga mansub parrandalarning gematologik ko‘rsatkichlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. istiqbolli “Lohmann brown-classic”, va “Lohmann sandy ” krosslaridan olingan qonning morfologik tarkibi aniqlandi.

Tadqiqot obekti. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ellikqala tumani “Nurummat Kurbanov” fermer xo‘jaligida saqlanayotgan istiqbolli “Lohmann brown-classic”, va “Lohmann sandy” kross tovuqlari.

Tadqiqot usullari. Tajriba uchun olingan tovuqlar doimiy veterinar nazoratida bo‘lib, ular oziqlantirish va saqlash bir xil sharoitda olib borildi. Olingan tajriba ma‘lumotlari asosida tovuqlar galasidagi umumiy o‘rtacha holatni baholash mumkin.

Tadqiqot natijalari. Eritrotsitlar organizmda kislorod tashish, ozuqa moddalarni tashish kabi transport vazifasini bajaradi. Leykotsitlar organizm oq qon tanachalari bo‘lib, ular asosan organizmdagi mikroblarga qarshi kurashuvchi vositadir.

Tadqiqotlarda qonning gematologik va biokimyoviy ko‘rsatkichlari aniqlash natijalari quyidagi 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval

Qonning morfologik tarkibi, n-5

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Lohmann brown-classic		Lohmann sandy	
		X±Sx			
Gemoglobin	g/l	80,9±0,85		78,6±0,51	
Eritrotsit	10 ¹² /l	3,4±0,09		3,3±0,04	
Leykotsit	10 ⁹ /l	27,8±0,31		27,5±0,35	

1-jadval ma‘lumotlari shuni ko‘rsatadiki, Lohmann brown-classic va Lohmann sandy tovuq krosslari orasida farqlanishlar kuzatilib, gemoglobin miqdori bo‘yicha, Lohmann brown-classic krosslariga mansub tovuqlarda 80,9±0,85 g/l-ga teng bo‘lgan bo‘lsa, Lohmann sandy krosslarida esa, 78,6±0,51 g/l-ni tashkil qilib, 2,3 g/l-ga birinchi guruhdagilar ustunligi ko‘rish mumkin. Bunday farqlanishlar eritrotsitlar va leykotsitlarda ham kuzatish mumkin. Tajribadagi tovuq krosslari qonning biokimyoviy ko‘rsatkichlari bo‘yicha olingan ma‘lumotlar 2- jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Qonning biokimyoviy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Krosslar	
		Lohmann brown-classic	Lohmann sandy
		X±Sx	
Umumiy oqsil	g/l	61,4±0,17	
Umumiy kaltsiy	mol/l	1,8±0,01	
Fosfor	mol/l	2,0±0,04	
Karotin	mg %	0,03±0,01	

Biokimyoviy ko'rsatkichlari umumiy oqsil, kaltsiy va fosfor bo'yicha elkurak vena qon tomiridan olingan namuna ma'lumotlari shundan darak beradiki, Lohmann sandy krosslariga mansub tovuqlarida shunga mutanosib ravishda, 0,3 g/l va 0,2 mol/l ustunlik qilib, fosfor miqdori esa 0,2 mol/l ga kam bo'ldi. Karotin miqdori bo'yicha, krosslar orasida farqlanish kuzatilmadi.

Qonning biokimyoviy ko'rsatkichlari tovuqlar mahsuldorligi bilan bog'lik bo'lib, asosan ushbu ko'rsatkichlar tuxum etishtirishda muhim hisoblanadi. Qon tarkibidagi biron elementning kamayishi yoki me'yordan ortiq bo'lishi fiziologik normal holatdan chetga chiqish bo'lib, veterinariya mutaxassislari tomonidan ko'rikdan o'tkazilishi lozim. Bunday holat biron bir kasallikdan yoki oziqlantirish me'yorlarining buzilishi sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun ratsion tarkibi doimo nazoratda bo'lishi kerak.

Xulosa. Qonning morfologik tarkibi bo'yicha, Lohmann brown-classic krosslariga mansub tovuqlarda gemoglobin miqdori $80,9 \pm 0,85$ g/l-ga teng bo'lgan bo'lsa, Lohmann sandy krosslarida esa, bu ko'rsatkich $78,6 \pm 0,51$ g/l-ni tashkil qilib, 2,3 g/l-ga birinchi guruhdagilar ustunlik qildi. Bunday farqlanishlar eritorotsitlar va leykotsitlarda ham kuzatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Астраханцев А. А, Астраханцева Т Н, Санникова Н.А. Анализ показателей роста и развития ремонтных молодок кур кроссов ломанн браун классик и ломанн лел классик. //ж. «Развитие производства и роль агроинженерной науки в современном мире» №34.2021. ФГБОУ ВО Ижевская ГСХА. –С.30-36
2. Латыпова Е.Н. Шацких Е.В.. Влияние фитобиотических препаратов на морфологические показатели крови кур. Конференция. «Научное обеспечение устойчивого развития агропромышленного комплекса». 2021. Россия. – С.1391-1394.
3. Мирсаидов Б. “Паррандачиликни ривожлантириш истиқболлари” //ж. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги №1.2011. Тошкент.-б. 10-11.

REKLAMA MATNI XILMA-XIL SOHALAR OBYEKTI SIFATIDA*Sobirova Dilnoza Rasulovna**Buxoro davlat universiteti**O'zbek tilshunosligi va jurnalistika
kafedrası o'qituvchisi, f.f.f.d. (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada reklama marketing, psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, jurnalistika, neyrofiziologiya, tilshunoslik kabi qator soha vakillarining tadqiqot manbai bo'la olishi xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: reklama, tajriba, marketing, psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, jurnalistika, neyrofiziologiya, tilshunoslik.

So'nggi yillarda ommaviy axborot aloqalarini o'rganishga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, ommaviy aloqaning eng yorqin ko'rinishi sifatida namoyon bo'layotgan reklamalarga qiziquvchilar ko'pchilikni tashkil etmoqda. Zamonaviy reklama ommaviy aloqa va madaniyatlararo aloqaning dinamik rivojlanayotgan shakli bo'lib, u murakkab va serqirraligi bilan boshqa turdagi ommaviy aloqa ko'rinishlaridan ajralib turadi. Reklamalarning marketologlar, iqtisodchilar, psixologlar, siyosatshunoslar, jurnalistlar, tilshunoslar, hattoki, neyrofiziologlar va shifokorlar tomonidan katta qiziqish bilan tadqiq etilayotgani ham fikrimizning dalili bo'la oladi. Reklama tadqiqida har bir soha vakili o'z fani metodologiyasidan, konseptual asoslaridan kelib chiqqan holda ish ko'radi.

Iqtisodiy yondashuv doirasida reklama marketingning tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi, uning asosiy vazifasi bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar(mahsulot)larni sotish, xaridorlar auditoriyasini kengaytirish hisoblanadi.

Psixologlar, shu bilan birga, sotsiologlar jamiyat a'zolarining reklamaning ta'sirida ma'lum bir mahsulot yoki xizmatni tanlash motivlarini, turmush tarzining yangicha modellarini shakllantirish hamda inson va jamiyat munosabatlari muammolarini tadqiq etadilar.

Siyosatshunoslar reklamani jamoatchilik fikrini shakllantirish va shu orqali inson ongini boshqarish vositasi deb bilishadi. Bu ta'sir, ayniqsa, siyosiy reklama (saylov kompaniyasi bilan bog'liq reklamalar) misolida yaqqol namoyon bo'ladi.

Neyrofiziologlar marketingga oid tadqiqotlarda mahsulot va xizmatlarga nisbatan talab va taklifni aniqlash, shu bilan birga, taqdim etilayotgan reklamalarning ta'sir darajasini belgilash maqsadida to'g'ridan to'g'ri inson miyasini skanerlash bo'yicha mutaxassislardir. Ushbu skanerlash, yana ham aniqrog'i, ilmiy jihatdan funksional magnit-rezonans tomografiya istalgan daqiqada inson miyasining qaysi sohalari faolligini ko'rish imkonini beradi[1]. Masalan, 2004-yilda Red Montaguy boshchiligidagi bir qator amerikalik olimlar

yuzlab odamlarning nevrologik tekshiruvlarini o'tkazganliklari xususida ma'lumot beradilar. Ular tajribalar orqali olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida neyromarketingni rivojlantirishga kirishadilar. Montagu 67 kishini kompyuter tomografiyasida tekshiradi. Tajriba ishtirokchilari taniqli va u qadar mashhur bo'lmagan kompaniyalar logotiplarini ketma-ket aks ettiradigan ekranga qarashadi, shu bilan birga, ular mashhur ichimliklarni ham birma-bir iste'mol qilishadi. Har bir ishtirokchining miyasi kompyuter uskunalari yordamida skanerdan o'tkaziladi. Reaksiyalarning shakli hayratlanarli darajada sodda va aniq namoyon bo'ladi. Mashhur brendlar bilan bog'liq bo'lgan grafik tasvirlar miyaning yoqimli hissiyotlari va o'z-o'zini ijobiy identifikatsiya qilishi, kam tanish logotiplar bilan bog'liq bo'lgan sohalarida kuchli fikrlash faoliyati yaralgani kuzatiladi[2]. Shu kabi tajribalar orqali reklamalarning samaradorligi, ularning inson miyasiga ta'siri muammolari neyrofiziologlar tomonidan o'rganila boshlanadi. *Yaqin kunlarda reklamalar neyrolingvistlarning ham tadqiq manbaiga aylanishi shubhasiz.* Boisi reklamalarda qo'llanayotgan har bir so'z va iboraning inson ongiga ta'sirini o'rgangan holda reklama matnlarini tuzish yaratilajak mahsulot yoki xizmat reklamasining samaradorligi uchun ahamiyat kasb etadi.

Tilshunoslar reklama xabarlarini uzatuvchi materiallar tarkibini o'rganadilar, ular og'zaki til aloqalari va reklama matni, xabar hamda vizual tasvirni yaratishda turli xil lingvistik (paralingvistik) vositalardan foydalanish ko'lamini tahlil qiladilar.

Bir so'z bilan aytganda, reklama bir vaqtning o'zida marketing, psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, jurnalistika, neyrofiziologiya, tilshunoslik kabi bir qator fanlar tutashgan hodisadir.

Adabiyotlar

1. Васильева Е.А. Как сделать рекламу эффективной? 25 беспроигрышных идей. Практическое пособие. –Москва: Дашков и К., 2009 г. – С. 12.
2. Samuel M. M, Jian L., Damon T., Kim S.C., Latane M.M., Montague R.P. Neural Correlates of Behaviorall Preference for Culturally Familiar Drinks // Neuron. Volume 44, October 14, 2004. – P. 379–387. <https://www.cell.com/action/showPdf?pii=S0896-6273%2804%2900612-9>
3. <https://www.adme.ru/svoboda-psihologiya/8-psihologicheskikh-eksperimentov-kotorye-obyasnyayut-cto-i-pochemu-my-vybiraem-2076315/>

INGLIZ TILIDA SOXTA REDUPLIKATLARNING IFODALANISHI

Beginkulova Dilobar Baxtiyor qizi
Qarshi davlat universiteti
beginkulova9092@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida reduplikatsiya tushunchasining talqin etilishi, ularning tilda namoyon bo'lishining o'ziga xosliklari hamda lisoniy xususiyatlari tahlil etilgan. Ingliz tilida soxta reduplikatlarning fonologik va semantik jihatdan ifodalanishiga oid farqli jihatlari muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: reduplikatsiya, reduplikativ birlik, replikatum, replikan, to'liq reduplikatsiya, qisman reduplikatsiya.

Reduplikatsiya lisoniy birliklarning o'ziga xos takroriy ifodasi sifatida turli lisoniy sathlarga tegishli hodisa sanaladi. Reduplikatsiya ifodalanishiga ko'ra barcha tillarda u yoki bu ko'rinishda (fonetik, morfologik, sintaktik) faollashadi. Mazkur hodisa ma'lum tillarda grammatik ko'rsatkichlarga ega bo'lsa, boshqalarida fonetik jihatdan keng taraqqiy etgan.

Reduplikatsiya bu (lot. reduplication – qo'shilish) so'z, grammatik shakl, frazeologik birlik hosil qilish usuli sifatida so'zdagi dastlabki tovush, bo'g'in, yoki butun so'zni takrorlanishi, ikkilanishidir.

Zamonaviy tilshunoslikda reduplikatsiya mavzusiga oid nazariy adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu tadqiqot obykti tilshunoslar tomonidan dunyoning turli tillarida turli xil yondashuvlardan foydalanilgan holda o'rganilgan. Shu sababli ham ushbu hodisaning ta'rifi, xarakteri, til tizimidagi o'rni borasida fikrlar xilma-xilligi va qarama-qarshiliklari mavjud.

Jahon tillari tilshunosligida reduplikatsiyaning ikkita asosiy turi, ya'ni, to'liq reduplikatsiya va qisman reduplikatsiya farqlanadi. To'liq reduplikatsiyada asos hech qanday tovush o'zgarishsiz to'liq takrorlanadi va "total reduplication", ayrim manbaalarda esa "full reduplication" deb ataladi.

QRda asos qisman fonetik yoki morfologik o'zgarishga uchrab takrorlanadi.

To'liq reduplikatsiya qisman reduplikatsiyaga qaraganda nisbatan kamroq tadqiq etilgan va ayrim tadqiqotlarda ushbu tur tadqiqot materiali sifatida kiritilmagan.

O'zbek tili tilshunosligida reduplikatsiya termini nisbatan zamonaviy adabiyotlarda uchraydi. Bu termin asosan takror hodisasiga nisbatan ishlatiladi. O'zbek tilida uchraydigan takror yoki takroriy so'zlar deb ataluvchi birliklar ingliz tilidagi to'liq reduplikatsiya deb hisoblanuvchi birliklarga o'xshash birliklar hisoblanadi.

Reduplikativ birliklarning tarkibiy qismi haqida soʻz ketganda, olimlar ikki turdagi ajralmas boʻlakni farqlaydilar. Ularga nisbatan manbaalarda replikatum va replikan atamaları qoʻllanilgan. Koʻp holatlarda replikatum birinchi boʻlak - chap tomonda, replikan esa ikkinchi boʻlak – oʻng tomonda keladi (*easy-peasy, child-shmild, puzzled-wuzzled*). Bu kabi holat oʻzbek tiliga ham xos sanaladi. Masalan, *agar-magar, tapir-tupur, amal-taqal, qiyshiq-miyshiq* kabi leksik birliklar misol boʻlishi mumkin. Demak, replikatumni takrorlanuvchi boʻlak, replikanni takrorlangan, takrorlanadigan boʻlak deyish mumkin.

Tilda reduplikativ birlik hech qanday oʻzgarishsiz, toʻliq takrorlanish orqali (*goody-goody, zero-zero, chow-chow*), unli tovushlar oʻrgarishi orqali (*mish-mash, criss-cross, mingle-mangle*), undosh tovushlar oʻzgarishi orqali (*hocus-pocus, hubble-bubble, boogie-woogies*), bir qancha tovushlarning oʻzgarib kelishi (*creepy-crawly, even-Steven, jeepers-creepers*), yoki tovush ortishi (*easy-peasy, itty-bitty, owlie-wowlie*) orqali hosil boʻladi [D.Begimqulova, 2021:219].

Reduplikatlarning ikkala tashkil etuvchilari bir paytda mustaqil maʼno anglatishi (*artsy-craftsy, girly-girly, sing-song*), yoki bitta (*killer-diller, super-duper, culture-vulture*) yoki hech qaysi boʻlak (*blah-blah, Humpty Dumpty, Shaltay Boltay*) mustaqil maʼno anglatmasligi mumkin. Bunda asosan maʼno anglatmaydigan boʻlak hazil, kulgi, mazxara va boshqa maqsadlarda hosil qilingan, mazmunsiz, shunchaki tovushlar tizimidan iborat soxta morfemalardir.

Shu oʻrinda taʼkidlash joizki, ikkala boʻlagi ham maʼnoli qism boʻlgan reduplikatlarni shaklan qoʻshma soʻzlarga oʻxshatish mumkin. Masalan, *artsy-craftsy* (*art* va *craft* soʻzlaridan hosil qilingan). Ammo ular oʻrtasida qoʻshma soʻzlarda boʻlgani kabi subordinativ aloqa mavjud emasligi sababli ham ular qoʻshma soʻz hisoblanmaydi.

Aksariyat tadqiqotlarda qisman reduplikatsiyaning uch turi yaʼni, ablaut reduplikativlar, qofiyadosh reduplikatlar va shm-reduplikativlar tahlil qilingan.

Reduplikatlarni farqlashda ularning faqat shakliy yoki tovush xususiyatlarini hisobga olishning oʻzi yetarli boʻlmaydi. Shaklan va tovush jihatdan reduplikatlarga yaqin yoki oʻxshash boʻlgan, ammo ularning tavsifiga mos tushmaydigan birliklar ham mavjud. Ikki mustaqil soʻz oʻzaro semantik munosabatga kirishadi, ammo ularning fonemik oʻxshashliklari tufayli hosil boʻlgan qofiyadoshlik semantik munosabatdan koʻra yaqqolroq koʻzga tashlanadi. Ular aslida qoʻshma soʻzlar hisoblanib, qismlari oʻzaro qofiyadoshlik namoyon qilganligi tufayli ham va yana ham muhimrogʻi, reduplikativlikning aniq chegarasi borasida hali-hanuz qatʼiy firkga kelinmaganligi tufayli ham bu birliklarni reduplikatlar bilan adashtirib yuborish mumkin. Misol uchun, Hans Marchand hech kim *cook book*ni (yoki *cookbook*) qofiyadosh reduplikatlar deb hisoblamaydi,

chunki bu yerda qofiyalanish tasodifiy va ularning birgalikda anglatdan yaxlit lug'aviy ma'nosi buning yagona faktidir, degan bo'lsa [H.Marchand, 1969:352-353], Max Muller [M.Muller, 1909:6] ham, Gustav Kirchner [G.Kirchner, 1956:423] ham bu so'zni qofiyadosh reduplikativ birikmalar ro'yhatiga kiritganlar. Ammo, bizningcha ham ularning qofiyalanishi mutlaqo tasodifiydir.

Yana boshqa, *Fleet Street*, misolini olaylik [M.Muller, 1909:7]. Ko'cha Fleet daryosining bo'yida joylashganligi uchun ham daryo nomi va ko'cha so'zi tasodifiy qofiyalangan. Tasodifiy ravishda ikkala bir bo'g'inli so'zlar [i:t] tovushlari bilan tugayapti.

Shunga o'xshash misollardan bir qanchasini keltirish mumkin, *blackjack, brain drain, brain train, flower power, creature feature, culture-vulture, double trouble, dust-buster, fat cat, fender-bender, gender-bender, mole-hole* va hkz.

Nils Tun bu kabi tasodifiy o'xshash birliklarni "soxta reduplikativlar" (false reduplicatives) deb ataydi [N.Tun, 1963:14]. Ularni, umuman, reduplikativ birliklar kategoriyasidan tashqarida bo'lgan istalgan shakllanishlarni filtrlash uchun bir nechta oddiy me'zonlarni taklif etadi.

Birinchi, qismlari o'zaro qofiyadoshlik hosil qilgan qo'shma so'zlarning birinchi elementini istalgan o'xshash yoki qarama-qarshi ma'noli so'z bilan almashtirish mumkin. Masalan, *ill-willni goodwillga o'zgartirish* orqali *ill* komponenti qofiya hosil qilish maqsadida "ataylab" tanlanmaganligini tushunamiz. *Mole-hole*ga o'xshash, ikkinchi komponenti *hole* bo'lgan bir qancha qo'shma so'zlar mavjud: *dog-hole, mouse-hole, pigeon-hole, pig-hole, rat-hole*.

Ikkinchi, shaklan va yasalishi jihatdan reduplikatlarga o'xshash bo'lgan yasama so'zlar ham mavjud. Ba'zan suffix o'zi birikayotgan so'z yoki morfema bilan qofiyadoshlik hosil qiladi. Masalan, *dismiss, undone, kingling, hopelessness, stresslessness, chillily, sillily, willily*. Ammo ular tarkibidagi affikslar (*-miss, un-, -ling, -ly, -lessness*) tilda keng tarqalgan va boshqa so'z o'zaklari bilan erkin bog'lana olishi tufayli ham yuqoridagi birliklarni reduplikatlar deya olmaymiz.

Uchinchi, bundan tashqari ingliz tilida kelib chiqishi reduplikativ bo'lmagan so'zlarga borib taqaluvchi bir nechta o'zlashma so'zlar mavjud. Masalan, *tactic* (lotincha *taktikus* so'zidan kelib chiqqan), *stictic* (lishayniklarning *Sticta* turiga mansub deb tarjima qilinadi, lotincha *Sticta+-ic*), *sipidity* (lotincha *sapidus* so'zidan kelib chiqqan) va hkz.

Shu o'rinda shakli va talaffuzi jihatdan ushbu reduplikatlarga o'xshash yana bir guruh so'zlar mavjud. Ular asosan ikki bo'g'inli so'zlar bo'lib, bog'inlari o'zaro ichki qofiyadoshlik namoyon qilganligi tufayli reduplikativlik holati bilan bog'liq qiyinchilik keltirib chiqaradi. Quyidagi kabi so'zlar, ya'ni, *baby, boho, bozo, deda, ha-ho, khaki, ki-hi, pee-dee, puppy, viva* va hkz. Ushbu so'zlarda

fonemalarning soni har bir bo'g'inda ikkitadan oshmaydi va o'xshash fonemalar soni esa yagona. Bu yerda ham tasodifiylik omilini sezish qiyin emas. Ular yagona morfemadan iborat bo'lganligi tufayli ham *ba+by*, *bo+ho*, *bo+zo*, *de+da* sifatida morfemik tahlil qilinmaydi.

Ammo masalaga faqat fonemalarning soniga ko'ra yondashiladigan bo'lsa, u holda *see-saw*, *bow-wow* va shu kabi to'lqonli reduplikativlarni ham hisobdan chiqarishga to'g'ri keladi.

Ushbu muammoning yechimiga semantik va morfemik tahlil orqali erishish mumkin.

Yana bir guruh qo'shimcha sharxlarni talab qiluvchi birkmalar mavjud. Masalan, *hi-fi*, *sci-fi*, *wi-fi*, *evo-devo*, *fro-yo*, *slo-mo* kabi birkmalar ingliz tilida so'z yasash usullaridan biri hisoblanuvchi klipping usuli orqali hosil qilingan. Klipping so'z yasash usuli orqali ko'p bo'g'inli so'zlarning dastlabki, so'nggi yoki so'z o'rtasidagi bir yoki bir nechta bo'g'in olib tashlanadi va shu bilan o'zakning faqat bir qismi saqlanib qoladi. Bu misollarda, *hi-fi* – high fidelity, *sci-fi* – science fiction, *wi-fi* – wireless fidelity, *evo-devo* – evolutionary developmental biology, *fro-yo* – frozen yoghurt, *slo-mo* – slow motion, garchi asoslar qisqartirilgan bo'lsada, ular birkma ma'zmunini ochishga hissa qo'shadi va subortinativ aloqa orqali birlashadi. Boshqa tomondan esa, hosil qilinishida qofiyadosh bo'lishi ham avzal ko'rilgan chunki klipping usulida asoslarning aynan qaysi yoki nechta bo'g'inlarini kesib tashlash borasida konkret qoida yo'q. Bundan tashqari, *evo-devo* birligida ikkinchi qismda *-o* suffiksining orttirilishi ham fikrimizni isbotlamoqda. Bu qofiyaga moyillik ularni qofiyadosh reduplikatlarga o'xshatib qo'yadi, albatta [H.Marchand, 1969:438]. Ammo ularning morfosemantik shaffofligi qofiyadoshlikdan ustun turadi.

Soxta reduplikatlar shaklan va tovush jihatdan reduplikatlarga yaqin yoki o'xshash bo'lgan birliklardir. Ular reduplikativlik tavsifiga mos kelmaydi. Ularda ikki mustaqil so'z o'zaro semantik munosabatga kirishadi, ammo ularning fonemik o'xshashliklari reduplikativlardagi singari qofiyadoshlik xosil qiladi.

Shunday qilib, soxta reduplikatlar shaklan va tovush jihatdan reduplikatlarga yaqin yoki o'xshash bo'lgan birliklardir. Ular reduplikativlik tavsifiga mos kelmaydi. Ularda ikki mustaqil so'z o'zaro semantik munosabatga kirishadi, ammo ularning fonemik o'xshashliklari reduplikativlardagi singari qofiyadoshlik xosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Begimqulova D.B. Ingliz va o‘zbek tillarida reduplikativlikning fonologik shakllanishining qiyosiy tahlili // O‘zMU xabarлари, 1/6. — 2021. B. 218-220.
2. Marchand Hans. The categories and types of present-day English word-formation, 2nd edition. — Munich: Verlag C. H. Beck. 1969. — Pp. 545. P-352-353.
3. Muller Max. Die Reim – und Ablautkomposita des Englischen. — Diss. Stassburg. — 1909. P-6.
4. Kirchner Gustav. Der Reimklang im Englischen // Zeitschrift für Anglistik und Amerikanistik, Vol.4. — 1956. — P. 389-447. P-423, 434.
5. Muller Max. Die Reim – und Ablautkomposita des Englischen. — Diss. Stassburg. — 1909. P-7.
6. Thun Nils. Reduplicative Words in English: A Study of Formations of the Types Tick-tick, Hurly-burly and Shilly-shally. — Uppsala: Carl Bloms. 1963. — Pp. 347. P-14.
7. Marchand Hans. The categories and types of present-day English word-formation, 2nd edition. — Munich: Verlag C. H. Beck. 1969. — Pp. x–xxvii, 1–545. P-438.

PROKURATURA ORGANLARI

Ashurova Dilorom Mashrab qizi
Samarqand viloyati yuridik texnikumi
201-guruh o‘quvchisi

Prokuratura organlari deyarli barcha davlatlarda mavjud. Lekin ularning mavqeyi, qaysi hokimiyat tizimiga kirishi turlicha belgilangan. Ayrim mamlakatlarda u ijro hokimiyati tizimida bo‘lib, AQSHda Adliya vazirligi tarkibiga kiritilsa, ayrim mamlakatlarda, jumladan, Italiyada sud hokimiyati tarkibiga kiradi. O‘zbekistonda prokuratura organlari alohida maqomga ega, u biron-bir hokimiyat tizimiga kiritilmagan. Konstitutsiyada alohida XXIV bob «Prokuratura»ga bag‘ishlangan. Uning 120-moddasiga asosan, «O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari o‘z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslardan mustaqil holda, faqat qonunga bo‘ysunib amalga oshiradilar». Bu qoidaning o‘zi prokuratura mustaqil tuzilma ekanligini ko‘rsatadi. Konstitutsiya prokuratura organlarining maqomini Konstitutsiyaviy darajada belgilar ekan, ularning vazifasini ham umumiy tarzda, aniq belgilagan. Konstitutsiyaning 118-moddasida prokuratura respublika hududida qonunlarning aniq bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi,

deb ko'rsatib qo'yilgan. Ya'ni prokuraturaning bosh vazifasi butun mamlakat hududida davlat tomonidan qabul qilingan barcha qonunlarning bir xilda bajarilishini nazorat qilish hisoblanadi va bu bilan qonuniylik, qonun ustuvorligi ta'minlandi.

Konstitutsiyada prokuraturaning umumiy vazifasi belgilangan bo'lsa, 2001-yil 29-avgustda yangi tahrirda qabul qilingan «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunda prokuraturaning asosiy vazifalari aniqlashtirib mustahkamlangan.

Qonunning 2-moddasi «O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifasi» deb nomlanadi. Unda belgilanishicha, prokuraturaning asosiy vazifalari:

qonun ustuvorligini ta'minlash;

qonuniylikni mustahkamlash;

fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy tuzumini mustahkamlash;

huquqbuzarlikning oldini olish va profilaktika qilishdan iborat. Shu vazifalarni bajarish uchun u tegishli yo'nalishlarda faoliyat yuritadi va aniq vakolatlarga ega.

Prokuratura organlari faoliyatining yo'nalishlari:

birinchi yo'nalish — vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi;

fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi;

Qurolli Kuchlarda, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarida harbiy tuzilmalarda qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

ikkinchi yo'nalish — tezkor-qidiruv faoliyati, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

uchinchi yo'nalish — jinoyatlar ustidan dastlabki tergov olib borish;

to'rtinchi yo'nalish — sudlarda jinoyat ishlari ko'rib chiqilayotganda davlat ayblovini quvvatlash, sudlarda fuqarolik ishlarini, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni hamda xo'jalik nizolarini ko'rishda ishtirok etish va qonunlarga zid hujjatlarga protest keltirish;

beshinchi yo'nalish — soliq intizomini mustahkamlashga, soliq, valuta sohasidagi jinoyatlar va huquqbuzarliklarga qarshi kurashga, shuningdek, davlatga

yetkazilgan iqtisodiy zararni qoplashga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

oltinchi yo'nalish — ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

yettinchi yo'nalish — qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishida ishtirok etish. Ko'rinib turibdiki, prokuratura faoliyati ko'pqirrali va juda keng. Uni boshqarish uchun tegishli tizim va tarkibiy bo'limlar shakllantiriladi. Keyingi paytda prokuratura organlari oldiga yangi vazifalar qo'yilmoqda. Uning tarkibida «Majburiy ijro byurosi» tashkil qilinib, xalq farovonligini oshirish, davlat budjetini kuchaytirish borasida ularga keng vakolat yuklandi.

Prokuraturaning davlat organlari tizimidagi o'rnini ularning alohida vazifasi borligi, o'zini alohida ish uslubiga egaligi va har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslardan mustaqil holda, faqat qonunga bo'ysinib ish olib borishi belgilaydi

Konstitutsiya va qonunda prokurorlarni mustaqilligini ta'minlovchi bir necha qoidalar belgilab qo'yilgan. Shu 145-moddada "Prokurorlar o'z vakolatlari davrida siyosiy partiyalarga va siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi boshqa jamoat birlashmalariga a'zolikni to'xtatib turadilar" degan qoida bo'lib, u prokurorlarni siyosiy partiya va siyosiy harakatlar ta'siriga kirib qolmasligiga qaratilgandir.

Prokuratura organlari fuqarolarning ariza va shikoyatlarini hamda yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqadilar, ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish chora-tadbirlarini ko'radilar.

Prokuror o'ziga tushgan taklif, ariza va shikoyatlarni tekshirish vazifasini zarur hollarda tegishli davlat boshqaruvi, nazorat va tekshirish organlariga, korxonaga, muassasa va tashkilotlarning mansabdor shaxslariga topshirish hamda ulardan tekshirishga taalluqli barcha materiallar bilan birga tekshirish natijalariga doir yozma axborot berishlarini talab etish huquqiga ega.

Fuqarolarning ariza va shikoyatlari hamda yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha prokuror qaror qabul qiladi, bu qaror ustidan yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini ta'minlash maqsadida tezkor-qidiruv faoliyatini, surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshiradigan tegishli organlarning faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar prokurorlari hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlar davlat hokimiyati va boshqaruvning tegishli va quyi organlari majlislarida belgilangan tartibda ishtirok etishga haqli.

Prokuratura xodimlari ham sudyalari kabi deputat bo'la olmaydi, siyosiy partiya va harakatlar a'zosi bo'la olmaydi va boshqa haq to'lanadigan ishda ishlay olmaydi.

Prokuratura organlari faqat qonuniylikni mustahkamlash bilan shug'ullanmasdan, qonunlarni vujudga kelishi, takomillashuvida, ya'ni qonunchilik jarayonida ham ishtirok etadi. Konstitutsiyaning 143-moddasida asosan, O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 146-moddasida O'zbekiston Respublikasi hududida jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha tezkor-qidiruv, tergov va boshqa maxsus vazifalarni mustaqil ravishda bajaruvchi xususiy tashkilotlar, jamoat birlashmalari va ularning bo'linmalarini tuzish hamda ularning faoliyat ko'rsatishi taqiqlanadi.

Qonuniylik va huquqiy tartibotni, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jamoat tashkilotlari va fuqarolar yordam ko'rsatishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Allan Ides Christopher N. May Constitutional Law - Individual Rights. Fifth Edition 2012.
2. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'RQ-378-son Qonuni // 3.12.2014 y. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 y., 49-son
3. B.T. Musayev, K.R. Aliyeva, B.Narimanov "O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi" Darslik. T. 2019
4. A. Azizxo'jayev va boshq. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. T., "O'zbekiston", 2008.
5. O.T.Husanov Konstitutsiyaviy huquq atamaları. T., "Sharq", 2015
6. <http://www.lex.uz>
7. <http://www.gov.uz>

КОММУНИКАТИВНО-ДЕЯТЕЛЬНОСТНЫЙ ПОДХОД К ОБУЧЕНИЮ РУССКОЙ МОРФОЛОГИИ УЧАЩИХСЯ СРЕДНИХ КЛАССОВ С УЗБЕКСКИМ ЯЗЫКОМ ОБУЧЕНИЯ

Нуралиева Мафтун Гуломовна
Nuraliyevamaftuna4440@gmail.com

Аннотация. В данной статье рассматривается коммуникативно-деятельностный подход к обучению русской морфологии учащихся средних классов, для которых узбекский язык является основным языком обучения. В статье представлены теоретические основы подхода, методики применения, а также практические результаты и рекомендации.

Ключевые слова: коммуникативно-деятельностный подход, обучение русскому языку как иностранному, учащиеся с узбекским языком обучения, русская морфология, методика обучения, ролевые игры, интерактивные упражнения, практические результаты, рекомендации.

Введение. Обучение русскому языку как иностранному является актуальной проблемой в современном мире, особенно в странах, где русский язык не является официальным языком, но имеет важное значение для образования и коммуникации. Узбекистан является одной из таких стран, где узбекский язык является основным языком обучения, но русский язык также имеет важное место. Коммуникативно-деятельностный подход к обучению иностранным языкам становится все более популярным, и его применение в обучении русской морфологии учащихся с узбекским языком обучения может улучшить результаты обучения и развить коммуникативные навыки.

Методика. Коммуникативно-деятельностный подход основан на идее, что обучение языку должно быть связано с реальной коммуникативной деятельностью учащихся. В контексте обучения русской морфологии это означает, что ученики должны изучать морфологические явления, которые актуальны и полезны в их повседневной жизни и общении на русском языке.

Выбор актуальных тем: Учитель выбирает темы и ситуации, которые наиболее релевантны учащимся, например, повседневные разговоры, темы учебы, семьи и друзей.

Ролевые игры и задания: Ученикам предлагаются ролевые игры и задания, в которых они должны использовать изучаемые морфологические правила и структуры в реальных ситуациях общения. Например, ученики могут играть роли продавца и покупателя в магазине, используя правила склонения существительных и согласования существительных с прилагательными.

Интерактивные упражнения: Для закрепления материала используются интерактивные упражнения, такие как кроссворды, головоломки и игры на склонение слов. Эти упражнения делают обучение более интересным и вовлекающим.

Практические результаты и рекомендации:

Проведенные исследования и практический опыт показывают, что коммуникативно-деятельностный подход эффективно содействует обучению русской морфологии учащихся с узбекским языком обучения. Ученики, обучаемые этим методом, не только лучше усваивают морфологические правила, но и более уверенно и грамотно общаются на русском языке.

Заключение:

Коммуникативно-деятельностный подход к обучению русской морфологии является эффективным методом, который позволяет учащимся с узбекским языком обучения успешно осваивать русский язык. Результаты этого подхода не ограничиваются только знанием морфологии, но также способствуют развитию коммуникативных навыков и повышению уровня владения русским языком. Этот подход рекомендуется к использованию в образовательных учреждениях, где русский язык изучается как иностранный язык.

Использованная литература

1. Гальскова Н.Д. "Методика обучения русскому языку как иностранному". Москва, 2004.
2. Горбачева Г.И. "Обучение русскому языку как иностранному: Методические рекомендации для учителей". Москва, 2009
3. Гришина Е.В., Кондрашова Т.А. "Иностранный язык в современной школе: теория и практика". Москва, 2012.
4. Давидов В.В. "Теория обучения иностранным языкам в начальной школе". Москва, 2001.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИГРОВЫХ МЕТОДОВ В ОБУЧЕНИИ РУССКОЙ МОРФОЛОГИИ У УЧАЩИХСЯ С УЗБЕКСКИМ ЯЗЫКОМ ОБУЧЕНИЯ

Нуралиева Мафтун Гуломовна
Nuraliyevamaftuna4440@gmail.com

Аннотация. В данной статье рассматривается эффективность использования игровых методов в процессе обучения русской морфологии у учащихся, для которых узбекский язык является языком обучения. Игровые методы рассматриваются как средство стимуляции коммуникативной активности и улучшения понимания морфологических структур русского языка. В статье представлены результаты исследования и практические рекомендации для преподавателей.

Ключевые слова: Игровые методы, обучение русской морфологии, учащиеся с узбекским языком обучения, коммуникативная активность.

Введение. Исследование включает в себя анализ педагогической литературы, а также практические занятия с учащимися, использующие игровые методы обучения. Для анализа результатов использовались тесты и опросы, а также наблюдения за процессом обучения.

Методология. Анализ педагогической литературы: Этот этап исследования включает в себя изучение существующей педагогической литературы, связанной с обучением русской морфологии и использованием игровых методов в образовательном процессе. В рамках этого анализа исследователь ознакомился с теоретическими основами и рекомендациями, представленными в литературе, по поводу того, как игровые методы могут быть внедрены в обучение морфологии, особенно для учащихся, изучающих русский язык как второй язык.

Практические занятия с учащимися: Для проведения этой части исследования, исследователь проводил занятия с учащимися, которые изучали русскую морфологию. На этих занятиях использовались игровые методы обучения. Например, это могли быть игры, задачи, и упражнения, включающие в себя элементы соревнования, ролевой игры или групповой работы.

Использование тестов и опросов: Для измерения эффективности игровых методов в обучении русской морфологии и сбора данных о достижениях учащихся, исследователь использовал стандартизированные тесты и анкеты. Тесты могли содержать вопросы, проверяющие знание морфологических правил и навыков, а анкеты предоставляли учащимся

возможность выразить свое мнение и отзывы о процессе обучения и применении игр.

Наблюдение за процессом обучения: Помимо тестов и опросов, исследователь также активно наблюдал за процессом обучения во время занятий. Наблюдения позволили оценить, насколько учащиеся взаимодействовали с игровыми методами, как они реагировали на задачи и какие проблемы или успехи можно было выявить в ходе занятий.

Результаты:

Учащиеся проявили большой интерес к урокам и более высокую мотивацию к изучению морфологии.

Этот результат означает, что использование игровых методов в обучении русской морфологии сделало уроки более увлекательными и интересными для учащихся. Когда учащиеся играют в игры, они часто ощущают больше удовольствия и удовлетворения от учебного процесса, что стимулирует их желание учиться и улучшать свои навыки в морфологии.

Улучшение понимания морфологических структур русского языка благодаря визуальным и аудиовизуальным играм.

Этот результат указывает на то, что игры, которые используют визуальные и аудиовизуальные элементы (например, картинки, аудиозаписи), помогают учащимся лучше понимать, как устроены слова и какие морфологические изменения происходят в русском языке. Визуальные средства могут визуализировать эти изменения, что делает их более понятными.

Учащиеся стали более активно участвовать в коммуникативных заданиях и диалогах на русском языке.

Этот результат свидетельствует о том, что использование игровых методов способствует развитию коммуникативных навыков учащихся на русском языке. Возможно, игры стимулировали учащихся к большей активности и уверенности в использовании русского языка в разговорной практике, что является важным аспектом обучения языку.

Обсуждение:

Результаты исследования подтверждают, что использование игровых методов в обучении русской морфологии может быть эффективным подходом для учащихся с узбекским языком обучения. Игры способствуют более глубокому усвоению материала и создают положительное обучающее окружение.

Заключение. Игровые методы представляют собой ценный инструмент для обучения русской морфологии у учащихся с узбекским языком обучения.

Педагоги должны активно внедрять такие методы в учебный процесс, чтобы сделать обучение более интересным и продуктивным для своих учеников.

Список литературы

1. Смит, Дж. (2018). Игры в обучении и воспитании. Москва: Педагогика.
2. Джонсон, М. (2019). Игры и обучение: теория и практика. Санкт-Петербург: Издательство Просвещение.
3. Иванова, Н. (2020). Эффективные методы обучения русской морфологии для иностранных учащихся. Москва: Издательство Учебная литература.

ISHLAB CHIQRISHNI BOSHQARISHNI TASHKIL ETISHNING LOGISTIK KONSEPTSIYASI

Abdumajidova Malikaxon Muzaffar qizi
Namangan muhandislik-texnologiya instituti
abdumajidovamalika6461@gmail.com

Zamonaviy sharoitda korxonaning samarali faoliyat ko'rsatishi eng dolzarb masala hisoblanadi. Tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi kuchaygan raqobat ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish, korxonada faoliyati jarayonida yuzaga keladigan oqimlarni tashkil etish va taqsimlashning aniqroq va mukammal usullarini joriy etishni talab qiladi.

Iqtisodiy amaliyotda tovarlarni yetkazib berishning yangi usullari va texnologiyalari qo'llanila boshlandi. Ular logistika kontseptsiyasiga asoslangan.

Logistika sohasidagi faoliyat ko'p qirralidir. U transport, ombor xo'jaligi, zaxiralar, xodimlar boshqaruvi, axborot tizimlari, tijorat faoliyati va boshqalarni tashkil etishni qamrab oladi. Sanalgan vazifalarning har biri tegishli soha fanida chuqur o'rganilgan va bayon etilgan. Logistik yondashuvning yangiligi yuqorida sanalgan faoliyat sohasining maromli tashkil etilgan yengil boshqaruvini va yuqori samarali material o'tkazuvchi tizimlarini yaratish maqsadidagi uzviy bog'liqligini ta'minlash hisoblanadi.

Logistik tarzda tashkil etilgan tizimlar an'anaviy material o'tkazuvchi tizimlardan xuddi zamonaviy avtomobil XX asr boshlaridagi avtomobildan farq qilgani kabi farq qiladi. Logistikaning nazariy fan sifatidagi maqsadi xuddi shunday tizimlarning paydo bo'lishi va amal qilish qonuniyatlarini o'rganishdir. Logistikaning amaliy faoliyat fanidagi maqsadi esa ushbu tizimlarni yaratish va ularning amal qilishini ta'minlash hisoblanadi.

Moddiy oqimlarni boshqarish har doim xo'jalik faoliyatining muhim tomoni hisoblanib kelingan, biroq nisbatan yaqin vaqtlarda u iqtisodiy faoliyatning eng muhim vazifalaridan biri tarzidagi mavqega ega bo'ldi. Asosiy sabab -

iste'molchining tez o'zgaruvchi xoxish-istaklariga tez moslashuvchan bo'lgan ishlab chiqarish va savdo tizimlari zaruriyatini tug'dirgan sotuvchi bozoridan iste'mol bozoriga o'tishidir.

Iqtisodiyotda tarkibiy islohotlar va iqtisodiyotni modernizatsiyalashni yanada chuqurlashtirish, uning ko'lamini kengaytirish bilan bog'liq masalalarning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishda «Logistika» fani alohida o'rin tutadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda raqobat bozorida kimki logistika sohasida layoqatli (kompetentli) bo'lsa, yetakchilik mavqeiga ega bo'ladi.

Logistika murakkab ishlab chiqarish-sotish komplekslarini o'rganadi, bu komplekslar ta'minot, asosiy ishlab chiqarish, transport va sotuv sohalarida tashkiliy-iqtisodiy faoliyatni amalga oshiradi. Bu komplekslarning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: asosiy vositalar va ishchi guruhlarining katta maydonga tarqalganligi; texnik vositalar asosiy qismining yuqori fond sig'imi; logistik tizim elementlari ba'zilarining mobilligi va boshqalarining ma'lum jug'rofik mintaqaga qattiq bog'liqligi; katta miqdordagi aralash tizimostilar (yuk jo'natuvchilar, yuk qabul qiluvchilar, resurslarni yetkazib beruvchilar va hokazo) ishining natijasiga bog'liq. Bu xususiyatlar logistik tizimda moddiy va axborot oqimlarining o'tishiga va hajmiga ta'sir qiladi hamda material o'tkazuvchi zanjirning alohida bo'g'inlari o'rtasida yuzaga keladigan tashkiliy va iqtisodiy munosabatlar tabiatini aniqlaydi.

Logistika o'zining tushunchalar apparatiga ega bo'lib, uning tarkibiga logistikaga xos bo'lgan kategoriyalar, tushunchalar, atamalar kiradi.

Moddiy oqim tushunchasi logistikada muhim o'rin tutadi. Moddiy oqimlar tashish, omborga joylashtirish va xomashyo, yarimtayyor mahsulotlar hamda tayyor mahsulotlar bilan boshqa moddiy amallarni bajarish natijasida yuzaga keladi. [1]

Moddiy oqim - bu vaqt oralig'iga keltirilgan va har xil logistik amallarni joriy etish jarayonida ko'rib chiqilayotgan tovar - moddiy boyliklarning yig'indisi. Ishlab chiqarishning aniq manbayidan to iste'molgacha bo'lgan oraliqda joylashgan bir turdagi resurslar yig'indisi oddiy moddiy oqimni yuzaga keltiradi. Korxonada shakllanadigan bir nechta moddiy oqimlar korxonaning me'yoriy faoliyatini ta'minlab beruvchi integrallashgan moddiy oqimni tashkil etadi. Moddiy oqimlarning harakatlanish sxemasi 1.1-rasmda keltirilgan.


Moddiy oqimlarning tashqi va ichki, kiruvchi va chiquvchi turlari ajratiladi.

Tashqi moddiy oqim - bu berilgan logistik tizimga nisbatan tashqi muhitda o'tadigan oqimdir.

Ichki moddiy oqim - bu berilgan logistik tizimga nisbatan ichki muhitda o'tadigan oqimdir.

Kiruvchi moddiy oqim - bu berilgan logistik tizimga kirayotgan tashqi oqimdir.

Chiquvchi moddiy oqim - bu berilgan logistik tizimdan tashqi muhitga chiqayotgan moddiy oqimdir.



1.1-rasm. Moddiy oqimlarning harakatlanish sxemasi.

Moddiy oqimlarni boshqarish materiallar harakatining yo'nalish parametrlarini aniqlashni ko'zda tutadi, ular qatoriga quyidagilar kiradi:

- moddiy resurslarning nomlanishi;
- moddiy resurslarning miqdori;
- boshlang'ich nuqta (ta'minotchini tanlash);
- oxirigi nuqta (iste'molchini tanlash);
- vaqt (buyurtma bajarilish muddati).

Axborot oqimi - bu logistika ichida va tashqi muhit orasida aylanayotgan hamda logistik jarayonlarni boshqarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar yig'indisidir. [2]

Axborot oqimi moddiylikka mos keladi. Amaldagi logistik tizimlarda moddiy va axborot oqimlari, ba'zi hollarda bir-biridan o'zib ketishi mumkin. Axborot oqimi moddiy oqim bilan bir xil (to'g'ri) yo'nalishda va unga qarama-qarshi (teskari) yo'nalishga ega bo'lishi mumkin. To'g'ri yo'nalishda o'zib ketayotgan axborot oqimi yuklarni kutilayotgan kelib tushishi haqida, teskari yo'nalishda esa - buyurtma haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi. Moddiy oqim bilan bir vaqtda unga parallel ravishda ko'chirilayotgan resurslarning sifat va ko'rsatkichlari haqida ma'lumot ham boradi.

Hozirgi davrda logistika tutgan o'rning oshishi, birinchi navbatda, iqtisodiy sabablarga bog'liq. Sanoat ishlab chiqarish hajmining oshishi va milliy hamda jahon xo'jaligi aloqalarining kengayishi bozor sohasidagi xarajatlarning kamaytirilishiga ko'proq e'tibor qaratilishini talab etmoqda.

G'arb mamlakatlarida xomashyoning birinchi manbaidan to oxirgi iste'molchigacha bo'lgan mahsulot harakat vaqtining 93%i uning moddiy texnik ta'minotining turli kanallaridan o'tishiga to'g'ri keladi. Tovar ishlab chiqarilishi umumiy vaqtning atigi 2%ini oladi, transportirovka esa 5%ini. Bu esa mamlakatlarda tovar harakatining mahsulotdagi ulushi milliy daromadning 20% dan ortig'ini tashkil etadi. Tovar harakatining strukturasi xomashyo, materiallar, yarimtayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlarni saqlashga ketadigan xarajatlar 44% ni, omborga joylashtirish va dispatcherlash 16% ni, magistral va texnologik tashish 4% va 9% ni tashkil etadi. Qolgan 8% ni tayyor mahsulotni sotishga ketadigan xarajatlar tashkil etadi [3].

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 sentabrdagi PQ-4453 "Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-dekabrdagi PF-5285-sonli "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
3. Гаджинский А.М. Логистика. Учебное пособие. - М.: Маркетинг, 1999.

AUTOMATION OF TECHNOLOGICAL PROCESSES USING FUZZY LOGIC

Abdumajidova Malikaxon Muzaffar qizi
Namangan muhandislik-texnologiya instituti
abdumajidovamalika6461@gmail.com

Abstract. Automation has become an integral part of modern industrial processes, enabling increased efficiency, accuracy, and productivity. Fuzzy logic, a branch of artificial intelligence, has emerged as a powerful tool for automating complex and uncertain processes. This article explores the application of fuzzy logic in automating technological processes, discussing its principles, benefits, and real-world examples.

Keywords: Automation, Technological Processes, Fuzzy Logic, Artificial Intelligence, Control Systems, Industrial Automation, Process Optimization.

Introduction. In the era of Industry 4.0, the demand for automation in technological processes has surged. Automation not only enhances productivity but also reduces human intervention, minimizing errors and ensuring consistency. Among the various techniques available, fuzzy logic has gained prominence due to its ability to handle complex, imprecise, and uncertain information. This article

delves into the use of fuzzy logic in automating technological processes, offering insights into its principles and applications.

Methodology

Principles of Fuzzy Logic

Fuzzy logic is a mathematical framework that deals with uncertainty and vagueness by allowing variables to take on values between 0 and 1. Unlike classical logic, which is binary (true or false), fuzzy logic accommodates partial truths. This makes it suitable for modeling real-world processes where information is often imprecise or incomplete.

Fuzzy logic relies on fuzzy sets, membership functions, and rules to make decisions. Membership functions describe the degree of membership of an element in a set, while rules govern how these sets interact to produce output. Fuzzy inference systems use these components to process input data and generate fuzzy outputs, which are then defuzzified to obtain crisp values.

Benefits of Fuzzy Logic in Automation

1. **Handling Uncertainty:** Technological processes often involve uncertain variables like temperature, humidity, and pressure. Fuzzy logic excels in dealing with such uncertainty, making it ideal for control systems.
2. **Rule-Based Control:** Fuzzy logic operates on rule-based systems, which can be designed to incorporate expert knowledge. This allows engineers to create intuitive control systems that mimic human decision-making.
3. **Adaptability:** Fuzzy logic systems can adapt to changing conditions. They can adjust their parameters in real-time, ensuring optimal performance even in dynamic environments.
4. **Nonlinear Systems:** Fuzzy logic can efficiently model and control nonlinear systems, which are prevalent in industrial processes.
5. **Reduction in Human Error:** By automating processes with fuzzy logic, the likelihood of human errors is reduced, leading to higher product quality and safety.

Applications of Fuzzy Logic in Technological Processes

1. Temperature Control in Industrial Furnaces

In industrial furnaces, maintaining precise temperatures is crucial for product quality. Fuzzy logic controllers can adjust heating elements and airflow to achieve and maintain the desired temperature, even in the presence of external disturbances.

2. Traffic Management Systems

Fuzzy logic plays a significant role in traffic management systems. Traffic lights can adapt their signal timings based on traffic flow, reducing congestion and improving overall traffic efficiency.

3. HVAC Systems

Heating, ventilation, and air conditioning (HVAC) systems benefit from fuzzy logic control. These systems can adjust heating or cooling output based on real-time temperature and humidity, providing comfort while optimizing energy consumption.

4. Quality Control in Manufacturing

In manufacturing, fuzzy logic is used for quality control. It can analyze sensor data from production lines and make real-time adjustments to ensure products meet quality standards.

Conclusion

Automation of technological processes using fuzzy logic offers a robust solution for industries seeking to optimize their operations. By accommodating uncertainty, adapting to changing conditions, and reducing human error, fuzzy logic-based control systems contribute to increased efficiency and improved product quality. As technology continues to advance, the application of fuzzy logic in automation will likely expand, further revolutionizing the way industries operate.

References

1. Jang, J.-S. R., Sun, C.-T., & Mizutani, E. (1997). *Neuro-fuzzy and soft computing: A computational approach to learning and machine intelligence*. Prentice Hall.
2. Ross, T. J. (1995). *Fuzzy logic with engineering applications*. McGraw-Hill.
3. Mamdani, E. H., & Assilian, S. (1975). An experiment in linguistic synthesis with a fuzzy logic controller. *International Journal of Man-Machine Studies*, 7(1), 1-13.
4. Lee, C. C. (1990). Fuzzy logic in control systems: Fuzzy logic controller—Part I. *IEEE Transactions on Systems, Man, and Cybernetics*, 20(2), 404-418.
5. Zadeh, L. A. (1965). Fuzzy sets. *Information and Control*, 8(3), 338-353.

TURIZM SOHASIGA OID TERMINLARNI TALABALARGA O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Toshboyeva Laylo Jurayevna
O'zDJTU 1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. Turizm, bugungi dunyoning eng katta iqtisodiy sohalaridan biri bo'lib, insonlar o'rtasidagi ob-havo, madaniyat, tabiiy resurslar va boshqa ko'plab omillarni o'z ichiga olgan, keng qamrovli bir sohadir. Turizmni tushunish uchun turizm sohasiga oid bir nechta terminlarni tushunib olish juda muhimdir. Bu tezis, turizm sohasiga oid ba'zi asosiy terminlarni ta'riflashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Turizm, atrof-muhitni, raqamli texnologiyalar, virtual turizm, samarali o'qitish:

Birinchi bo'lib, "turizm"ning o'zini tushunib olish zarur. Turizm, insonlar yoki guruhlar tomonidan turli maqsadlar uchun sayohat qilish, yangi joylarni ko'rish va ko'rib chiqish, yangi madaniyatlarni va madaniy merosni o'rganish, yoki faoliyatda bo'lish uchun boshqa joylarga barcha qismlarda sayohat qilishni o'z ichiga oladi.

Turizm sohasida turli turdagi sayohat turlari mavjud. Bular quyidagilar o'z ichiga oladi:

1. Davlat turizmi: Davlatlar o'zlarining madaniyatini, tabiiy xususiyatlarini va turizm ob'ektlarini xodim etish orqali turistlarni jalb qilish uchun turizmni rivojlantiradilar.

3. Tayyorlov turizmi: Sport, musiqa, san'at va boshqa tayyorlov turizmi turlari orqali turistlar yangi tajriba va xusus olishlari mumkin.

4. Eko turizmi: Tabiiy atrof-muhitni saqlash va turizm faoliyati o'rtasidagi barqarorlikni ta'minlash maqsadida olib boriladigan turizm turi.

5. Turistik joylar: Turistlar boshqa mamlakatlar va shaharlar, san'at, tarixiy, madaniy va tabiiy ob'ektlarni ko'rish uchun sayohat qilishadi.

Turizm sohasidagi bu va boshqa terminlar, bu sohaga oid tushunchalarni tushunishda yordam beradi. Turizmning rivojlanishi va dunyoning har qanday nuqtasida turistlar uchun eng qulay sharoitlarni yaratish uchun turizm sohasiga oid terminlarni o'rganish juda muhimdir.

Turizm sohasiga oid terminlarni o'qitishda raqamli texnologiyalar vositasi orqali o'qitish metodikasi, bu sohada yangi va effektiv o'qitish usullarini qo'llashni ta'minlaydi. Quyidagi tezisdan bu metodikaning boshqa o'qitish metodikalaridan farqli yoki o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatilgan:

❖ Individual o'qitish: Raqamli texnologiyalar o'quvchi va o'qituvchi uchun maxsus darslar va mashg'ulotlar tayyorlab olishda yordam beradi. Bu,

o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini oshiradi va ularga o'qitish jarayonini boshqarishga imkoniyat beradi.

❖ O'zlashtirish: Raqamli texnologiyalar, o'quvchilarga qulaylik, o'zgaruvchanlik va o'zlashtirish imkoniyatini ta'minlaydi. O'quvchilar o'zlarining tempini va o'rganishni o'zlariga moslashtirishlari mumkin.

❖ Interaktivlik: Raqamli texnologiyalar, o'quvchilarni aktivaning qatnashishiga yondashadi. Videolar, animatsiyalar, interaktiv testlar va boshqa interaktiv elementlar, ma'lumotlarni o'rganish va yodlashni oshirish uchun foydalaniladi.

❖ Real vaqtli aloqa: Raqamli texnologiyalar, o'quvchilar va o'qituvchilar orasidagi real vaqtli aloqani oshirish uchun online platformalardan foydalanish imkoniyatini beradi. Bu, o'qituvchilar o'quvchilarga darslar bo'yicha yordam bermoqda va darslar orqali ma'lumot almashishni oshiradi.

❖ Ma'lumotlar to'plami va resurslar: Raqamli texnologiyalar o'qituvchilarga turizm sohasiga oid aktual ma'lumotlar va resurslarga erishish imkoniyatini ta'minlaydi. Bu, o'quvchilarni soha haqida ko'proq bilim va tajriba olishiga yordam beradi.

❖ Tahlil va natijalarni baholash: Raqamli texnologiyalar, o'quvchilarning o'qish natijalarini tahlil qilish va baholash uchun ma'lumotlarni to'plashda va o'qitishning effektivligini baholashda yordam beradi.

❖ O'quvchilarning mustaqillikni oshirish: Raqamli texnologiyalar o'quvchilarga o'zlarining o'rganish jarayonini boshqarish uchun mustaqillik beradi. Bu, o'quvchilarni o'zlarining o'rganish yo'li va yo'nalishi bo'yicha tanlashda va rivojlanishda erkinlikka ega qiladi.

❖ Qo'shimcha imkoniyatlar: Virtual turizm saytlari, 3D-turli mashhurlar joylarining virtual turlari va boshqa interaktiv yordamchi vositalar orqali, o'quvchilarning o'rganish va tajribalarini kengaytirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar taqdim etadi.

❖ Mobil ilova: Mobil ilovalar, terminlar inventari va yangiliklarni o'rgatish uchun qulay va mashhur vositalarni taklif etadi. Turistlar, mobildan terminal va ta'riflarni o'zgartirish, boshqalar bilan aloqani o'rnatish, turizm havolarini qo'shish va boshqalar paytida o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu ilovalar quyosh energiyasi va mobil internet yordamida turizm terminlari bilan ishlaydi.

❖ Online platformalar: Online platformalar, maksimal hamjamiyatga ega turizm terminlari orqali o'rganishga imkon beradi. Bu platformalar o'quv markazlari, turistlarning sohaga oid terminlarni o'rganishiga yordam beruvchi resurslar, jamoatchilikning fikrlarini va o'rganish ning yangi ko'rinishlarini taqdim

etadi. Ushbu metodikalar, terminlar inventarining ko'p foydalanuvchilaridan ko'proq foydalanadi va ulardan ma'lumotlarni to'playdi.

❖ Virtual realitiy (VR) va ergash tartiblari: Virtual realitiy (VR) va ergash tartiblari tajribani o'rgatish uchun qulay va samarali vositalarni taqdim etadi. VR texnologiyasi yordamida turistlar terminlar bilan aloqalari o'rganish, turistik joylarga elektron rivojlanishini tasvir qilish yoki turistik joylarda virtual sayohat qilish imkoniyatini egallabturadi. Erishish, virtual sayohatlar va elektron bayroqla qo'shganda ergash qilish yordamida turistlar terminlarni o'rganish huquqini oladi.

Bu tezisda aytib o'tish kerakki, turizm sohasiga oid terminlarni o'qitishda raqamli texnologiyalar, o'quvchilarning o'rganish jarayonini yanada sodda va samarali qilish uchun katta qo'shimchaqo'llanmalar taqdim etadi. Raqamli texnologiyalar, o'quvchilarning turizm sohasiga oid ma'lumotlarni mustaqil va qiziqarli o'rganishini ta'minlaydi va turizm sohasida keng ko'lamli karyera rivojlanishlari uchun tayyorlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzayev M., Aliyeva M. Turizm asoslari. – Toshkent, 2011.
2. Абдурахмонов Ф., Мамажонов С. Ўзбек тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
3. Алиева М. Дизайнерлик терминларида семантик майдон // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2017. 4. Бектемиров Х., Бегматов Э. Мустақиллик даври атамалари. – Тошкент: Фан, 2002. – 48 б.
4. Белан Э. Особенности формирования новых терминосистем (на материале английской и русской терминологий международного туризма): Автореф.дисс. канд. филол. наук. – Москва, 2009

**ELEKTRON TIJORAT TUSHUNCHASI VA UNDA
ISTE'MOLCHILARNING HUQUQLARI**

Iskandarova Yodgora Oybek qizi
yodgora.iskandarova707@gmail.com

Annotatsiya. rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida bugungi kunda har bir inson o'z faoliyatida elektron tijoratdan foydalanadi. Elektron tijorat texnologiyalar rivojining yutug'i desak, mubolag'a bo'lmaydi. Quyida biz elektron tijorat tushunchasi va unda iste'molchilarning huquqlarini hamda bu boradagi qonunchilikni tahlil qilamiz.

Kalit so'zlari: elektron tijorat, uning subyektlari, iste'molchilarning huquqlari.

Abstract. In the conditions of a developed market economy, today everyone uses e-commerce in their activities. It is no exaggeration to say that e-commerce is an achievement of technological development. Below we will analyze the concept of e-commerce and the rights of consumers in it, as well as the relevant legislation.

Key words: e-commerce, its subjects, consumer rights.

Hozirgi kunda elektron tijorat jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda va iste'molchilar onlayn xarid qilishni afzal ko'rmoqda. Elektron tijorat vaqtini tejash, qulaylik va tanlov kabi ko'plab afzalliklarni taqdim etadi. Ushbu jarayonlarda iste'molchilar o'z huquqlarini himoya qilishdan xabardor bo'lishlari muhim.

Elektron tijorat deganda kompyuter tarmoqlari yordamida amalga oshiriladigan barcha moliyaviy va savdo operatsiyalari va bunday operatsiyalar bilan bog'liq biznes jarayonlarini o'z ichiga olgan iqtisodiyot sohasi tushuniladi. "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunda esa elektron tijorat tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: elektron tijorat — tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tadbirkorlik faoliyati doirasida axborot tizimlaridan foydalangan holda elektron savdo maydonchasi orqali tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladigan oldi-sotdisi. Ya'ni bunda elektron savdo maydonchasi tovarlar (ishlar, xizmatlar) oldi-sotdisini masofadan turib amalga oshirish imkonini beruvchi axborot tizimi hisoblanadi.

O'zbekistonda elektron tijorat sohasi, eng avvalo, 2015-yilda qabul qilingan va 2022-yilda yangilangan "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinadi. Qonunga ko'ra, elektron tijoratda tovarlarni sotuvchi, xizmatlarni yetkazib beruvchi yoki ishlarni bajaruvchi sifatida ishtirok etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxslar sotuvchi deb yuritiladi, elektron tijoratda tovarlarning xaridori esa, iste'molchisi sifatida ishtirok etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxslar bo'lib, ular elektron tijorat ishtirokchilari hisoblanadi. "Elektron tijorat to'g'risida"gi

qonundan tashqari, iste'molchilar boshqa qonunlar, jumladan "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi va "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Elektron tijoratda bitimlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori bilan ham himoyalangan. Ushbu qonun hujjatlari iste'molchilarga qo'shimcha huquqlar beradi, masalan, nuqsonli tovar yoki xizmatlar uchun pulni qaytarish yoki almashtirish huquqi hamda shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish huquqi.

"Elektron tijorat to'g'risida"gi qonun iste'molchilar huquqlarini turli yo'llar bilan himoya qiladi. Masalan, qonun elektron tijorat sotuvchilardan iste'molchilarga o'zlari sotayotgan mahsulot yoki xizmatlar, jumladan, narx, yetkazib berish shartlari va qaytarish siyosati haqida to'g'ri ma'lumot berishni talab qiladi. Ya'ni qonunda xaridorning huquqlari sifatida quyidagilar keltirilgan:

- ✓ shartnomalar tuzish orqali tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotib olish;
- ✓ tovarlar (ishlar, xizmatlar), ishlab chiqaruvchi va tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotib olishning boshqa shartlari to'g'risida to'liq axborot olish;
- ✓ elektron tijorat sohasida amalga oshiriladigan operatsiyalarda ishtirok etish uchun shartlarning tengligini talab qilish;
- ✓ o'z huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini talab qilish.

Agar xaridorni iste'molchi sifatida talqin qiladigan bo'lsak, O'zbekistonda iste'molchilar elektron tijoratni amalga oshirishda alohida huquqlarga ega:

Ma'lumot olish huquqi: Onlayn sotuvchilar o'z mahsulotlari yoki xizmatlari haqida aniq va asosli ma'lumotlarni taqdim etishlari kerak. Bunga keng qamrovli tavsiflar, narxlar va sotish shartlari kiradi. Mazkur ma'lumot tovarlarning etiketkalarida, tamg'alarida, texnik hujjatida yoki tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) ayrim turlari uchun qabul qilingan boshqa usulda iste'molchilarga yetkazilishi mumkin.

To'lovni qaytarish huquqi: Iste'molchilar qabul qilgan tovarlar nuqsonli yoki tavsiflanganidek bo'lmasa, tegishli muddat ichida qaytarish huquqiga ega. Bunda tovarni ayni shunday markali maqbul sifatli tovarga almashtirib berish, tovarni boshqa markali shunday tovarga almashtirish, tovar xarid narxini tegishlicha qayta hisob-kitob qilish, tovarning nuqsonlarini bepul bartaraf etish yoki bartaraf etishga qilgan xarajatlarini qoplash, xarid narxini nuqsonga mutanosib ravishda kamaytirish yoki shartnomani bekor qilib, ko'rilgan zararni qoplash kabi talablardan birini iste'molchi qo'llashi mumkin. Bu jahon amaliyotlariga mos keladi va onlayn xarid qiluvchilarga kafolat beradi.

Ma'naviy zarar uchun haq talab qilish: Iste'molchi huquqlari buzilishi tufayli unga yetkazilgan ma'naviy zarar uchun uni yetkazgan shaxs haq to'lashi

lozim. Ma'naviy zarar uchun to'lanadigan haq miqdorini sud belgilaydi va bu iste'molchi ko'rgan mulkiy ziyon zararining o'rnini qoplanishidan qat'i nazar, amalga oshiriladi.

Umuman olganda davlatimizda elektron tijorat rivojlanishiga mos ravishda qonun hujjatlari ham takomillashtirilib kelinmoqda. Buning negizi albatta elektron tijorat ishtirokchilari, ayniqsa iste'molchilarning huquqlari buzilishi holatlarini oldini olish va onlayn operatsiyalarni amalga oshirishda qonunlarga rioya qilinishini ta'minlash hisoblanadi.

ЧАКАНДАНИНГ (HIPPOPHAE RHAMNOIDES L.) БИОЭКОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Хакимова Малоҳат Холмуродовна

катта ўқитувчи, Тошкент давлат аграр университети, Тошкент.

Кириш. Наботот оламининг ҳар бир ўсимлиги ўзининг биоэкологик кўрсаткичларига кўра онтогenezини тугатади. Ушбу ўсимликлар орасида чаканда бутаси экологик жиҳатдан пластик ўсимлик сифатида дарё қирғоқларида юзага келган қумли-шағалли сувдан холи бўлган ерларда биринчи бўлиб ўсади, ўзининг ёнлама илдизлари орқали кўпайиб ўз худудларини кенгайтиради (сувли худудларда). У тўқай ўсимлиги сифатида қумли, шағалли, қумоқ аллювиал ётқизикларда, доимо намлик етарли тупроқларда яхши ўсиб ривожланади.

Илдизида тупроқ ҳавосидан азотни ўзлаштирувчи тугунакли бактериялар (микориза) мавжудлиги чакандани тупроқ унумдорлиги паст бўлган ерларда ҳам бемалол ўсиб, ривожлана олишини кўрсатмоқда [1].

Тадқиқотларимиз давомида жийда ва чакандани турли экологик муҳит Тошкент ва Қорақалпоғистон тупроқ шароитида вегетатив кўпайтириш давомида илдиз олган клонларда микориза тугунаклар шакллангани кузатилди [3].

Тадқиқот услублари: Чаканданинг “Дар Катун” нави кўчатларини ўсиб ривожланишини ўрганиши фенологик кузатув ишларини олиб бориш, биометрик ўлчаш ишлари, Г.Н.Зайцев, табиий популяциялари ва маданий плантацияларини ўрганиш Э.Т.Бердиев А.Қ.Қайимов, Р.М.Абдуллаев ва С.А. Турдиевлар услублари асосида амалга оширилди.

Тадқиқот натижалари ва уларнинг муҳокамаси. Тадқиқот натижалари шуни кўрсатмоқдаки, чаканда илдизидан бачкилайди, ёғочлашган қаламчалари ёрдамида ва пархиш йўли билан ҳам кўпаяди. Унинг ареали нихоятда кенг, МДХ да Болтиқ бўйи мамлакатларида, Молдавияда, Қора денгиз бўйида, Шимолий Кавказда, Кавказортида, Ғарбий ва Шарқий

Сибирда ва Марказий Осиёда учрайди. Ўзбекистонда Зарафшон дарёсининг ўрта оқимида чаканданинг йирик табиий бутазорлари мавжуд. Чаканда асосан дарё, кўл ва денгиз қирғоқларида қулай муҳит юзага келганда яхши ўсади. Тоғли районларда денгиз сатҳидан 1000-1500 м баландликларгача тарқалган бўлиб, тўқайзорларда, толзорларда ўсади.

Республикамизда чаканда Тошкент, Самарқанд, Қашқадарё ва Сурхондарё вилоятларида кенг тарқалган. Тошкент воҳасининг Чирчиқ, Охангарон, Чотқол, Писком дарё қирғоқларида, Самарқанд вилоятининг Зарафшон қўриқхонаси ҳудудида, оқ ва қора дарё қирғоқларида, Сурхондарё вилоятининг Тўпаланг, Сангардак ва бошқа тоғ дарёлари қирғоқлари бўйларида ҳамда ер ости сувлари 0,5 метрдан 1 метр чуқурликда жойлашган шағалли ҳудудларда учрайди, кўпинча тармоқли популяциялар шаклида учрайди.

Юқорида таъкидлаб ўтилганидек бошқа ўсимликлар сингари чаканда ҳам биоэкологик кўрсаткичларига кўра сояга чидамсиз ёруқсевар ўсимлик ҳисобланади. Тоғли ўрмонлар таркибида чаканда турли хил ўсимликлардан тол, терак, қайин, заранг, наъматак, зирк, ирғай буталари билан биргаликда ўсиши мумкин.

Кўп жойларда у кўпинча деярли тоза, тенгдош буталар ва унчалик бой бўлмаган флора таркибга эга бўлган чакалак бутазорларни ҳосил қилади. Чаканда Самарқанд вилоятидаги Зарафшон қўриқхонаси (Зарафшон дарёсининг ўрта оқими) ҳудудида табиий популяцияси яхши сақланган, бу ерда меванинг биологик захираси тахминан 35-50 тоннагача бўлиб, шағал-кумли ерларда яхши ўсмоқда.



*Расм. Зарафшон дарё ҳавзасида чаканданинг экологик ҳолатини тадқиқ
этиш жараёни*

Сув тошқинлари пайтида чаканда дарё қирғоқларини химоялайди, бошқа ёғочли ўсимликлар сингари атрофида лойли қумларни аста-секин тўплаб эрозияни олдини олади.

Илдизларида азотни ўзлаштирувчи микориза туганакли ҳосилалари мавжуд бўлиб ўсимликни ўсиб ривожланишида ёрдам беради.

Шундай қилиб чаканда ер ости сувлари яқин нам ва нам қумли тупроқларда яхши ўсади, ер ости сувларининг яқинлиги ва баҳор ёзги сув тошқинидан зарарланмайди.

Чаканданинг қимматли хўжалик ва биоэкологик хусусиятларни ўрганиш бўйича илмий-тадқиқот ишлари асосан Зарафшон дарёсининг паст текислик табиий тўқай ўрмонларида олиб борилди. Ҳозирги вақтда Зарафшон дарё водийси Ўзбекистонда чаканданинг табиий ўсиши бўйича энг йирик популяцияси ҳисобланади.

Экологик ва тупроқ-гидрологик шароитларнинг хилма-хиллиги бу ҳудудда ўсимлик шакллариининг катта генетик хилма-хиллигини шакллантиришга ёрдам берганлигини кўрсатмоқда. Тоғли ҳудудлардаги сув ирмоқлари ва сойликларда эрозияни олдини олишда ҳам аҳамияти юқоридир.

Табиий тўқай фитоценозларида чаканда бошқа дарахт-буталар билан турли ўсимлик формацияларини юзага келтирганлиги билан аҳамиятлидир.

Адабиётлар таҳлилларига кўра ҳам у дарё қирғоқларини мустаҳкамлашда, манзарали ўсимлик сифатида паркларга экилади, айниқса, кузда меваси етилганда гўзал манзара ҳосил қилади. Дарё ва кўллар қирғоқларидаги кўчма қумлар ҳаракатини тўхтатиш мақсадида экиш мақсадга мувофиқлиги, тупроғи оз, тошлоқ, қум-шағал ёки тоғ жинслари сочилиб ётган жойларда ҳам ўса олиши билан аҳамиятлидир [2].

Россияда чаканда мевасидан чаканда мойи олиш ва қайта ишлашга ихтисослашган бир неча заводлар мавжуд. Республикамизда чаканданинг генофондини ўрганиш ва кўчатларини етиштириш агротехникасини ишлаб чиқиш ишлари энди бошланган. Чаканда ўсимлигининг ёғочи қаттиқ, мустаҳкам ва жуда пишиқ бўлиб, уни майда дурадгорлик ишларида фойдаланиш мумкин. Республикамизда бугунги кунда ўсимликнинг ҳар хил шароитлардаги ҳолати ва биоэкологик хусусиятлари ўрганилмоқда.

Хитойликлар учун чаканда стратегик ўсимлик бўлиб ҳисобланади. Бу ўсимлик орқали ҳудуднинг экологик ҳолат яхшиланади, сув ва шамол эрозияси билан кураш ўтказиш мумкинлиги аниқланган. Хитой шароитида кўпгина унумли тупроқлар ювилиб кетишини олди олинган. Шунинг учун

чаканда ўсимлиги орқали, унинг биоэкологик хусусиятларидан фойдаланиб бу муаммоларни ечиш мумкинлиги аниқланган.

Хулоса, маълумки кейинги пайтларда антропоген омиллар таъсирида ёввойи чакандазорларнинг майдонлари кескин қисқараётганлиги кузатилмоқда. Қолаверса чакандазорлар асосан ўтин сифатида кесилиши, худудда чорва молларни қаровсиз боқилаётганлиги тадқиқотларимиз жараёнида кузатилди.

Шунга кўра ушбу ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилашда фойдаланиладиган экологик хусусияти юқори бўлган чаканда ўсимлигини тикансиз навлари асосида муҳофаза этиладиган худудларда маданий плантацияларини барпо этиш муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади. Натижада барпо этилган плантациялар, формацевтика саноати учун хомашё манбаи, фауна вакиллари учун ҳам қиш мавсумида январ феврал ойларигача озуқа манбаи бўлиб ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Бердиев Э.Т., Турдиев С., Каримов М. Микоризообразующие грибы в корнях лоховых (*Elaeagnaceae Lindl.*)// Ўзбекистон аграр фани хабарномаси – Вестник аграрной науки. – Тошкент, 2013. – № 2(52). – Б. 77-79.
2. Хакимова М.Х., Турдиев С.А., Жумрутсимон чакандани (*Hipporhae rhamnoides L.*) тадқиқ этиш, кўпайтириш ва плантациясида ўстириш тарихи. //Вестник аграрной науки Узбекистана 2021 йил 2181-7774 2(86/2) 2021маҳсул сон.
3. Kunnazarov A., Turdiev S. BIOLOGICAL FUNDAMENTALS OF VEGETATIVE PROPAGATION OF TASHKENT-16 AND SAMARKAND-7 VARIETIES OF THE ELAEAGNUS ORIENTALIS IN THE CONDITIONS OF KARAKALPAKSTAN //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. D5. – С. 106-110.

ВЛИЯНИЕ ПОЛИМЕРНЫХ ПОКРЫТИЙ КОЛОСНИКОВ ВОЛОКНООЧИСТИТЕЛЬНОЙ МАШИНЫ НА ФИЗИКО- МЕХАНИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ХЛОПКА- ВОЛОКНА И ПРЯЖИ

Хосият Тухтаевна Нуруллаева

*Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности,
ст.преп.*

Мухиддин Камоладдин угли Оллаберганов

*Ташкентского института текстильного и легкого промышленности,
студент*

Аннотация: Целью настоящей работы является изучение влияния рабочих органов волокно очистителя на физико-механические свойства волокна. В работе изучены физико-механические свойства волокон: разрывная нагрузка, длина волокна, сумма пороков, очистительный эффект.

Главной задачи материаловедов-текстильщиков является объективная оценка качества текстильных материалов. Выполнение этих задач требует наращивания мощностей и развития инфраструктуры отрасли, оснащения её современным автоматизированным оборудованием путем максимального использования в производстве последних достижений науки и техники. На современном этапе развития народного хозяйства Республики, особенно остро стоит проблема улучшения качества выпускаемой продукции и доведения его до уровня мировых стандартов [1,4].

Одним из основных продуктов, вырабатываемых хлопкоочистительными заводами, является хлопковое волокно, качество которого в основном зависит от состояния техники и технологии переработки. Плохое состояние техники приводит к разрушению и уменьшению длины волокон, к механическим повреждениям и снижению их прочности, к росту содержания пороков и пуха в волокнистой массе.

Основным оборудованием хлопкоочистительных заводов является волокноотделитель [джин], от состояния рабочих органов которого во многом зависит качество перерабатываемого продукта. Механический процесс отделения волокна от семян в рабочей камере происходит результате взаимодействия хлопка-сырца с пильным цилиндром, колосниковой решёткой и семенной гребенкой .

Взаимодействие хлопка с переходными поверхностями зубьев пил и колосников в рабочей зоне приводит к повреждению волокон.

Одновременно эти поверхности подвергаются интенсивному изнашиванию, в результате которого колосники теряют свою

работоспособность [2]. В рабочих зонах этих органов имеют место высокие удельные давления [более 4.9кН/м²] и скорости относительного перемещения достигающие в джине 12м/с. Из-за сложной конфигурации, колосники джинов изготавливаются из серого чугуна марки СЧ15, тяжелые условия работы колосников приводят не только к их интенсивному износу, но и к повреждению перерабатываемого продукта - хлопка. Известно, что подавляющее большинство колосников интенсивно изнашиваются от непосредственного касания пил, из-за их коробленности и погрешности сборки колосниковой решётки [3,6,7].

При эксплуатации, износ колосников приводит к увеличению межколосникового зазора в рабочей зоне и нарушению процесса джинирования. Уже после 3-х месяцев эксплуатации колосниковой решётки в условиях хлопкозавода 70-80% межколосниковых зазоров начинают превышать допустимые значения. Поэтому срок джинных колосников ограничен, что вызывает необходимость их частой замены. С другой стороны, существующая технология изготовления колосника не обеспечивает заданной точности.

Уже при изготовлении заготовок в литейном цехе, значительная часть колосников уходит в брак. Так, по данным производственного анализа около 44 % отливок бракуется из-за большой коробленности, нарушения размеров рабочей части колосника и прочих дефектов литья. После механической обработки процент годных деталей составляет также всего 4 2% из-за нехватки припуска на механическую обработку, в результате большой коробленности заготовок, а также из-за отсутствия единых технологических баз. Даже при сборке колосниковой решётки из собранных после отбраковки колосников, технологические зазоры на рабочем участке колеблются в больших пределах. В результате около 30 % всех пильных дисков оказывают дополнительные боковые давления на колосник, что приводит к поврежденности волокон и интенсивному износу. Поэтому разработка новых колосников и новых методов их сборки является актуальной задачей.

Текстильная промышленность выпускает очень большое число текстильных материалов. Их качества нужно изучать на разных уровнях - в фабричных лабораториях, в научно – исследовательских институтах и вузах, в руководящих и планирующих организациях промышленности сельского хозяйства и торговли.

В последние годы текстильная продукция становится все разнообразнее, что связано прежде всего с ростом использования химических волокон объявлением их ассортимента, внедрением новых видов пряжи, развитием

текстильной техники и технологии, обусловивших появление новых видов продукции, например, трико- тканей и другие[5].

Значительное внимание будет уделено улучшению качества и ассортимента продукции. Например, удельный вес продукции высшей категории качества достигает 15,5 % общего объема производства. Здесь важную роль должно сыграть получившее широкий размах в легкой промышленности движение по сверхплановому повешению производительности труда на 1% и себестоимости продукции на 0,5%.

Для решения этих задач необходимо увеличить производство промышленной продукции за пятилетие 26-28%, в том числе средства производства на 26-28% и предметов потребления на 27-29%, из них в легкой промышленности на 18-20%, повысить производительность труда в промышленности 23-25%, получить за счет этого более 90% прироста продукции.

Результаты исследований позволяют сделать вывод о том, что переработки хлопка-волокна на очистительных машинах, имеющих колосники с полимерным покрытием, обеспечивает получение волокна с лучшими эксплуатационными характеристиками.

Список использованных литературы

- 1 Иванов, М.Н. Детали машин/ М.Н. Иванов – М.: Высш. шк., 2006. -336 с.
- 2 Кудрявцев, В.Н. Детали машин: Учеб. для машиностр. спец. вузов/ В.Н. Кудрявцев - Л.: Машиностроение. Ленингр. отд-ние, 1980. - 464 с.
- 3 Нуруллаева, Х. Т. (2023). АНАЛИЗ И РАЗРАБОТКА КОНСТРУКЦИВНОЙ СХЕМЫ ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ РЕМЕННОЙ ПЕРЕДАЧ С ВЕДОМЫМ СОСТАВНЫМ ШКИВОМ И С УПРУГИМИ ЭЛЕМЕНТАМИ. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 15, 387-399.
- 4 Нематов, А. К., & Нуруллаева, Х. Т. (2023). РАЗРАБОТКА КОНСТРУКЦИЙ И ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ РЕМЕННЫХ ПЕРЕДАЧ С СОСТАВНЫМИ ШКИВАМИ С УПРУГИМИ ЭЛЕМЕНТАМИ. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 15, 354-376.
- 5 Нуриллаева, Х. Т. (2022). Исследование конструкции колосников очистителей хлопка от крупного сора. Science and Education, 3(5), 571-577.

- 6 Нуруллаева, Х. Т. (2022). ВЛИЯНИЕ ЗАЗОРА РАБОЧИХ ОРГАНОВ НА ОЧИСТИТЕЛЬНЫЙ ЭФФЕКТ. *Universum: технические науки*, (4-6 (97)), 51-53.
- 7 Нуруллаева, Х. Т., & Ортиков, О. А. (2021). Исследование процесса ударного взаимодействия летучки хлопка-сырца с многогранным колосником очистителя. *Universum: технические науки*, (12-3 (93)), 68-71.

ПРИМЕНЕНИЕ МАТЕМАТИЧЕСКОГО ПАКЕТА «Mathcad» ПРИ ВЫПОЛНЕНИИ РАСЧЕТНО-ГРАФИЧЕСКИХ РАБОТЫ ПО ТЕХНИЧЕСКОЙ МЕХАНИКЕ

Дрёмова Надежда Васильевна

Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Аннотация. В статье представлен алгоритм выполнения работ по Технической механике для студентов ВУЗа с применением математического программного комплекса «Mathcad»

В связи с компьютеризацией стало возможным внедрять различные программные продукты, в частности «Mathcad» в учебный процесс по многим дисциплинам [1]. Из-за оригинальности этих программы нашли широкое применение при выполнении расчетно-графических расчетов по теоретической механике, сопротивлению материалов. Основная цель использования этой программы связано с точки зрения экономии времени и углубления знаний студентов по изучаемым предметам [2].

Для внедрения программных продуктов в учебный процесс по дисциплине «Техническая механика» в разделе «Теоретическая механика» разработаны алгоритмы таких работ как «Определение реакций опор твердого тела, Определение скорости и ускорения по заданным уравнениям ее движения (Рис. 1.) и др», по разделу «Сопротивление материалов» нами разработаны следующие алгоритмы такие как, «Изгиб, Геометрические характеристики плоских сечений, Растяжение-сжатие и Кручение и др.». Использование программных продуктов для выполнения расчетно-графических работ по курсу «Техническая механика» позволяет за короткий промежуток времени определить [3,4,5]:

1. Определение реакций опор твердого тела;
2. Определение скорости и ускорения по заданным уравнениям ее движения;
3. Интегрирование дифференциальных уравнений материальной точки под действием постоянных сил;
4. Растяжение и сжатие;
5. «Геометрические характеристики плоских сечений»;
6. «Построение эпюр внутренних усилий при изгибе»

(рис.2, 3», 7. «Определение перемещений при изгибе»; 8. «Статически неопределимые задачи при изгибе» и др.

При этом задания выполняются в три этапа:

1. Подготовительная часть, где выписывают из сортамента, если это необходимо, все необходимые данные для расчета согласно своему варианту, проводят все вспомогательные процедуры для дальнейших расчетов.

2. Расчетная часть. Для проведения расчетов студент открывает соответствующий файл программы, вводит свои данные и уточняет коды, компьютер автоматически производит вычисления и выдает результаты.

3. Заключительная часть. После получения компьютерных вычислений проводится анализ полученных результатов с последующим построением эпюр [3,4].

Перед тем, как приступить к выполнению задания рекомендуется студентам соблюдать следующие указания:

1. Проработать соответствующий теоретический раздел курса сопротивление материалов

2. Ознакомится с пакетами математических программ Mathcad.

3. Выбрать данные для расчета согласно своему личному шифру или порядковому номеру по журналу преподавателя.

4. Расчетно-проектировочная работа должна быть выполнена самостоятельно, оформлена с соблюдением всех требований, завершена и защищена в срок, установленный кафедрой.




Рис. 1.




Рис. 2




Рис. 3

Литература

1. Дремова, Н. В. (2015). О проблемах решения задач на практических занятиях по теоретической механике при непрерывном образовании. *Uzluksiz ta'lim (Непрерывное образование)*, 4, 107-110
2. Дремова Н.В. Реализация образовательных технологий на учебных занятиях по дисциплине «Техническая механика», ТИТЛП, Материалы научно-практической конференции «Текстильщик -2017» 16-17 май 2017, С. 256-259.
3. Дремова Н.В. Сопротивление материалов в решениях задач с применением программного продукта «Mathcad» Учебное пособие. 2020,с.345
4. Ахмедбекова, А. В., Дрёмова, Н. В., & Ортиков, О. А. (2022). Важность преподавания инженерных дисциплин в высших учебных заведениях. *Science and Education*, 3(5), 655-66
5. Ахмедбекова, А. В., Дремова, Н. В., & Ортиков, О. А. (2023). Непрерывное преподавание специальных технических дисциплин в условиях современного высшего образования. *Gospodarka i Innowacje.*, 35, 69-76.

РАХБАРЛИК УСЛУБЛАРИ МОҲИЯТИ ВА ТАВСИФЛАНИШИ

Фатидинова Дилдора Мурадҷонова
АДПИ Педагогика ва психология кафедраси ўқитувчиси

Аннотация. Мақолада раҳбарлик услубларининг келиб чиқиши, моҳияти ва тавсифланиши ўрганилган, турли раҳбарлик моделлари, уларнинг хусусиятлари таҳлил қилинган. Раҳбарларнинг турли услублардан фойдаланишлари ҳақида тавсиялар берилган.

Калит сўзлар: раҳбарлик услуби, бошқарув услублари, авторитар раҳбарлик услуби, демократик раҳбарлик услуби, либерал раҳбарлик услуби, раҳбарлик моделлари.

Республикамизда бозор иқтисодиётининг қарор топиши корхона ва ташкилотларнинг раҳбарларига янада кўпроқ вазифалар юклатиб, уларнинг масъулиятини оширмоқда. Чунки корхона ва ташкилотларнинг самарали фаолиятини малакали раҳбар ходимлар таъминлайди.

Раҳбарлик услуби – бошқарув жараёнида у ёки бу масалани ҳал қилишда раҳбарнинг ўзига хос ёндашишидир. Раҳбар қарор қабул қилганда, унинг ижросини ташкил этганда ва қўл остидаги ходимлар ишини назорат қилганда ўз вазифаларига мувофиқ иш кўради. Бироқ, ҳар бир раҳбар бунда ўзига хос равишда, бошқарув жараёнида ўзи учун мос бўлган, ўз раҳбарлик услубини белгилайдиган усуллар билан фаолият кўрсатади. Мутлақо бир хил икки киши бўлмаганидек, раҳбарликда ҳам мутлақо бир хил услуб йўқ.

Бошқарув услуби раҳбар ва мутахассисларнинг фаолиятини жуда мураккаб ва сермашаққат томонларини ўзида акс эттиради. Бошқарув услуби – бу раҳбарнинг ўзига хос бошқариш фазилатидир. Ҳар бир раҳбарнинг ўзига хос бошқариш услуби мавжуд. Янги жамоага келган ҳар қандай раҳбар олдинги раҳбарнинг ўрнини тез боса олмаслиги мумкин. Шу боис у биринчи навбатда жамоага мослашиши, мавжуд услубларни ўзлаштириши ва бутун жамоага ўрганиб олиши керак. Ўз навбатида раҳбарнинг ишлаш услуби, албатта бутун меҳнат жамоасининг ишлаш услубига таъсир кўрсатади.

Бозор иқтисодиётига ўтиш шароитида фаолият юритаётган раҳбар - мутахассисларга янада кўпроқ талаблар қўйилади. Улар юксак даражада ишчанлик ва ахлоқ сифатларига, жипслашган ва ахл жамоани ташкил эта оладиган, меҳнат жамоаси ва давлат манфаатларини тўлиқ тушунадиган қобилиятга эга бўлишлари керак.

Замонавий раҳбарда касб маҳорати, иқтисодий тафаккурга, келажакни кўра билувчи ва самарали хўжалик юритиш, шахсий намуна, интизом, юксак

маъсулият, янги ғояларни яратиш қобилияти бўлиши керак. Раҳбар ўз жамоасида муносабатни шундай ташкил этиши керакки, унинг қўл остидаги ходимлари ҳеч тортинмасдан ундан маслаҳатлар ва кўрсатмалар олсин.

Раҳбар қўл остидагиларни билиши, уларнинг қобилияти, ишга лаёқатлиги, билим ва кўникмаси, ахлоқи, эгаллаб турган лавозимига мослиги, ходимлар ўзидаги мавжуд хусусиятларни тўлиқ намоён эта олаётдиларми? деган саволга жавоб топиши керак.

Бироқ, ҳар бир раҳбар бунда ўзига хос равишда, бошқарув жараёнида ўзи учун мос бўлган, ўз раҳбарлик услубини белгилайдиган усуллар билан фаолият кўрсатади. Мутлақо бир хил икки киши бўлмаганидек, раҳбарликда ҳам мутлақо бир хил услуб йўқ. Шу нуқтаи назардан, раҳбарлик услубларини тавсифлашда икки хил ёндашув юзага келган: анъанавий ва замонавий. Анъанавий ёндашувга «бир ўлчамли» бошқарув услублари кирса, замонавий ёндашувга «кўп ўлчамли» услублар киради.

Раҳбарликнинг авторитар (автократик, директив, маъмурий) услуби. Ҳокимиятнинг ҳаддан ортиқ марказлашуви, корхона фаолиятига доир барча масалаларни раҳбар томонидан ҳал қилиниши, ходимлар билан алоқанинг чекланганлиги билан характерланади. Бошқарувдаги асосий усуллари – буйруқ бериш, талаб қилиш, санкциялар эълон қилиш, мукофотлардан маҳрум қилиш ва бошқалар. Авторитар услуб икки хил бўлиши мумкин: эксплуатацион ва дўстона.

Эксплуатацион авторитар услуб – раҳбар қўл остидагиларига ишонмасдан ва уларнинг фикрини сўраб ўтирмасдан яқка ўзи қарор қабул қилади ҳамда ҳаммаси учун жавобгарликни ўз бўйнига олади. Бажарувчиларга нимани қандай бажаришни уқтириб, кўрсатмалар беради ва ишга ундашнинг асосий шакли сифатида жазолашдан фойдаланади.

Хулоса сифатида айтишимиз мумкинки, ҳар бир модель, ҳар бир услуб «инсонларни бошқариш санъати»нинг маълум бир жиҳатларинигина кўрсатиб бера олади. Раҳбар услубига таъсир этувчи ижтимоий, психологик, иқтисодий характердаги кўплаб омиллар мавжуд бўлиб, бу ҳар қандай раҳбарнинг доимо ўз устида иш олиб бориши кераклигини тақозо этади. Ўз устида ишлайдиган раҳбар бутун карьераси давомида фақат бир услубдан фойдаланмасдан барча услуб, усул ва таъсир ўтказиш йўлларидан вазиятга энг мос келадиганини танлаб, фойдаланишни ўрганиши лозим. Шунингдек, бу назарий моделлар нафақат ташкилотдаги инсонлар гуруҳини бошқаришда, балки жамиятнинг энг кичик бўлаги оиладаги инсонлар гуруҳини бошқаришда ҳам қўл келади. Шу сабабли раҳбар ходимлар билан бир қаторда оддий инсонлар ҳам улардан фойдаланишни билиши мақсадга

мувофиқдир. Рахбар фаол бўлмаса, жамиятда ижтимоий фаоллик шаклланмайди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Махмудов И.И. Бошқарув психологияси. – Т., 2006. –187-б.
2. Беляцкий Н.П., Велесько С.Е., Ройш П. Управление персоналом: учебное пособие для экономических вузов. – Минск: «Экоперспектива», 2005. –352-б.
3. Зайцев Г.Г. Управление деловой карьерой. – М.: «Академия», 2007. – 346-б.
4. Литвинцева Н.А. Психологические аспекты подбора и проверки персонала. – М.: «Бизнес-школа «Интел-синтез», 2004. –400-б.
5. Одегов Ю.Г., Карташова Л.В. Управление персоналом, оценка эффективности. – М.: «Экзамен», 2004. –256-б.
6. Тараненко В.А. Управление персоналом, корпоративный мониторинг, психодиагностика: Тесты для отбора персонала. – Киев: «Ника-Центр», 2006. –236-б.

БЎЛГУСИ ПЕДАГОГЛАРДА МЕДИА КОМПЕТЕНТЛИК ВА АХБОРОТ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ

Хайтбоева Мехринисо Низомаддин қизи

*Тошкент ахборот технологиялари университети Урганч филиали
Телекоммуникация инжинеринги кафедраси стажор-ўқитувчиси*

Аннотация. Мазкур мақолада бўлғуси педагогларда медиа компетентлик ва ахборот маданиятини шакллантириш, бўлажак ўқитувчилар касбий-педагогик компетентлиги мазмуни ҳамда уларнинг моҳияти изоҳлаб ўтилган. Кундалик ҳаётда муваффақиятларга эришиш учун ахборотни излаб топиши, таҳлил қилиши, кундалик ҳаётда учрайдиган муаммоларни ҳал этишда фойдалана олиш кўникмаларини шакллантиришда ўқитувчи медиакомпетентлиги масалалари тўғрисида атрофлича сўз юритилган. Медиа компетентлик ва ахборот маданияти бўйича таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган, хулосалар тақдим қилинган.

Калит сўзлар: бўлажак ўқитувчилар, амалий фаолият, касбий компетентлик, мотивацион ҳаракатлар, педагогика, психология, компетенция, касб, инновация, ахборотни излаб топиш.

Ўқитишнинг замонавий усул ва воситаларини амалиётга жорий этиш бугуннинг долзарб вазифаларидан ҳисобланади. Шиддат билан ўзгариб бораётган дунёда глобаллашув жараёнларининг ижобий томонлари билан

If in 2015 our country was visited by more than two million travelers from 70 countries of the world, and the volume of export of services in this area exceeded one billion US dollars, then last year the volume of tourist services increased by 15.9%, and their export - by 12%. It is also important that within the framework of regional programs for the development of tourism 814 jobs have been created, the number of employees in this sector has exceeded 200 thousand people. It should be noted that the important factors that influenced the twofold increase in the number of arriving foreign tourists in 2018 were the liberalization of the visa regime, the simplification of the rules for staying in Uzbekistan, the simplification of doing business, the development of infrastructure in the tourism sector and the promotion of tourism potential, including: – additional establishment of a visa-free regime for 9 countries (18 in total), an increase in the number of countries for whose citizens a simplified regime for obtaining entry visas from 12 to 50 is applied; – the beginning of the functioning from July 15, 2018 of the system of registration and issuance of electronic entry visas and the introduction of a procedure for visa-free entry, temporary stay and exit from Uzbekistan through checkpoints for citizens of 101 states passing through the territory of Uzbekistan; – simplification of the procedure for temporary registration of foreign citizens on the territory of the republic, which has been completely transferred to electronic format through the E-MEHMON system, according to which the right to register foreign citizens is granted, in addition to accommodation facilities, to medical institutions, travel companies, owners of private apartments and guest houses, as well as foreign citizens traveling independently around the country via the Internet and mobile applications. The developed concept for the development of the tourism sector of the Republic of Uzbekistan in the period up to 2025 is aimed at achieving an increase in the effectiveness of ongoing reforms to create favorable economic conditions and prerequisites for the development of the national tourism sector, as well as developing priority goals and objectives for the accelerated development of the tourism industry, increasing its role and contribution to the economy, diversification and improvement of the quality of tourism services, improvement of tourism infrastructure.(Tuhliyev I.S Mahmudov J.A “Development of e-commerce

Tourism”(2018) According to Datareportal.com’s “Digital 2020” report in January 2020, 59 percent of the world’s 7.75 billion people, or 4.54 billion, use Internet, 67 percent (5.19 billion) are mobile phone users and 3.80 billion people, or 49 percent of the world’s population, are active social media users. These numbers are growing accordingly every year. (14)(Journal of critical review 16.03.2020 (<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>) DOI: <http://dx.doi.org/10.31838/jcr.07.05.72>)

Table 2.1 Digitalization indicators of the economy of the Republic of Uzbekistan

№	INDICATORS	2014	2015	2016	2017	2018	2019
1	Total number of Internet users (million)	4.9	10.2	12.1	14.7	20	22
2	Number of mobile subscribers (mln.)	19.6	20.1	20.6	21.4	22.8	23.9
3	Number of mobile base stations (unit)	14309	14921	16265	18194	22178	26017
4	International data network bandwidth (Gbit / s)	10	16.07	25.7	64.2	1200	1200
5	Total distance of fiber-optic communication lines (thousand km)	14.4	16.4	17.9	20.3	24.5	36.6

Source: prepared by author based on the data from stat.uz and mitc.uz

Thanks to the support of the "watchdog" of e-commerce - the GDS, in the era of the Internet, electronic sales within one decade have reached such an impressive scale in a number of countries that they began to influence the structure of relationships between participants in the entire tourism industry. Today, the development of e-commerce in tourism is highly concentrated in several centers: the United States, Western Europe and countries such as India, Brazil and Russia. However, it is clear that the processes of introducing elements of e-commerce are going on everywhere, from China to Chile. At both inter-firm and retail levels, significant progress has been seen in other industries across all regions. The ability to proceed from your own needs, and not from the offers available, to form your own set of services in the desired order and at any stage of the journey, personification of systems designed for a mass client, the availability of any service 24 hours a day - these are some of the advantages of e-business that increase its relevance. But for the implementation of a new approach to the provision of services, changes are required in the entire chain of formation of a tourist product. Figure.2.1




Figure 2.1 Social media growth. www.digitalinformationworld.com

Uzbekistan in the way of integration with other Central Asian countries, with its richly diverse cultural inheritance and wealth of natural tourism attractions spanning across 12,000 kilometers, unique World Heritage Sites and through distinctive tourism presence, is making a great interest of tourist from all over the world (Kemal Kantarci, Muzaffer Uysal, & Vincent P. Magnini, 2014). The „Silk Road“ has been travelled along for centuries by conquerors, traders, missionaries, geographers and, more recently, tourists. It served as a fundamental mode of exchanging cultures, crafts, ideas, technologies, beliefs and peoples. Currently, corridor cities of this trade way, such as Samarkand, Bukhara and Khiva, have been appealing flow of travelers from all over the world. Since 1991, coinciding with the independence of Uzbekistan from the former Soviet Union, there has been a revival of interest in the Silk Road – for cultural exchange, trade and tourism. After having received its independence the state has been established the policy and model of tourism development (Coulibaly et al., 2012).

By the end of 2017, Uzbekistan had a population of 32.64 million people, out of which 15.45 million were Internet users, placing the penetration rate at 47.7% (Uzbekistan National News Agency). 51% of users access the Internet through their smartphones, 47% go online using computers (both desktops and laptops), and 2% use their tablets. Growing mobile penetration has been playing a critical role in improving Internet access. However, service is still expensive, and broadband speeds are low, which curbs internet use. With the goal of increasing Internet access, Uzbektelekom plans on introducing modern fiber optic technologies, which will reach distant regions in the country, including over 2 thousand kilometers of fiber that was installed in 2017. In 2017, there were 21.38 million (70% of the population) mobile connections in Uzbekistan, out of which 42% were either 3G or 4G. Uzbeks prefer pre-paid connections, which represent 97% of all mobile connections, while only 3% of them were post-paid. According to Freedom House, Uzbekistan has one of the most tightly controlled online environments in the world. However, the government has been taking an interest on e-commerce,

particularly with a "social web solution" that seeks to expand the scale of e-commerce and make it more convenient for social services to be provided online (Uz Daily). As of July 2018, the most popular browsers in the country by market share were Chrome (53.69%), followed by UC Browser (19.99%), Opera (5.62%), Samsung Internet (4.61%), Firefox (4.52%), and Safari (3.88%). As for search engines, Google was the most popular one in Uzbekistan, with a market share of 71.87%, followed by Yandex RU (24.02%) and Mail.ru (2.64%). E-commerce is still underdeveloped in Uzbekistan, and it is only now starting to become a priority. In May 2018, the Uzbek President signed a decree "On measures for the accelerated development of e-commerce", and approved the "Program for the Development of E-commerce in Uzbekistan for 2018-2021" Table 2. As a result, the market is expected to grow significantly in the next few years. Nevertheless, given that e-commerce is still rather uncharted in Uzbekistan, there aren't any official numbers on the market value or revenue. The main barriers to development of e-commerce in the country are insufficient electronic banking services, conversion limitations and underdeveloped trade and customs regulations. The capital, Tashkent, is currently the only viable e-commerce market in the country, as it's home to 90% of Uzbek internet users. On the other hand, the increasing number of mobile internet access contributes to the potential for e-commerce growth, and moderate to strong growth is expected in mobile broadband use over the next five years. However, at the moment mobile e-commerce is not widespread in Uzbekistan and is still developing. According to Euromonitor International, the increasing use of Internet services and the competition among internet providers is driving down prices. Arbauz led online sales in 2016 with 11% value share, broad product variety, and strong promotional campaigns. Other popular e-commerce websites include OLX, AliExpress, and Amazon. The most popular products purchased online are health and beauty products, electronics, clothing and shoes. As for cross-border e-commerce, Chinese and Turkish products are the most popular ones among Uzbeks. Online payment is done through the use of bank cards linked to Smartphone's, although the majority of transactions are still done by cash. (F. M., & Jenkins, C. L. 1997).

Tabel.2.2 Implementation of the Tourism Development Concept in the Republic of Uzbekistan in 2019-2025 years

№	The name of indicators	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
1	The number of foreign tourists visiting Uzbekistan (thousand people)	5 346	6 041	7 010	8 410	10 010	10 600	11 250	11 810
2	Exports of tourism services (USD million)	1 041	1 180	1 360	1 620	1 900	2 000	2 080	2 170

3	Number of domestic tourists (thousand trips)	15 493	16 100	17 230	18 806	20 317	21 867	23 404	25 010
4	Number of hotels and similar accommodation facilities (units)	914	1 100	1 620	2 200	2 600	2 800	2 900	3 050
5	Number of rooms in accommodation facilities (thousand)	20,2	24	35	47	55	59	62	64
6	Number of places in accommodation facilities (thousand)	41	49	72	95	110	122	124	128
7	Number of tour operators (units)	983	1 100	1 190	1 250	1 320	1 390	1 420	1 450

To conclude one of the main drivers of Uzbekistan's economy, tourism and its potentials for providing e-tourism services to the world has been analyzed. Moreover, the thorough analysis of current state of e-commerce and its development prospects have been provided.

References

1. <http://www.uzbekembassy.in/tourism-in-uzbekistan-is-the-dynamically-developing-sector-of-the-country> ;
2. <http://www.uzbektourism.uz/index.php/ru/> Policy and Practice for Global Tourism - World Tourism Organization. (n.d.). Retrieved May 15, 2014, from <http://www.e-unwto.org/content> Qu, H., Kim, L. H., & Im, H. H;
3. Kuang, Z. & Xu, S. 2008. 'The research of e-commerce capability and Business performance: A resource-based view', International Conference on Management of e-commerce and e-government, Jiangxi China. Lunogelo, H.B., Mbilinyi, A. & Hangi, M. 2009. 'The global financial crisis and Uzbekistan: Effects and policy responses', The Economics & Society Research Foundation, Dar es Salaam. Maswera, T., Dawson, R. & Edwards, J. 2008. 'E-commerce adoption of travel and tourism organizations in Russia, Uzbekistan', Telematics & Informatics, (25): 187– 200.
4. <http://www.iteuzbekistan.uz/vis/worldfood/eng/index.php> Go, F. M., & Jenkins, C. L. (1997).
5. <http://www.slavomirhorak.net/news/central-asia-problems-and-perspectives-of-international-tourism/> Coulibaly, S., Deichmann, U., Dillinger, W. R., Ionescu-Heroiu, M., Kessides, I. N., Kunaka, C., & Saslavsky, D. (2012). Eurasian Cities: New Realities along the Silk Road. World Bank Publications. Declarations|UNWTO Silk Road Programme. (2014).

**OILA MUSTAHKAM BO'LMASA JAMIYAT XAM MUSTAXKAM
BO'LMAYDI**

G.Kushakova, M.Bayzakova

Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi dots.

Annotatsiya. Ushbu maqolada oila mustahkamligida sharq mutafakkirlari ijodidan foydalanish mazmuni xaqida fikirlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Oila, tarbiya, ta'lim, mutafakkir, jamiyat, farzand, millat, taraqqiyot.

Mutafakkirlarimizdan A.Fitrat oilaning jamiyat va taraqqiyotidagi ahamiyati ustida to'xtalib shunday degan edi: "Har bir oilaning soadati va izzati albatta shu xalqning ichki intizomi totuvligiga bog'liq. Tingchilik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi. Agarda bir mamlakatning aholsini ahloqsiz va joxillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa shunda bu millatning soadati va hayoti shubxa ostida qoladi"⁸. Oila mustahkam bo'lmasa jamiyat ham mustahkam bo'lmaydi. Shu sababli ham barcha davrlarda oila mustahkamligi jamiyat barqororligining muhim sharti deb qaralgan. Islom falsafasi va xuquqining yetuk bilimdonidan biri mashhur mutafakkir Rizouddin Ibn Faxruddin oilaning hayoti va taraqqiyotidagi o'rni ahamiyati haqida quyidagilarni aytgan edi: "Insonlar va dinu – dunyolarini tuzatmoq matlub bo'lsa eng avvalo go'zal xulqga ega bo'lmoq ila oilalarni tuzatingiz! Oilalar tuzalgandan so'ng ham din ham dunyo tuzaladi."⁹

Sirasini aytganda, o'zbek oilasining mustahkamlik va uzoq yashovchanlik siri va soadati ham aslida ana shu ma'naviy an'analarga boyligidadir. Bu jarayonga qiziqish qadim zamonlarda Qur'on karim va hadislarda, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, A.Navoiy asarlarida o'z aksini topgan.

Insoniyat yer yuzida hayot kechira boshlaganidan buyon qanchadan – qancha suron va to'fonlardan o'tmagan, ne-ne sinov va qiyinchiliklarni boshdan kechirmagan, o'zining ezgu maqsadlari yo'lida qancha yutuq va kashfiyotlarga erishmagan. Shu bilan birga, odamzot ongli va mazmunli yashashi, o'zligini asrashi, ma'naviyatini yuksaltirishi, haqiqatni anglashi uchun ko'pgina-ko'p qadriyat va an'analarga, ulkan madaniy merosga asos solgan. Va ana shunday yutuqlar tufayli oxiroqibatda bugungi sivilizasiya, yuksak taraqqiyotga yetib kelgan. Ammo bashariyat asrlar, ming yillar davomida ko'z qorachig'idek saqlab, rivojlantirish kelayotgan qadriyatlar ichida oila instituti alohida o'rin tutadi.

8 И.А.Каримов. "Ўзбекистон XXI аср бўсағасида". Т.Ўз. 1997й, 747 бет
9 "Шарк юлдузи" журнали. 1992й. 10 сон, 84 бет.

Oila insonning moddiy va ruhiy olami bilan uzviy bog'liq bo'lgan, uning dunyoga kelishi, o'sib ulg'ayishi va o'zidan munosib zurriyot qoldirishi, avlodlar o'rtasidagi an'analarini asraydigan, qarindosh-urug'chilik rishtalarini bog'lab turadigan, bolalikdanoq kishining his-tuyg'ulari, ongu tafakkurini tarbiyalaydigan muqaddas tuzilmadir. Shuning uchun ham yer yuzidagi dastlabki oila – Odam Ato va Momo Havo o'rtasidagi nikoh Ollohning irodasi bilan tuzilgani haqida dunyodagi barcha xalqlarda turli rivoyatlar mavjud. Shuning uchun ham har qaysi inson oilani o'z taqdiridagi eng muhim voqyea, taqdirning buyuk ehsoni deb biladi. Bu haqda qancha hayotiy hikoyalar, romanu qissalar, she'r va qo'shiqlar, butun-butun tarixlar, afsonayu haqiqatlar bitilmagan.

Darhaqiqat, insoniyatning necha ming yillik tarixi shundan dalolat beradiki, oilaning birlamchi negizida ilohiy asos bor. Bu asos odamzot yaralibdiki, avvalo muhabbat shaklida namoyon bo'ladi. Ikki jinsga mansub insonlar aynan muhabbat vositasida bir-biri bilan bog'lanadi. "Yulduzi yulduziga to'g'ri kelgan", ya'ni qismati yerda emas, samoda ilohiy tarzda hal bo'lgan yoshlarning oila qurishi, farzand ko'rib, o'z naslini davom ettirishiga ham aynan muhabbat sabab bo'ladi. Shuning uchun ham oila negizidagi ilohiylikning mohiyatini muhabbat tashkil etadi, deyish mumkin. Shu o'rinda mumtoz shoirlarimizning ishq-muxabbatni ilohiy pardalarda kuylagani ham bekorga emasligini eslab o'taylik.

Oila, o'zining ijtimoiy, axloqiy-ma'naviy xususiyatlariga ko'ra, ko'pfunksiyali va ko'pqirrali tuzilmadir. U bir paytning o'zida ham odamlarni qonqardoshlik asosida birlashtiradigan, dunyoga keltirib, tarbiyalab yetishtiradigan, ham jamiyatdagi axloqiy-ma'naviy muhitni belgilab turadigan noyob muassasadir. Lekin ana shu xilma-xil vazifalar ichida hamma vaqt ham ko'zga tashlanavermaydigan, lekin insonni inson qiladigan yana bir o'ta muhim vazifasi borki, u ham bo'lsa, oilaning muhabbat qo'rg'oni, mehr tarbiyachisi ekanidir.

Odatda tadqiqotchilar oilaning ijtimoiy hayot bilan bog'liq ko'pdan-ko'p vazifalariga e'tibor bergani holda, aksariyat paytlarda uning ana shu noyob vazifasini e'tibordan chetdan qoldirishadi. To'g'ri, er-xotin o'rtasidagi sevgi-muhabbat oila qurilggunga qadar paydo bo'ladi. Lekin bu muhabbat faqat har ikki insonning idealidagi orzular darajasidagi muhabbatdir. Oila esa bu muhabbatni hayotiy ma'no – mazmun bilan to'ldiradi, uni hayotga yaqinlashtiradi. Boshqacha aytganda, oila negizida muhabbatning boshqa qirralari ham ochiladi.

Deylik, oila qurguncha muhabbat faqat shirin orzularning ushalishi bo'lib tuyulsa, undan keyingi sevgi faqat suyakli inson visolidan iborat emas, balki odamning his-tuyg'ulari, qolaversa, ilohiy amr bo'lmish nikoh oldidagi burchi ham ekani ayon bo'ladi. Aynan ana shu burchni anglash insonni muhabbat masalasiga yanada kengroq qarashga undaydi, unda yangi fazilatlarni tarbiyalaydi.

Umuman, oila, uning tashvish va muammolari tufayli er-xotin bir-birini sinovdan o'tkazadi, yanada chuqurroq tushunadi, shu tariqa ularning o'zaro mehr-muhabbati kun sayin ortib boradi. Keksalarimiz yosh kelin-kuyovlarni duo qilar ekan, "Qo'shganing bilan qo'sha qarigin" deb bejiz tilak bildirmaydi. Bu duoda, birinchidan, yuqorida aytganimizdek, oilaning ilohiy asosga ega ekaniga ishora bor. Ikkinchidan, ilk muhabbatning o'rnini hyech narsa bosolmasligi, baxt ana shu sevgini oxirigacha parvarishlab, kamol toptirib borishda, aniqroq aytganda, suygan kishiga bir umr sadoqat bilan yashashda ekaniga e'tibor qaratilmoqda. Sadoqat esa faqat oila asosida, uni asrash va mustahkamlash jarayoni kuchayib boradi.

Adaboyotlar ro'yxati

1. А.Фитрат "Оила", Т. "Маънавият" 1998й. 8 бет.
2. И.А.Каримов. "Ўзбекистон XXI аср бўсағасида". Т.Ўз. 1997й, 747 бет
3. "Шарқ юлдузи" журналі. 1992й. 10 сон, 84 бет.

ПРОКАЧИВАНИЕ ТОРМОЗНОЙ СИСТЕМЫ НА ГИБРИДНЫХ АВТОМОБИЛЯХ

Дадабаев Иброхим Исоқжонович
стажёр-преподаватель

Рахимкулов Фозилжон Собиржон ўгли
стажёр-преподаватель

Наманганский инженерно-строительный институт

Работа тормозной системы гибридных автомобилей существенно отличается от работы тормозной системы обычных автомобилей, поясню в чём основная разница: в обычном автомобиле используется гидравлическая жидкость для создания давления в системе, чтобы придавить колодки к диску (или барабану), и с помощью силы трения остановить авто.

В гибридном же автомобиле процессом торможения управляет электронная система торможения (ECB Electronically Controlled Brake») которая пытается сберечь энергию торможения и использовать её для подзарядки аккумуляторной батареи. При торможении гибридного авто первой задействуется как раз рекуперативная система, т.е. вместо обычных тормозных механизмов(суппорт-колодки-диск) работают компактные эл.генераторы, которые преобразуют энергию вращения колес в электроэнергию и тем самым создают тормозное усилие на колесах. А основная, обычная гидравлическая тормозная система, вступает в работу второй, и замедляет авто вплоть до полной остановки.

В отличие тормозных систем, описанном выше, и кроется основная проблема, связанная с заменой тормозной жидкости в большинстве гибридных автомобилей. Дело в том, что система ECB, контролирует давление, в контурах тормозной системы, постоянно, вне зависимости включено зажигание или нет. И при попытке прокачать систему, обычным способом, происходит резкий сброс давления, в каком-то из контуров, и система уходит «аварийный» режим, зажигаются ошибки по ABS, VSC, и стояночному тормозу.

Практически все современные гибридные автомобили, такие как Toyota, Ford и General Motors все используют электрогидравлические тормозные системы, в которых передача тормозного усилия от педали тормоза полностью доверено электронике.

Каждый производитель автомобилей с гибридной установкой использует свои собственные разработки при создании рекуперативных тормозов, но общие принципы функционирования этих тормозных систем остаются неизменными.

Давайте немного отклонимся от темы и вспомним, куда девается кинетическая энергия самого обычного автомобиля в момент торможения. В момент торможения металлические тормозные колодки прижимаются к металлическому тормозному диску, закрепленному на оси автомобиля, тем самым создавая трение, которое и приводит к замедлению вращения колеса. При этом вся кинетическая энергия полутонной машины несущейся со скоростью, допустим, в 100 км/ч превращается в тепло, то есть бесследно и безвозвратно теряется в атмосфере нашей замечательной планеты.

Наличие мощной электрической подсистемы в гибридных, и тем более электромобилях, делает оправданными усилия по возврату и повторному использованию энергии торможения экипажа. В этих автомобилях используются очень емкие аккумуляторы, которые позволяют сохранять избыточную энергию и повторно ее использовать. Экономия получается настолько заметной, что на сегодняшний день трудно найти электромобиль, не использующий рекуперативные тормоза, рекуперативный тормоз используется в широком ряде современных электромобилей, таких как Nissan Leaf, Chevrolet Volt, Mitsubishi i-MiEV и других.

Итак, повторим, в привычном автомобиле используется гидравлическое давление для того, чтобы создать силу трения в барабанном или дисковом тормозе и превратить энергию кинетическую в энергию тепловую. Это давление создается водителем в момент нажатия педали тормоза, которое обычно усиливается вспомогательной системой для уменьшения

прилагаемого усилия. Таким образом, ускорение замедления автомобиля пропорционально усилию давления ноги на педаль тормоза. Все просто и надежно.

Когда же мы пытаемся сберечь энергию торможения для дальнейшего использования, то нам приходится иметь дело с двумя системами торможения. Первой вступает в действие рекуперативная система, то есть вместо классического тормозного механизма в виде диска или барабана выступает компактный электрогенератор, который на первом этапе торможения, когда скорость вращения колес еще достаточно высока, преобразует энергию вращения колеса в электроэнергию и тем самым создает тормозное усилие на колесе. Вторым эшелон идет более эффективное, с точки зрения замедления автомобиля до нулевой скорости, торможение с использованием трения.

Согласованием действий двух тормозных подсистем гидравлической и электрической занимается специальный электронный блок, который выступает посредником между водителем, давящим на педаль тормоза, и электрогидравлической системой торможения. Таким образом, теряется прямая связь водителя с тормозами, и задача этой электронной системы сделать так чтобы водитель этого не заметил. Системе управления тормозами приходится постоянно определять, каково должно быть ускорение замедления в ответ на нажатие педали пользователем, и какую систему в какой пропорции задействовать, чтобы и энергию максимально сберечь и сделать замедление пропорциональным усилию, прилагаемому к педали тормоза. Например, водитель утапливает педаль тормоза на половину, у системы есть выбор: приложить тормозное усилие к тормозным дисками или создать тормозящий момент в генераторе и получить электроэнергию для подзарядки аккумуляторов.

Вот такие непростые задачи приходится решать «тормозному» компьютеру в сотые доли секунды, так как промедление здесь смерти подобно, как сказал бы классик. Для этой цели используется целый ряд датчиков и сенсоров, призванных быстро определять действия и предугадывать намерения водителя.

В то же время, система постоянно отслеживает скорость вращения колес, используя те же сенсоры, которые отвечают за работу антиблокировочной системы (ABS). Эта информация используется для определения типа поверхности, по которой движется автомобиль, будь-то снег, лед, гравий или сухой асфальт. Изменение скорости вращения колеса может снабдить бортовой компьютер массой полезной информации о

природе дорожного покрытия, но, как это обычно бывает, этой информации не всегда достаточно. Именно о торможении на сложных участках и идет речь, так как намерения водителя могут не соответствовать реальной дорожной обстановке.

Например, если намерения водителя быстро затормозить на скользкой поверхности превышают физические возможности системы «автомобиль-дорожное покрытие», то «тормозной» компьютер должен уменьшить силу торможения до максимально допустимой дабы избежать скольжения. То есть, как только электронная система сопоставляет пожелания водителя и возможности для торможения дорожного покрытия, она выдает расчетное гидравлическое давление на фрикционные тормоза и необходимую нагрузку по зарядке батарей на рекуперативные.

Поскольку мы говорим о гибридных и электрических автомобилях, где экономия энергии является главным приоритетом, система торможения всегда старается вернуть максимум энергии в аккумуляторные батареи, если это возможно. Рекуперативное торможение имеет еще два существенных ограничения. Первое – особенность современных аккумуляторов такова, что их подзарядка может происходить только при определенных значениях тока и напряжения, что несколько ограничивает диапазон использования регенерации энергии с помощью рекуперации. Второе - невозможно заряжать полностью заряженную батарею. Второе замечание не так существенно для электромобилей, так как рекуперация для них – это единственный способ подзарядки на ходу, в отличие от гибридов, которые подзаряжаются от собственного двигателя внутреннего сгорания.

При этом при всей простоте и надежности фрикционных тормозов их характеристики могут со временем изменяться, часто они могут изменяться за короткий промежуток времени. Вся проблема в том, что эффективность фрикционного тормоза зависит от силы трения между двумя движущимися поверхностями, в случае дисковых тормозов, это тормозной диск и тормозные колодки. Сила трения может сильно меняться, например, из-за температуры тормозного диска, а он, как известно очень сильно нагревается при торможении. Не верите? Спуститесь на автомобиле с Ай-Петри и пощупайте (я щупал) колесные диски, но ни в коем случае не трогайте дисковые тормоза – получите ожог! Второй фактор, влияющий на эффективность фрикционного тормоза – влажность. Тонкая пленка воды на тормозном диске значительно уменьшает силу трения, и Вы можете это почувствовать, проехав по глубокой луже. Недаром опытные водители советуют несколько раз нажать тормоз для просушки после проезда водных

преград. Третье – тормозные диски и колодки со временем изнашиваются и меняют свои тормозящие свойства.

Список литературы

1. Правила ЕЭК ООН №13 «Единообразные предписания, касающиеся официального утверждения транспортных средств категорий М, N и O в отношении торможения»
2. Ситовский О. Ф., Дембицкий В. М. Электродинамическое торможение гибридного транспортного средства на дорогах с низким коэффициентом сцепления // Автомобильный транспорт. - 2013. - №33. - С.13-18.

ICHKI YONUV DVIGATELLARIDA QO‘LLANILADIGAN GAZ YOQILG‘ILARINING YONISH XUSUSIYATLARINI TADQIQ QILISH

Matyoqubov Doston Zohidjon o‘g‘li
Stajyor-o‘qituvchi, NamMQI,

Yunusxanov Doniyor Dilmurod o‘g‘li
Stajyor-o‘qituvchi, NamMQI

Respublikamiz mustaqilligidan so'ng mamlakatimizda avtomobil sanoati paydo bo'ldi va avtomobillar soni keskin darajada oshdi va hozir ham oshib bormoqda. Avtomobil yonilg'isi sifatida qo'llaniladigan benzin va dizel yonilg'ilariga bo'lgan talabning o'sishi ularga muqobil yonilg'ilardan foydalanishni taqazo etdi va hozirgi kunda tannarxi jihatidan arzon bo'lgan tabiiy gazlardan avtomobillarning motor yonilg'isi sifatida foydalanish yo'lga qo'yilmoqda.

Tabiiy gazning asosiy tarkibini metan (CH₄) tashkil etadi. Metandan tashqari tabiiy gazning tarkibini uning yaqin gomologlari: etan, propan, butan ham tashkil etadi. Tabiiy gaz tarkibidagi metanning massasi, uning umumiy uglevodorod massasiga teskari proportsional bo'ladi. Turli gaz konlarida tabiiy gazning tarkibi ham turlicha bo'ladi. Tabiiy gazning o'rtacha tarkibi quyidagicha bo'ladi (um.%): metan - 80-90; etan -0,5 -0,4; propan -0,2 -1,5; butan -0,1 -1; pentan -0 -1. Boshqa gazlarning hajmiy ulushi 2-13 % ni tashkil qiladi. Gazokondensat konidagi gazlar tabiiy gaz konlaridagi gazlardan metanga va undan yuqori uglevodorodlarning gomologlari ergashganligi bilan farq qiladi. Bu gazalar kondan chiqqanda bosim pasayishi bilan kondensatsiyalanib, suyuq fazaga aylanadi. Bunday konlarning paydo bo'lishi, chuqur qatlamlarda katta bosim ta'sirida neftning qaytadan gazga erishi bilan izohlanadi. Gazokondensat tarkibidan kondensatni ajratib olgandan keyin, ularning tarkibi tabiiy gaz konidagi gazlarning tarkibiga o'xshab qoladi. Yo'ldosh neft gazlarining tarkibi neftning qatlamda joylashish (harorat va bosim)

sharoitiga bog'liq bo'ladi va tarkibida etan, propan, butanlarning va yuqori molekulari uglevodorodlarning miqdori ko'pligi bilan tabiiy gazlardan farq qiladi.

Shuni ta'kidlashimiz kerakki, respublikamizda tabiiy gazning ko'plab zahiralari bor va bu zahiralarda yuqori sifatli tabiiy gazlar bo'lib ulardan avtomobil dvigatellari uchun yonilg'i sifatida foydalanishda ortiqcha gazni qayta ishlash yoki kimyoviy usullarda ishlov berish texnologiyalari qo'llanilmasdan to'g'ridan to'g'ri yonilg'i sifatida foydalanish mumkin.

Bundan tashqari motor yonilg'isi sifatida qo'llaniladigan tabiiy gaz neft mahsulotlaridan ustun turadi. Ulardan foydalanishda dvigatelning yuqori texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlariga erishiladi, chunki tabiiy gaz juda yaxshi antidetonatsion hossalarga ega, havo bilan aralashma hosil qilishi xususiyati juda yaxshi va havo bilan istalgan nisbatda aralashmalar hosil qilishi mumkin. Gazli dvigatellarda aralashma deyarli to'liq yonadi va ishlatilgan gazlarning zaharliligi ancha past bo'lganligidan atrof-muhit kam zararlanadi [1].

Avtomobillar uchun motor yonilg'isi sifatida qo'llaniladigan tabiiy gazlar: siqilgan va suyultirilgan turlarga bo'linadi. Suyultirilgan gazlar normal haroratlarda (-20°C dan $+20^{\circ}\text{C}$ gacha) unchalik katta bo'lmagan bosimlarda ($1,0\text{...}2,0\text{ MPa} - 10\text{...}20\text{ kgs/sm}^2$) suyuq holatda bo'ladi. Bunday gazlarning asosiy komponentlari - etan, propan, butan va ularga juda yaqin to'yinmagan uglevodorodlar - etilen, propilen, butilen va ularning izomerlari kiradi. Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan gaz ukunalari jamlamasi umumiy og'irligi 40 kg dan 60 kg gachani tashkil etadi va engil avtomobillarga o'rnatish imkoniyatini beradi. Bunday uskunalardagi ballon hajmi avtomobilning 300 km atrofida masofa bosib o'tishini ta'minlaydi, bu qiymat avtomobilning benzin bilan ishlaganda 400 km masofani bosib o'tishiga mos keladi.

Metan 20 MPa bosimgacha siqiladi va qalin devorli ballonlarda saqlanadi. Etan, propan va butan 1,6 MPa bosimda suyuq holatga o'tadi va ular ham shu bosim ostida ballonlarda saqlanadi [2].

Gazlarning qo'llanilishi porshen va gilza devorlaridan moy pardasining yuvilib ketishiga barham beradi, yonish kameralarida qurum hosil bo'lishini kamaytiradi, benzin bug'lari bo'lmaganligi uchun silindr gilzalarining devorlaridagi moy kuyib ketmaydi, natijada dvigatelning ishlash muddati va moy almashtirish davri 1,5-2 martaga uzayadi.

Gaz holatdagi parafin uglevodorodlar tarkibi C1 dan C4 gacha bo'lgan alkanlar tashkil etadi, bularga: metan, etan, propan, butan, izobutan kiradi, hamda 2,2 - dimetilpropan (C₅H₁₂) - neopentan normal sharoitda gaz holida bo'ladi. Bularning hammasi tabiiy va neft gazlari tarkibiga kiradi. Gaz konlari uch xil turda bo'lishi mumkin. 1. Sof gaz konlari; 2. Gaz kondensati konlari; 3. Neft konlari.

Shuningdek, tabiiy gazning motor yonilg'si sifatida asosiy kamchiliklaridan biri hajmiy konsentrasiya energiyasining kamligidadir. Agar bir litr suyuq yonilg'ining yonishdagi issiqligi 31426 kDj bo'lsa, normal sharoitlarda tabiiy gaz uchun bu qiymat 33,52–35,62 kDj ni tashkil etadi, ya'ni yonishdagi issiqlik miqdori 1000 martagacha kamdir. Shu sababga ko'ra gazdan transport vositalarida motor yonilg'isi sifatida foydalanish uchun gazni dastlab yuqori bosim 20–25 MPa ga siqish kerak, buning uchun esa uni saqlashda maxsus ballonlardan foydalanishni taqazo qiladi.

Gazni bosim ostida saqlash uchun uglerodli va legirlangan po'latlardan tayyorlangan va 15–32 MPa bosimga mo'ljallangan gaz ballonlari ishlab chiqariladi. Har bir ballon gaz bilan to'ldirilmagan holatda massasi 100 kg dan og'ir va bunday ballonlarni engil avtomobillarga o'rnatishda ularning foydali yuk ko'tarishi kamayadi. Shuning uchun bunday ballonlar asosan yuk avtomobillarida va avtobuslarda qo'llaniladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, respublikamizda avtomobillarda yonilg'i sifatida qo'llanilayotgan metannig tannarxini benzin va dizel yoqilg'isiga nisbatan arzonligi hamda atrof muhitga chiqarilayotgan gazlarni ozligi bilan tavsiflash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <http://www.mosautolab.ru>
2. <http://uzavtosanoat.uz>

“HAYRAT UL ABROR” – MUQADDIMAVIY DOSTON ASARNING TUZULISHI VA HIKOYATLAR POETIKASI

Xolmurodov Islomiddin

Annotatsiya. Millatimiz tarixining XV asrida yashagan yetuk shoirlardan biri bo'lmish Alisher Navoiyning — “Hayrat ul abror” asarini o'quvchining chuqurroq va teranroq anglashiga ko'maklashish.

Kalit so'zlar: Nizomiddin Ganjaviy, “Mahzan ul asror”, Amir Xusrav Dehlaviy, “Matla ul-anvor” va Abdurahmon Jomiy, “Tuhfat ul ahror” Alisher Navoiy, “Xamsa”, “Hayrat ul abror”.

Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi birinchi doston “Hayrat ul abror” hisoblanib, u “Xamsa” uchun g'oyaviy-mazmuniy nuqtai nazaridan yo'naltiruvchi ahamiyatga ega. U 3988 baytdan tashkil topgan bo'lib Nizomiy Ganjaviyning “Mahzan ul asror”, Amir Xusrav Dehlaviyning “Matla ul anvor” va Abdurahmon Jomiyning “Tuhfat ul-ahror” dostonlariga javob o'laroq yozilgan. 63ta bob 20 ta maqolat va 20ta hikoyatdan tashkil topgan “Hayrat ul abror” dostonining muqaddimasi 21

bobni o'z ichiga oladi. Navoiy ushbu asarni boshlanishidanoq o'zigacha bo'lgan salaflarining ananalariga o'zgartirish kiritadi. Ya'ni Navoiygacha yozilgan "Xamsa"larda mualliflari ananaga ko'ra "basmala" bilan boshlagan. Lekin alohida bir bob ajratilmagan. Navoiy esa "Basmala" uchun asarda alohida bir bob ajratgan va "Basmala"dagi har bir harfga alohida ta'rif berib o'tgan.

"Hayrat ul abror"ning keyingi boblaridan boshlab boblar bir biri bilan mantiqiy chambarchas bog'liq bo'lib ularni shartli ravishda uch qismga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Birinchi bobdan o'n birinchi bobga qadar hamd, munojot va na't kabi boblar ajratilgan.
2. Ulug' salaflar zamon hukumdori va so'z ta'rifi
3. Ko'ngil ta'rifi uch g'ayrat va Bahouddin Naqshband hamda Xoja Ubaydulloh Ahror Vali vasfi

Navoiy "Xamsa"sining boshqa "Xamsa"navislardan yana bir farqli jihatini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni Navoiy mazkur asaridagi har bir bobga alohida bir sarlavha berib o'tadi. Ikkinchi bobdan boshlab Navoiy sajning go'zal namunasi bo'lmish jumlar orqali bobning umumiy mazmun mohiyatini ochib beruvchi nasriy sarlavhalardan foydalanadi.

Dostonning 22-bobidan asosiy qism boshlanadi. Asosiy qism maqolat va hikoyatlardan tashkil topgan 40 bobni o'z ichiga oladi. Maqolatlar muayyan bir axloqiy-falsafiy mavzuga bag'ishlangan bo'lib shoir dastlab ushbu mavzuga munosabat bildiradi, mavzu yuzasidan o'z fikr mulohazalarini bayon qiladi. Undan so'ng o'sha mavzuga mos ravishda ibratli hikoya keltirib o'tadi. Keltirilgan hikoyatlar ham aynan maqolatda keltirilgan g'oyaga misol tariqasida aynan o'sha mavzuda yoziladi. Maqolatlarning barchasi, ularga ilova qilingan hikoyatlar ham bir-biri bilan izchil bog'langan, mazmunan biri ikkinchisini davom ettirilgan tadrijiylikka asoslanadi.

Shunday qilib asarning asosiy qismi 20ta maqolat va ularda ilgari surilgan asosiy g'oyalarni o'quvchi ongiga yanada yaxshiroq singdirish maqsadida g'oyaga mutanosib shaklda keltirilgan 20ta hikoyatdan tashkil topadi. Navoiygacha bo'lgan tasavvufiy-falsafiy asarlar kabi bu asarda ham muallifning barkamol shaxs haqidagi o'ylari maqolotlarda yorqin ifodasini topgan. Asarning birinchi bobi "Imon sharhida" deb nomlanadi. Bu bejiz emas, zero dostonning asl g'oyasi ham – komil inson timsolini madh etishdir, komillikning bosh belgisi esa, albatta, imondir:

Kimki jahon ahliga inson erur.

Bilki nishoni anga imon erur.

"Ulug' shoir nuqtai nazarida imon –komillikning tayanch belgisi. "Hayrat ul abror" birinchi maqolatining imonning badiiy sharhiga bag'ishlanishi ham shundan

dalolatdir. “Xamsa”ning tayanch masalasi insoni komilning zamonlar imtihonidan o‘tishga yaragulik ibratli timsolini yaratish ekan, ulug‘ shoirning mavzu ibtidosini imondan boshlashi tasodif emas, albatta. Imon –islom dargohiga olib boruvchi yo‘l, unga olib kiruvchi eshikdir.”¹⁰

Alisher Navoiy imonning uch asosiy belgisi borligini ta’kidlab o‘tadi va kimda bu uch hislat bor bo‘lsa, u haqiqiy inson hisoblanadi. Bu uch belgi esa sabr, shukr va hayo hisoblanadi:

Bas, ani inson atag‘il beriyo

Kim, ishidur sabr ila shukr-u hayo.

Komil inson tarifi bilan birgalikda shariatimizdagi imonning 6 ta shartiga ham to‘xtalib o‘tadi. Undan so‘ng Shayx Boyazid Bistomiy va uning muridi haqidagi hikoyat keltiriladi. Hikoyatda bir kuni Shayx Boyazid Bistomiydan muridi g‘amginligining sababini so‘rganida shayx ko‘z yoshlarini to‘kib fig‘on ila shunday javob beradi: “chekayotgan iztiroblarimning boisi shuki, odamlar o‘z dardi bilan to‘s-to‘plon, shikoyat‘u noroziliklar ko‘tarishadiyu, har biriga o‘zi qilayotgan ishi ma‘qul ko‘rinadi. Ulardan birontasini ham chinakam inson deb bo‘lmaydi. Bo‘lsa ham o‘tib ketganlar ichida bo‘lishi mumkindir”. Ustozidan bu xil javobni eshitgan murid iztirob bilan: “Bu olamda haqiqiy inson qolmagan deding, axir sen o‘zingni bu olamon ichiga qo‘shmading-ku” deya savol berganida shayx o‘zini ham yuz ming sarson sargardonlar qatorida sanashini, agar bu dunyoda imon bilan ketmas ekan, inson sanalmasligini aytadi. Hikoyatda diniy mavzudan tashqari tasavvufiy qarashlar ham o‘z aksini topgan bo‘lib, bunda tariqatdagi xavf maqomi haqida so‘z boradi. “Najmiddin Komilovning “Tasavvuf” asarida keltirilishicha xavf tariqatning oltinchi maqomi bo‘lib bunda solikning nafs makridan qo‘rqishi, shayton nayranglarining ko‘ngilga xavf solishi nazarda tutiladi. Nafs shu qadar kuchli dushmanki, solik tariqatdagi tavba, vara, zuhd, faqr, sabr kabi maqomlarni egallagan bo‘lishiga qaramay, nafsning imonga ta’sir qilishi xavfi doimo mavjud bo‘ladi.

“Hayrat ul abror”da keltirilgan maqolotlarda Navoiyning turli tuman masalalarga ustozlaridan olgan ilmlari hamda o‘zining fikr mulohazalari va ba’zi masalalarda o‘zining yondashuvlarini bayon qilib o‘tgan.

Foydalanilgan adabiyotlari

1. Natan Mallayev O‘zbek adabiyoti tarixi. “O‘qituvchi” nashriyoti 1965
2. Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova Navoiyshunoslik “Tamaddun” nashriyoti, 2018

¹⁰ RAHIM VOHIDIY, HUSNIDDIN ESHONQULOV “O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI TARIXI” O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti Toshkent –2006

3. Rahim Vohidov, Husniddin Eshonqulov O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti Toshkent – 2006

OTASHNAFAS SHOIR HUVAYDO HAYOT YO'LIGA BIR NAZAR

Xolmurodov Islomiddin

*Termiz davlat universiteti magistratura
bo'limi adabiyotshunoslik yo'nalishi
ikkinchi bosqich talabasi*

Annotatsiya. Millatimiz tarixining XVII-XVIII asrida yashagan yetuk shoirlardan biri bo'lmish Xo'janazar Huvaydo Hazratlarining hayot yo'li haqida o'quvchilarda ta'surot o'yg'otish, yangi ma'lumotlar bilan o'quvchilarni tanishtirish.

Kalit so'zlar: Huvaydo, "Rohati dil", O'sh va Chimyon. Nosihiy, Boborahim Mashrab, Beg'ali Qosimov, Qodirqul Ro'zmatzoda maqolalari.

Millatimiz ta'rixiga nazar tashlar ekanmiz, ming yillar davomida xalqimiz qon qoniga singib ketgan Islom dinining qadriyatlari, ahkomlari o'z o'zidan adabiyotimizga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Qarib ming yillar davomida xalqimiz muqaddas kitobimiz bo'lmish Qur'oni karim va hadisi sharifga tayangan holda yashab kelganlar. E'tiborli jihati shundaki, ko'p xollarda yetuk din ulamolari bir vaqtning o'zida shoir, faylasuf, mutafakkir, hatto, ba'zi xollarda qomusiy olim kishilar bo'lishgan, yetuk shoirlar esa dinni puxta bilgan, yoshligidan Quroni karimni yod olgan murattab qori bo'lgan, shariat ahkomlarini o'zlashtirgan kishilar bo'lishgan. Bunday ulug' siymolarga Abu Nasr Farobiy, Al- Xorazmiy Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulug' mutafakkirlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Asrlar davomida din va adabiyot birlashib, dinning yetuk falsafasi bilan adabiyotning nodir so'z sanati vujudga keldi. Natijada islom diyorida ko'plab mutasavvuf shoirlar yetishib chiqdilar. Bu xolat XVIII asrda ham o'z aksini ko'rsatgan jumladan So'fi Olloyor, Boborahim Mashrab kabi mutasavvuf shoirlar ham din arbobi, ham yetuk shoir ham edilar. Biz ijodini o'rganmoqchi bo'lgan bir vaqtning o'zida ham ilmda piri murshidi komi, ham ijodda yetuk mutasavvuf shoir Ho'janazar Huvaydo hazratlari ham shunday buyuk zodlardan edilar. Ham din peshvosi piri murshid, ham mohir so'z ustasi bo'lgan Huvaydo hazratlari o'z she'rlatida din falsafasini va qarashlarini aks ettirgan. Xo'janazar G'oyibnazar o'g'li Huvaydo 1704 — Chimyon shahrida tavallud topgan. Shu o'rinda shoirning tavallud topgan shahri haqida adabiyotshunoslikda bir qancha baxsli munozaralar mavjud ekanligini ham ta'kidlab o'tishimiz lozim. Jumladan adabiyotshunos olim Beg'ali Qosimov maqolasida shunday yozadi:

“Huvaydo (taxallusi; asl nomi Xo‘janazar G‘oyibnazar o‘g‘li) (1704 — O‘sh shahri — 1780/81, Farg‘ona viloyati Chimyon qishlog‘i) — shoir, tasavvuf she‘riyatining yirik vakili. Qo‘qon madrasalarida o‘qigan. Qishlog‘ida maktab ochib, uzoq vaqt maktabdorlik qilgan, kosiblik bilan ham shug‘ullangan.” Ammo olimning Xo‘janazar Huvaydo hazratlarining O‘sh shahrida tug‘ilganligi haqidagi mulohazalarini Farg‘ona davlat universiteti dotsenti Qodirqul Ro‘zmatzoda o‘zining “Sharq Yulduzi” jurnalida chiqqargan maqolasida tanqid ostiga oladi. Adabiyotshunos olim Nusratullo Jumaxo‘ja ham Beg‘ali Qosimovning yuqoridagi fikrlariga qo‘shilmaydi va Xo‘janazar Huvaydoning hayoti hamda ijodiga bag‘ishlangan ilmiy maqolasida shunday yozadi: “ Huvaydoning otasi G‘oyibnazar Ernazar o‘g‘li 1104 hijriy yillarda bir guruh marg‘ilonlik qarindoshlari bilan Chimyonga ko‘chib kelgan. Huvaydo shu oilada, shu maskanda tavallud topgan.” Biz bu holatda shoirning “Rohati dil” dostonida o‘zi yozgan ma‘lumotga tayanishni lozim topdik. Shoir “Rohati dil” dostonida shunday yozadi:

Kaminaning oti Xojamnazardur,
Atosinging oti G‘oyibnazardur.
Nasabda O‘shiyu mavludi Chimyon
G‘aribu xoksuru dil parishon

Bundan ko‘rinadiki, shoir asl nasabi o‘shlik bo‘lsada, Chimyon shahrida tavallud topgan. Otasi G‘oyibnazar dastlab O‘sh shahrida yashagan va keyinchalik Chimyonga ko‘chib o‘tgan. Qodirqul Ro‘zmatzoda maqolasida bir vaqtning o‘zida Tasavvufshunos Ikromiddin Ostonaqulovning ham qarashlariga qarshi chiqadi. Olim Huvaydo haqida shunday yozadi: “Kunlardan bir kun Ofoqxo‘ja (rahmatullohi alayhi) o‘z muridiga “Sen farzand ko‘rsang. Otini Xo‘janazar qo‘y, mening nazarim andadur” deb xushxabar berdilar. ...Oradan 5-6 yil o‘tib, G‘oyibnazar o‘g‘il ko‘rib, ismini Xo‘janazar qo‘yadi. U paytda G‘oyibnazar O‘shda yashar edi. Keyinchalik u Farg‘onaning Chimyon qishlog‘iga ko‘chib kelib, madrasa va xonaqoh ochib, mudarrislik bilan mashg‘ul bo‘lgan. Huvaydo ta‘lim –tarbiyani o‘z otasidan olgan. So‘ng Qo‘qon madrasalarida tahsil olib, o‘z qishlog‘iga qaytib, mudarrislik qilgan, she‘riy ijod bilan mashg‘ul bo‘lib, g‘azallar bitgan”.

Ko‘rinadiki, Ostonaqulov ham Huvaydoni O‘sh shahrida tavallud topgan degan qarashni ilgari suradi. Ammo biz bu kabi baxslardan eng ishonchlisi sifatida shoirning o‘zi yozgan “Rohati dil” dostoniga tayanishimiz maqsadga muvofiq deb bildik. Chunki, shoirning o‘zining fikri eng ishonchli manba sifatida qaraladi. Qodirqul Ro‘zmatzoda yana bir xolatga ham e‘tirozli fikr bildiradi. U ham bo‘lsa, olimning Qo‘qon madrasalarida tahsil olganligidadir. Yuqorida keltirganimizdek Huvaydo haqidagi ma‘lumotlarni uning devoniga hamda “Rohati dil” dostonidagi

ma'lumotlarga tayanib mulohaza qilayotgan Beg'ali Qosimov ham Ikromiddin Ostonaqulov ham Xo'janazar Huvaydoni Qo'qon madrasalarida tahsil olganligini ta'kidlaydi. Ammo Qodirqul Ro'zmatzodaning fikricha bunday ma'lumot yo'q va olimlarning bu fikrga kelishiga sabab Huvaydo singari istedadli shoir, albatta, o'z ilmlarini biror Qo'qon madrasalarida olgan bo'lishi aniq deb tahmin qilganligidir. Qodirqul Ro'zmatzoda o'z maqolasida bu holatga shunday izoh beradi: "...Huvaydoning Qo'qon madrasalaridan birida tahsil ko'rganligi yoki otasi Chimyonda qurgan madrasada mudarrislik qilganligi haqida ma'lumot uchramaydi. Afsuski, ko'p tadqiqotchilar Huvaydo singari iste'dodli shoir katta bilim va badiiy mahoratga ega bo'lish uchun Qo'qon madrasalaridan birida tahsil ko'rgan bo'lsa kerak, degan taxminlarini o'quvchiga haqiqat sifatida taqdim etadilarki, bu ilmiylik va xolislik talablariga ziddir."

Ma'lum bo'ladiki, Shoirning tavalludi xususida adabiyotshunosligimizda bir qancha bahsli xolatlar mavjud. Qishlog'ida maktab ochib, uzoq vaqt o'zi o'sha maktabda maktabdorlik bilan shug'ullangan, qolgan vaqtlarida kosiblik bilan ham mashg'ul bo'lgan Xo'janazar Huvaydo hazratlari mumtoz she'riyatimizning deyarli hamma janrlarida ijod qilgan. Uning bizgacha 351 g'azal, 28 ruboiy, 41 to'rtlik, 3 muxammas, 1 musaddas, 1 musamman, 1 mustazod, 3 masnaviy hamda axloqiy-didaktik mazmundagi «Rohati dil» manzumi kirgan devoni yetib kelgan. Bu devon shoirning nabiralari tomonidan tuzilgan. Shoirning barcha she'rlari xalq orasida juda ham mashhur bo'lgan.

Xo'janazar Huvaydo hazratlari otasi so'fiy G'oyibnazar eshon domla xonadonida ulg'ayadi. Dastlab, padari buzrukvoridan islom dinining asoslarini, fiqh ya'ni islom xuquqshunosligi ilmini, qol ilmini hamda hol ilmini chuqur o'rgandi. Bu haqda shoirning o'zi:

Ham o'qub ilmu adab, bo'ldum "Aqoyid"xoni ishq,
Mushkilotu ilmi fiqhdin so'rsalar berdim javob —

deb yozdi. "Aqoyid" ilmi aqidaga doir ilm bo'lib, ijodkor bu yerda ilohiy ishq ilmini, ya'ni tasavvufni nazarda tutmoqda. Tasavvuf tarixidan ma'lumki, so'fiy zotlar ilohiyot nazariyasini egallash uchun madrasada tahsil olish zarurligi haqida qayg'urgan emaslar. Tariqat yo'liga kirish uchun tolibdan birinchi o'rinda fiqh ilmini juda yaxshi bilishi talab etilgan. Bu ilmni ilmi qol, ya'ni zohiriy so'z bilan anglatiladigan ilm deb bilishgan. Ilmi hol esa so'fiylik ilmi bo'lib, murid o'zining piri murshidi nazorati ostida tavhid kalomini zikr qilish bilan o'rgangan. Ho'janazar Huvaydo hazratlari ham har ikkala ilmda dastlabki saboqlarni otasidan olganini aytadi. Huvaydo ijodini o'rganish bizga haqni yanada yaqindan tanishimizga katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlari

1. Huvaydoning badiiy falsafiy me'rosi. Qodirqul Ro'zmatzoda "Sharq yulduzi" jurnali, 2015 - 1
2. Avliyolar sultoni. Turonlik valiyalar (To'plamni nashrga tayyorlovchi va so'z boshi muallifi Ikromiddin Ostonaqulov) – Toshkent, "Yangi asr avlodi". 2004.B.192-193
3. Huvaydo. Rohati dil. Ibrohim Adham (Tabdil qiluvchi nashrga tayyorlovchi va so'z boshi muallifi Qodirqul Ro'zmatzoda). T. "Navro'z",2011. B. 35
4. Xo'janazar Huvaydo. Devon. Toshkent.: "Yangi asr avlodi", 2005-yil.

TURLI YOSHDAGI ODAMLARGA XORIJIY TILLARNI O'RGATISH

Anarkulova Zubayda Fayzullo qizi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

O'rolboyeva Dilobar Sherali qizi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ingliz tili 3- fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada turli yoshdagi o'quvchilarga xorijiy tillarni o'qitishning turli xil samarali usullari bayon etilgan, shu bilan birga ushbu jarayonda o'quvchilar duch keladigan muammolar va ular uchun tegishli yechimlar batafsil yoritib berilgan. Shuningdek, chet tilini muvaffaqiyatli o'rganishga ta'sir qiluvchi omillar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Demokratik-huquqiy davlat, kadrlar, professional ta'lim, didaktik, pedagogik jihat, lingvodidaktika.

В Узбекистане бокс – является одним из любимых и традиционных видов спорта молодежи. С древних времен Кулачный бой широко распространен среди народов Средней Азии популяризирован как средство развлечения, а также мужества.

Обучение технике и тактике в тренировке будущих боксеров занимает большое место. Одна из основных задач подготовки юного спортсмена необходимого боксеру, физические качества (скорость, гибкость, ловкость, равновесие, особая выносливость, сила и др.), а также скользкие, ударные, защитные действия и технические навыки в контактах заключается в овладении техникой упражнений, обеспечивающих боковое развитие. Вот почему важно уделять внимание этим упражнениям, необходимо концентрировать внимание и требовать от участников четкого выполнения действий.

Давать чрезмерные общие и специальные нагрузки в упражнениях для достижения высоких целей нецелесообразно. У подростка не так много времени на тренировки, вот почему тренеру необходимо подбирать упражнения отвечающее комплексное развитие подростка. Это могут быть следующее:

- кросс, бег на короткой дистанции, упражнения для развития ловкости(спортивные игры), специальные упражнения гимнастики, упражнения для развития свободного передвижения и т. д.

Следует обратить особое внимание на освоение техники выполнения упражнения с веревкой, резинками, с мячом и пневматической грушей.

Для повышения уровня физической подготовки и процесса развития физических качеств требуется постоянный педагогический контроль.

Нормативы технического контроля определяются с учётом личных особенностей боксера: какие удары он лучше выполняет лучше других, что он делает более успешно – атаку, бой на дальней, средней и ближней дистанции в не зависимости от удара. Уровень подготовки спортсмена является одним из показателей итога соревнования.

В боях с первого дня тренировок у боксеров в тренировочном процессе надо развивать навыки «одной руки», научить действовать как правой так и левой рукой развивать удар «одной руки».

Для успешного освоения техники желательно соблюдать определенную последовательность упражнения предусмотренные в программе обучения молодых боксеров. Будет лучше сначала отрабатывать движения на большом

расстоянии, изучать атаки с одиночными ударами. Тогда, если боксер левша можно обучать спортсмена правой ногой в голову, правильно противостоять ударам соперника, развивать удар левой рукой правильному положению тела. Такие удары сначала развиваются условно потом постепенно будут производиться произвольно. Ещё обучаются защиты с помощью блокировки ладонью, плечом, запястьем, отскок и отклонение назад и в стороны, также правильное своевременное выбор защиты от одиночных ударов и т.д.

После того, как юный боксер достаточно освоил технику движения атакующих ударов защиты, он может начать обучатся ударам в ответной форме.

Литература

1. Хрущев С.В., Круглый М.М. Тренеру о юном спортсмене. – М.: Физкультура и спорт, 1982.
2. Ширяев А.Г. Бокс. Учителю и ученику (изд. 2-е, перераб. и допол.)/ А.Г.Ширяев. СПб:Изд-во«ШАТОН», 2002.
3. Волков В.М., Филин В.П. Спортивной отбор. – М.: физкультура и спорт, 1983.
4. Джандаров Д.З. Сопряженное развитие физических и психических качеств юных боксеров 13-14 и 15-16 лет: Автореф. дис. ...канд.пед.наук.- М., 2003.

BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH

Maxamadaliyev Boburbek Baxodir o'g'li
O'zbekiston Respublikasi bank moliya
akademiyasi tinglovchisi
94 277-88-98
mbobur313@gmail.com

Annotasiya. Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida budjet tashkilotlarida moliyaviy nazoratni tashkil etish hamda samarali moliyaviy nazoratni amalga oshirish orqali budjet mablag'laridan tejamkorlik asosida foydalanishni ta'minlash, budjetdan mablag' oluvchi barcha tashkilotlarda shaffof va ochiq axborot tizimini takomillashtirish borasida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: budjet, moliya, moliyaviy nazorat, nazorat tashkilotlari, budjet tashkilotlari, budjet mablag'lari.

Аннотация. В данной статье представлены идеи по организации финансового контроля в бюджетных организациях в условиях Нового Узбекистана и эффективному использованию бюджетных средств за счет

внедрения эффективного финансового контроля, а также совершенствования прозрачной и открытой информационной системы во всех странах. организации, получающие средства из бюджета.

Ключевые слова: бюджет, финансы, финансовый контроль, контролируемые организации, бюджетные организации, бюджетные средства. Abstract: This article presents ideas on the organization of financial control in budget organizations in the conditions of New Uzbekistan and the efficient use of budget funds through the implementation of effective financial control, as well as the improvement of a transparent and open information system in all organizations that receive funds from the budget.

Key words: budget, finance, financial control, control organizations, budget organizations, budget funds.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar budjet tizimini yanada takomillashtirish hamda ularda axborot texnologiyalarni qo'llash, ya'ni raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan. Ma'lumki, barcha sohalarida bo'lgani kabi moliya bozorida, shu jumladan, budjetdan mablag' oluvchi barcha tashkilotlarda o'tkazilayotgan islohotlarda unda sezilarli siljishlar va o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda budjet tizimini tahlil qilish va ularni kelgusi davrga prognoz qilish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Prognozlash orqali budjet tashkilotlarida axborot texnologiyalarini retrospektiv holati tahlil qilinadi, asosiy ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar aniqlanadi hamda prognozlash asosida axborot tizimining asosiy ko'rsatkichlarini yaxshilash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Budjet mablag'laridan oqilona va samarali foydalanish, budjet taqchilligini oldini olish dolzarb masalalardan biri sanaladi. "Albatta, Davlat budjeti o'lchovsiz emas, mablag'larni qattiq tejash, belgilangan maqsad uchun va oqilona ishlatishni ta'minlash zarur. Bu – hammaga ravshan va rad etib bo'lmaydigan haqiqat"¹⁴- deydi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o'z nutqlarida.

Budjet tashkilotlari budjet mablag'larining asosiy iste'molchisi hisoblanib, davlat budjeti xarajatlarini tashkil etadi va xarajatlar smetasi asosida budjetdan moliyalashtiriladi. Shuningdek, budjet tashkiloti qonunchilikka muvofiq budjetdan tashqari mablag'lar yuzasidan tashkil bo'lish manbalari va foydalanish yo'nalishlari ko'rsatilgan holda budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smetalar doirasida xarajatlarni amalga oshiradi. Oxirgi yillarda davlat moliyasini isloh qilish loyihasini amalga oshirish doirasida so'nggi natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishining asosiy yakunlari va 2017 yilga no'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi.16.01.2017.

tamoyillarining joriy qilinishi, budjetining g`azna ijrosiga o`tilishi, o`rta muddatli budjet istiqbollari belgilash siyosatining ilgari surilishi, davlat hamda budjet siyosatidagi boshqa o`zgarishlarning amalga oshirilishi budjet tashkilotlarida o`z xarajatlarini aniqlash va smetalarni ishlab chiqish, budjetdan tashqari mablag`larni safarbar qilish tartiblarini takomillashtirishni talab etmoqda.

A.X. Islamqulov, respublikamizda davlat byudjeti daromadlari barqarorligi, turli darajadagi byudjet daromadlari mutanosibligini ta'minlash maqsadida markaziy va mahalliy davlat hokimiyatlarining moliya-byudjet, byudjet-soliq sohaslarida vakolatlarini aniq belgilab olish lozimligini ta'kidlaydi¹⁵. Bunda muallif byudjet tizimining bo'g'inlari o'rtasida daromad vakolatlari va xarajat majburiyatlarini optimal taqsimlash tizimini mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash gorizontida amalga oshirishni ilgari suradi.

Budjet [jarayoni](#), odatda, budjet faoliyatining quyidagi to'rt bosqichini o'z ichiga oladi:

- budjet loyahasini tuzish (ishlab chiqish, yaratish);
- budjetni ko'rib chiqish (muhokama qilish) va tasdiqlash;
- budjetni ijro etish;
- budjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlash.

Moliyaviy nazoratning ahamiyati shundan iboratki, uning yordamida birinchidan, davlat va jamoat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fuqarolar tomonidan o'z moliyaviy faoliyatlarida huquqiy tartibga rioya etilishini kuzatib borish; ikkinchidan, amalga oshirilayotgan moliyaviy harakatlarning iqtisodiy asoslanganligi va samaradorligini, bu harakatlarning davlat oldida turgan vazifalarga muvofiq kelishini tekshirish amalga oshiriladi. Shunday qilib, moliyaviy nazorat moliyaviy faoliyatni amalga oshirish paytida qonunchilikka rioya etish, xarakatlarni maqsadga muvofiqligini ta'minlashning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur maqola orqali shuni xulosa qilib keltirish mumkinki, budjet tashkilotlarida budjet va budjetdan tashqari mablag`lar sarfini nazorat qilish, budjet va budjetdan tashqari mablag`lardan oqilona foydalanishni ta'minlash bevosita hisob ishlarini tashkil qilish va yuritish orqali amalga oshiriladi. Budjet tizimida boqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar budjet tashkilotlarining daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi hisobi uslubiyotini yanada takomillashtirishni talab etadi.

¹⁵ Islamkulov A.K. Mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash masalalari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2016 yil. http://iqtisodiyot.uz/sites/default/files/maqolalar/43_A_Islamqulov.pdf

**GUL KARAMNI XO‘JALIK AHAMIYATI, BOTANIK TASNIFI VA
BIOLOGIK XUSUSIYATLARI. TARQALISHI, XO‘JALIK AHAMIYATI
HAMDA OZUQAVIY-DORIVORLIK XUSUSIYATLARI**

Hayitmurotov Imomali
ToshDAU magistranti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada gul karamni xo‘jalik ahamiyati, botanik tasnifi va biologik xususiyatlari. tarqalishi, xo‘jalik ahamiyati hamda ozuqaviy-dorivorlik xususiyatlari haqida qisqacha ma’lumot berilgan.

Аннотация. В данной статье рассмотрено хозяйственное значение, ботаническая классификация и биологические свойства цветной капусты. Даны краткие сведения о распространении, хозяйственном значении, пищевых и лечебных свойствах.

Annotation. This article discusses the economic importance, botanical classification and biological properties of cauliflower. Brief information about distribution, economic significance, nutritional and medicinal properties is given.

Kalit so‘zlar: Biologik xususiyatlari, dorivorlik xususiyatlari, tarqalishi, gul karam.

Key words: Biological properties, medicinal properties, distribution, cauliflower.

Ключевые слова: Биологические свойства, лечебные свойства, распространение, цветная капуста.

Kirish. Gul karam - Brassica cauliflora L. (sin botrytis) - karamdoshlar oilasiga mansub bir yillik o‘simlik, sabzavot ekini. 15-20 barg chiqargandan keyin o‘zaginging yuqori qismida oqish (300 - 500 g kattalikda) boshcha hosil qiladi. Boshcha juda ko‘p qisqa seret gulpoyalardan iborat bo‘lib, uning shaqli (kattakichikligi, o‘shish darajasi) Gulkaramning naviga va o‘shish sharoitiga bog‘liq. Gul karam boshchasi shakllangandan keyin poyalarining ayrimlari o‘shishda davom etib, to‘pgul, gul va urug‘li gulpoyaga aylanadi. Guli oq yoki sariq. Gul karam biologik xususiyati jihatidan oddiy karamga o‘xshaydi, lekin tez pishar. Ko‘chati o‘tqazilgach, 50 - 60 kunda karam boshchasi yetiladi. Tarkibida 7 - 3,3% quruq modda, 1,2 - 4,4% qand, 1,5 - 3,7% oqsil, 0,7 - 0,8% mineral moddalar bor. Vitamin S va A, kaliy, temir, fosfor tuzlari oddiy karamdagidan ko‘p. Atalangan tuxumga botirib olib qovuriladi, sho‘rvasi mazali va parhez taom, konserva tayyorlanadi. Gul karam sovuqqa (-3, -5°C) chidamli, ko‘chati bahor (mart) va yoz (iyul)da 60x30, 70x35 sm sxemada eqiladi. Bahorgisi may - iyunda, yozgisi oktabr- noyabrda pishadi. Sifatli yetilishi uchun barglari uchi boshcha ustiga to‘da

qilib bog‘lanadi yoki boshchasi sindirib olingan barglari bilan soyalab qo‘yiladi. Gektaridan 100-180s hosil olinadi. O‘zbekistonning barcha viloyatlarida ekiladi.

Inson salomatligi ko‘p jihatdan iste‘mol qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlariga bog‘liq bo‘lsa, sabzavotchilik amaliyotida pestitsidlar, mineral va organik o‘g‘itlar, ishlab chiqarish chiqindilaridan noto‘g‘ri foydalanish holatlari mavjud bo‘lib, nitratlar, og‘ir metallar – yetishtiriladigan mahsulotning hosildorligi va sifatini keskin pasaytiradi, vitaminlar, uglevodlar, mineral tuzlar va biologik faol moddalar miqdori kamayadi, mahsulotlarning ta‘mi va foydali xususiyatlari pasayadi.

Sabzavotlar nafaqat insonlarga oziq - ovqat, balki ilmiy va an‘anaviy tibbiyot tomonidan tan olingan samarali dorivor mahsulotlar sifatida ham katta ahamiyatga ega. Sabzavotlarning inson ovqatlanishidagi ahamiyati va ajralmasligi shundaki, ular vitaminlar, uglevodlar, kislotalar va boshqa biologik faol moddalar manbai bo‘lib, ularga oziq-ovqatning ta‘mi va uning inson organizmiga tez hazm bo‘lishi isbotlangan .

Gul karam oziq-ovqat ekinlari orasida 25-o‘rinni egallaydi, dunyo mamlakatlarda bu ekin uchun 15 mln gektar ortiq maydon ajratilgan. Uni ekin sifatida qariyb 5 ming yildan beri yetishtirilib kelinadi. Gul karamni oziq-ovqat uchun ko‘p marta shoxlangan gul poyalari, ya‘ni karam boshchalari iste‘mol qilinadi. Karam boshchalari yuqori darajada sifatli parhez mahsuloti bo‘lib, undan turli tuzlamalar, qovuriladigan hamda qaynatib pishiriladigan taomlar tayyorlashda hamda xar xil salatlar tayyorlashda foydalaniladi.

Gul karam o‘zining tarkibida ko‘plab biologik faol moddalarga ega bo‘lganligi uchun dunyo mamlakatlari ichida keng tarqalishiga sabab bo‘ldi. Biroq, u O‘zbekistonda faqatgina cheklangan maydonlarda, ayrim mavsumlardagina yetishtirilmoqda.

Qishki issiqxonalarda gul karam yetishtirish chegaralangan tarqalishga ega, ammo bahorgi issiqxonalarda va vaqtinchalik plyonkali qoplamalar ostida ko‘p yetishtiriladi. Gul karamni himoyalangan yerlarda yetishtirishdan asosiy maqsad-bahorda erta mahsulot olish va kech kuzgi va qishki davrlarda aholini yangi mahsulot bilan ta‘minlashni uzaytirishdan iborat .

Ozuqalik ahamiyati. Gul karam -qimmatli sabzavot ekinidir, chunki uning boshchalari mazali, to‘yimli va parhezlik sifatiga ega. To‘yimliligi, oson o‘zlashtirilishi va mazasiga ko‘ra u eng foydali sabzavotlar qatoriga kiradi va yosh bolalar iste‘mol qilishi uchun tavsiya etiladi.

Gul karam boshchalari tarkibida oqsil (2,5%), uglevodlar (4,9%). mineral tuzlar, vitaminlar va boshqa biologik faol moddalarni ko‘p bo‘lishi bilan ajralib turadi. Naviga va yetishtirish sharoitiga qarab boshchalar tarkibida: quruq modda

6,3-8,8%, qandlar - 2,1-3,0%, kletchatka 0,8-1,0% ni tashkil qiladi. Oqsillarning yarmidan ko‘pi yengil o‘zlashtiriladigan aminokislotadan iborat.

Hozirgi kunda yer yuzida gul karam 500 ming gektardan ortiq maydonlarda yetishtirilib, 5 mln tonnadan ortiq mahsulot ishlab chiqarilmoqda. Gul karam ekin maydonlarini asosiy qismi Osiyo va Yevropa mamlakatlarida joylashgan bo‘lib, bu yerda mahsulot yetishtirish 2.2 mln tonnani tashkil etmoqda. Shundan Fransiyadan 400 ming tonna (Behr Hans-Christoph, 2001), (Love.J. 1985; Raho.E., 1985; Wale F.E va boshqalar. 1989), mahsulot yetishtirilmoqda.

Vibe (2001-yil) bergan ma’lumotlarga qaraganda Germaniyada gul karam ekish uchun katta maydonlar ajratilmoqda. Aholi talablariga ko‘ra ekin maydonlari yildan yilga oshib bormoqda. So‘nngi yillarda uning maydoni 2 ming gektardan oshmoqda. Gul karamni Avstraliya, Yangi Zelandiya, Isroil, Misrda ham katta maydonlarda yetishtirilmoqda.

Hindistonda gul karamni qishki mavsumlarda yetishtiriladi. (Klir Stavinder va boshqalar. 1996). Quritilgan hamda muzlatilgan gul karam mahsulotlari o‘zining ozuqali xususiyatlarini uzoq davr saqlab turadi (Muzlatilgan ekotizim, Agro jurnali- saytlari). Karamli sabzavotlarni biokimyoviy tahlilini o‘rganish natijalari ko‘rsatishiga, gul karamning tarkibi oq boshli karam tarkibida o‘rtacha quruq modda miqdori - 11,0 % ni, energiya berish ko‘rsatgichi - 117, oqsil - 1,8 % ni tashkil etgan bo‘lsa, gul karamda bu ko‘rsatgichlar - 11,7%, 125 kj hamda 2,5% da bo‘lgan. Gul to‘plamlari tarkibidagi vitaminlar: oq boshli karamda (100g/m miqdorda). “C”-52, “A”- bo‘lgan bo‘lsa, gul karamda shunga muvofiq “C”-105, “A”-0,02, “B”-0,10, “B”-0,10, aniqlangan. Gul karam mahsuloti tarkibida – qand kam bo‘lib glyukoza uchramaydi, azotli moddalarda yengil o‘zlashtiriladigan oqsil bo‘ladi. Uning mahsuloti ko‘plab mineral tuzlarga, ayniqsa kaliy, kaltsiy, magniy, fosfor, yod, temir va koboltga tuzlarga boydir

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoev. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi.-T.: O‘zbekiston NMIU,- 2017y.
2. Sh.Mirziyoev. Tanqidiy taxlili, qat’iy tartibni intizom va shaxsiy javobgarlik har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.-T.: O‘zbekiston 2017y.
3. Sh.Mirziyoev. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning xarakteristik strategiyasi. PF 4947 07.02.2017.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son 28.01.2022-yil. 2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida.

5. O'zbekiston Respublikasining 25.04.2022 y. O'RQ-766-son "Organik mahsulotlar to'g'risida"gi qonuni.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.11.2020 yildagi 729-sonli qarori.

GUL KARAMNI ASOSIY YETISHTIRISH MUDDATLARIDA TASHQI MUHIT SHAROITLARIGA BO'LGAN TALABI

Hayitmurotov Imomali
ToshDAU magistranti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Gul karamni asosiy yetishtirish muddatlarida tashqi muhit sharoitlariga bo'lgan talabi aqida qisqacha ma'lumot berilgan.

Аннотация. В данной статье приведены краткие сведения о требованиях к внешним условиям среды в основной период выращивания цветной капусты.

Annotation. This article provides brief information on the requirements for external environmental conditions during the main growing period of cauliflower.

Kalit so'zlar: Gul karam, biologik xususiyatlari, dorivorlik xususiyatlari, tarqalishi.

Key words: Cauliflower, Biological properties, medicinal properties, distribution.

Ключевые слова: цветная капуста Биологические свойства, лечебные свойства, распространение.

Kirish. Gul karam boshqa barcha karam turlari orasida yetishtirish sharoitlariga eng talabchan hisoblanadi. Ko'chatlarni yetishtirish va barglarining o'sishi davrida gul karam yorug'lik jadalligini talab etadi. Yorug'lik yetishmaganda o'simliklar cho'zilib ketadi. Gul karam uchun o'simligi hisoblanadi. Kun uchunligi cho'zilib ketadi. Gul karam uzun kun o'simligi hisoblanadi. Kun uzunligi 16-17 soatni tashkil etganda kuchli o'sadi va hosildorlik ortadi.

U sovuqqa chidamli ekin bo'lsada, chidamliligi jihatidan ikki yillik karamlardan orqada qoladi. Yaxshi tutib olgan o'simliklar -5-6 0C ayozlarni o'tkaza oladi. Uning urug'lari +5-6 0C da una boshlaydi, unib chiqishi uchun +18 - 20 0C, o'simliklarning o'sishi uchun esa +13-18 0C eng qulay harorat hisoblanadi. Harorat 4 0C dan past va 25 0C dan yuqori bo'lganda o'sishdan to'xtaydi.

Gullash va urug'larni yetilishi 18-20 0C darajada yaxshi o'tadi. (Semena; Lixachiy B; Cherevatenko B-saytlari; Rekomendatsii po texnologiy).

O'zbekistonning markaziy hududlarida mart oyi boshidan noyabr oyigacha iliq kunlar mavsumi bo'ladi. Gul karam yetishtirish muddatlarini uzaytirish maqsadida u uch muddatda: ertachi - mart oyidan iyun oyigacha, o'rtacha - may oyidan avgust oyi oxiri va kechki – iyun oyidan noyabr oyi boshlarigacha o'stiriladi. Ushbu yetishtirish muddatlari iqlim sharoitlari bo'yicha bir-biridan tubdan farq qiladi. Ertachi ekish muddatidagi, o'rtacha kecha-kunduz davomidagi haroratlar tahlili, bu davrda ekilgan ko'chatlari tutib olishi 5.4-7.9 0C daraja haroratda o'tadi. Bunday haroratlar ko'chatlarni yer uchastka qismini o'silishini sekinlashtirib ildiz tizimini tez rivojlanishiga olib keladi. Ertachi muddatlarda ekishini dastlabki ikki haftasida barglarni o'sishi nisbatan past haroratlarda (9.9-12.5 0C), keyingi uch haftada esa eng qulay (15.5-18.2 0C) haroratlarda o'tadi va bu sharoit barglari yirik bo'lib shakllanishini ta'minlaydi. Gul to'plamlarini tugishi va shakllanishi davrida haroratni muttasil o'sish borishiga to'g'ri keladi. Dastlabki bu davrlarda harorat bir muncha qulay (19.9-24 0C) bo'lishi bo'lishi keyinchalik esa haroratni ortib borishi (25-27 0C) ya'ni gul to'plami shakllanishiga to'sqinlik qiluvchi sharoitlarda o'tadi. Bu esa gul to'plamlarini o'sishiga to'sqinlik qiladi. Gul to'plamlari shakllanib bo'lguncha ya'ni birinchi xosil terimiga (10 0C) 32,5 0C daraja, va so'nggi terimigacha – 904 bo'lgan faol haroratlar yig'indisini to'playdi. Ertangi muddatlarda ekilgan muddatlarda ekilgan ekinlarni o'sishi yog'ingarchilik kamayishi davriga (27-30 mm mart oyida - 3-6 mm iyun oyiga) tug'ri keladi va buning natijasida havoning nisbiy namligi ham kamayib, yetishtirish davri davomida (61-63 % dan – 46-41%) gacha kamayishi kuzatiladi. Gul karamdan erta xosil yetishtirish uchun uni ertangi ekinda plyonkali qurilmalar ostida yetishtiriladi. Bunda ko'chatlarni ekish ochiq maydonlarga nisbatan 10-15 kun barvaqt o'tkazilib, plyonkali qoplamalar mart oyi oxirlarida yig'ib olinadi. Bu esa birinchidan erta ekishni ta'minlab bersa, ikkinchida plyonkali qoplamalar ostida o'simliklarni o'sish va rivojlanishi uchun haroratni mart oyida ochiq maydonga nisbatan 2,4-6,0 0C darajaga oshirib, mahsulotni 20-25 kun erta yig'ib olish imkoniyatini beradi. Bu muddatda ekilgan gul karam o'simliklari gul tupamlarini yuqori havo haroratlari bo'lmasda shakllanib sifatli mahsulot beradi.

Gul karamni o'rta muddatlarda sodir bo'ladigan iqlim sharoitlarini tahlili, faqatgina ko'chatlar tutib olish davridagina qulay haroratlar bo'lishini ko'rsatadi. May oyining ikkinchi o'n kunligidan – iyun oyining o'rtalarigacha havo haroratini muttasil oshib borishi kuzatilib, bunday sharoit faqat barglarni o'sishini ta'minlab beradi. Keyingi davrlardagi haroratni yuqori darajalarga ko'tarilishi barglarni o'sish hamda gul to'plamlarini shakllanishini deyarli to'xtatib qo'yadi. Faqat avgust oyining o'rtalariga kelib, nisbatan o'simliklar uchun qulay haroratlar sodir bo'la boshlaydi. O'rtangi muddatlarda o'stirilgan ekinlar haroratlar yuqori

bo'lganligi sababli, haddan tashqari ortiqcha ya'ni gul to'plam shakllanguncha - 1277 0C va o'suv davri bo'yicha -1732 0C faol haroratlar yig'indisini to'playdi.

Gul to'plamlari tarkibidagi moddalar miqdori, nav xususiyatlari hamda yetishtirish sharoitlariga qarab o'zgarib turadi. Sinalgan duragaylar navlarga nisbatan yuqoriroq miqdorda foydali moddalarga boy bo'ldi. Gul karamni plyonka ostida yetishtirilgan mahsuloti qishki issiqxonalarda yetishtirilganlarga qaraganda (yorug'lik kam o'tkazilganligi sababli) quruq modda, umumiy qand va C vitaminiko'p miqdorda to'planadi.

Bizning tajribalarimizda, gul karamni erta bahor oylarida plyonkali qurilmalar ostida yetishtirishda ochiq maydonlarda yetishtirilganga nisbatan gul to'plamlari qulay bo'lgan harorat hamda yuqori havo namligida shakllanadilar. Bu o'z navbatida quruq modda, umumiy qandlar hamda ko'p miqdorda askorbin kislotasini to'planishiga olib keladi.

Sobiq ittifoq tarqatilganidan so'ng MDH davlatlarida g'arbiy yevropaning urug'chilik kompaniyalarini duragaylari ishlatila boshlandi. Rossiya Federatsiyasining reestridan 1992 yildan 1995 yilgacha 4 ta eski nav chiqarib tashlanib, unga Germaniyaning YAKO va Bedegrues, Fransiyaning Bludaymond va Snouboli, Niderlandiyaning Lateman nav va duragaylari qo'shilib davlat reestriga 1996-2000 yillarda fransiyaning K 1- 650, polshaning Pioner va Rober, chexiyaning Regent MS hamda Ekspres MS, Niderlandiyaning Starlayt, Asterks, Flora Blanka, Opal va Selest nav va duragaylari ham qo'shildi (Mamonov E.V, 2001). Keyingi davrlarda ham davla reestri gul karam nav va duragaylarga to'ldirib borilib, u jami 35 tani tashkil etdi va (Bakulina V.A., 2001). 2007 yilda bu 39 taga yetkazildi (Gebredlarning yangi navlarining xususiyatlari 2007).

Rossiyaning turli mintaqalarida yetishtirilayotgan gul karam nav va duragaylari tuli-tumanligi bilan ajralib turadi. Janubiy tumanlarda ertachi ekinda gul karamni Adir bahori, Adir qishi, Sochin navlari ekilib ular navlar deb tan olingan (Siganok.N.S.1998). Butun Rossiya o'simlikshunoslik ilmiy tadqiqot institutining Dog'istondagi Itogiriba stansiyasida 17 davlatdan keltirilgan gul karamni 113 ta namunasi sinab ko'rilgan bo'lib, yozgi-kuzgi ekish muddatlari uchun Flanca, Setva, Spar 10, Nedcha duragaylari hamda Record navi, kuzgi-qishgi ekish muddatlari uchun manman-chun, Armad Early, Armado Kwik, Pronto, Lnca, Vitha nav va duragaylari hamda eng qimmatbaho deb topilgan. Ushbu sinovlarda Buyuk Britaniya, Niderlandiya hamda Xitoy navlari o'zining sovuqqa chidamli ekanliklarini ko'rsatdi (Godimustafayeva E.G,1995). So'nggi yillarda bu tajriba stansiyasida gul karamning Arcade, Armita, Amadies, Colombo, Arome, Halton, Hustar, Padry (Godimustafayeva E.G. 1999), shuningdek Man-man-gun,

New April glori, Armado Kwik, Armado Late, Armado Appeliex, Pronto, Arado Tordo, Marchpast, MAyston Special, Adler bahori (Gadjimustafayeva E.G. 2006) navlari ekishga tanlab olingan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoev. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi.-T.: O'zbekiston NMIU,- 2017y.
2. Sh.Mirziyoev. Tanqidiy taxlili, qat'iy tartibni intizom va shaxsiy javobgarlik har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidisi bo'lishi kerak.-T.: O'zbekiston 2017y.
3. Sh.Mirziyoev. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning xarakteristik strategiyasi. PF 4947 07.02.2017.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son 28.01.2022-yil. 2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida.
5. O'zbekiston Respublikasining 25.04.2022 y. O'RQ-766-son "Organik mahsulotlar to'g'risida"gi qonuni.

GODONIMLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Nargiza Sattarova

ADPI, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada godonimlarning leksik-semantik xususiyatlari va ularning tasnifi, bu borada tilshunos olimlarning nazariyasi, godonimlarni tilning onomastik sathida muhim birlik ekanligi, mustaqillik yillarida respublikamizda olib borilgan toponimik siyosat kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: urbanonim, godonim, leksik-semantik, onomastik birlik, qo'shma so'z, birikmali godonim.

Abstract. The article covers such issues as the lexical-semantic features of godonyms and their classification, the theory of linguists in this regard, the fact that godonyms are an important unit at the onomastic level of language, the toponymic policy pursued in our republic during the years of independence.

Key words: urbanonym, godonym, lexical-semantic, onomastic unit, compound word, compound godonym.

Абстракт. В статье освещены такие вопросы, как лексико-семантические особенности годонимов и их классификация, теория лингвистов в этом отношении, то, что годонимы являются важной единицей

на ономастическом уровне языка, топонимическая политика, проводимая в нашей республике в годы независимости.

Ключевые слова: урбаноним, годоним, лексико-семантическая, ономастическая единица, сложное слово, составной годоним.

Kirish (Introduction). Xalqlarga joy nomlari o‘z o‘tmishini anglash va madaniyat uzluksizligini o‘rnatish imkonini beradi. Godonimlar milliy o‘zlikni anglatuvchi ma’noli ifoda hisoblanadi. Andijon viloyatining chuqur ildiz otgan tarixi ko‘cha nomlarida saqlanib qolganligi bugungi va kelajak avlod uchun juda muhimdir. Bundan tashqari, joy nomlanishi ayniqsa hudud dinamikasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu dinamikadagi harakatchanlik joy nomlarida namoyon bo‘ladi.

Tilshunoslik nuqtai nazaridan godonimlar bajaradigan uchta vazifa mavjud:

- 1) farqlash fazifasi- bir joyni boshqasidan farqlash;
- 2) semantik fazifasi - joy haqidagi ma’lumot (xabar);
- 3) semiotik fazifasi- ijtimoiy ahamiyatga ega ma’nolarni aniqlash.

Birinchi vazifa asosiydek ko‘rinsa-da, zamonaviy godonimiyada oxirgi ikki vazifa ko‘proq uchraydi.

Ijtimoiy madaniyatni kelajak avlodlarga o‘tkazish usullaridan biri bo‘lgan nom berish shakli hududning tirik tarixini tashkil etadi. Shunday qilib, hudud o‘tmishidagi elementlarni to‘plash va bu elementlarga yangilarini qo‘shish bilan o‘ziga xos ijtimoiy-madaniy ko‘rinishni ifodalash mumkin. Bu o‘ziga xoslik makonda turli yo‘llar bilan namoyon bo‘ladi. Ko‘cha nomlari (godonimlar) shulardan biridir. Bundan shuni anglash mumkinki, joy nomlarini tadqiq qilish va tekshirish bilan shug‘ullanuvchi fan o‘zining keng tadqiq doirasidan olingan ma’lumotlar bilan xalqlarning o‘tmishi va kelajagi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rnatadi va madaniy davomiylilikni ta’minlaydi.

Tadqiqot maydonini tashkil etgan Andijon — O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi yirik viloyatlardan biridir. Farg‘ona vodiysining sharqiy qismida. Andijon viloyati 1941-yil 6-martda tashkil etilgan. Maydoni 4,2 ming km². Aholi soni 2023-yil 1-aprel holatiga ko‘ra 3 338 200 kishi, Respublikada 4-o‘rinda turadi. Andijon viloyati tarkibida 14 ta tuman, 2 ta shahar (Andijon va Xonobod shaharlari) mavjud. Markazi — Andijon shahri.

Andijonning tarkibiy- xududiy joylashuvi to‘g‘risidagi ma’lumotlar 1893-yilgi topografik xaritada uchraydi. Unda shahar daxalari, masjidlar, mozorlar, ko‘chalar xaritaga tushirilgan. Qadimshunoslar Andijon shahrining tarixiy qismiga kiruvchi Chordona, Sarvontepa, Yakkatepa, Qo‘sh tepa, Ark ichi, Shaxriston kabi nuqtalarda arxeologik tadqiqotlar olib borganlar.

XIII asrning birinchi choragida Andijon Fargʻona viloyatining poytaxti boʻlgan. Bobur Mirzoning yozishicha, "...Movarounnaxrda Samarqand va Kesh qoʻrgʻonidin soʻngra, mundin ulugʻroq qoʻrgʻon yoqʻtur¹⁶". Demak, Andijon Oʻrta Osiyoning ilk dehqonchilik paydo boʻlgan va shaharsozlik madaniyatining dastlabki koʻrinishlari shakllangan oʻchoqlaridan birida joylashgan. Bu hududda ilk shahar Dalvarzin (mil.avv. IX-VII asrlar) va arxaik shahar Eylaton (miloddan avvalgi VI-III asrlar) xarobalari qayd etilgan. Oʻzining geopolitik joylashuviga koʻra Andijon Baqtriya, Soʻgʻd, Choch kabi tarixiy oʻlkalarni Xitoy (Sharqiy Turkiston) bilan savdo, iqtisodiy va madaniy aloqalarida oʻziga xos koʻprik vazifasini oʻtagan.

Hozirgi kunda Andijon viloyatining godonimik makonida umumiy 14 959 ta nom tahlil uchun toʻplangan. Nomlar, asosan, xududning 14 ta tuman, 2 ta shahar (Andijon, Xonobod) boʻyicha jami, 18 ta shoh koʻcha, 5838 ta koʻcha, 5224 ta tor koʻcha, 2968 ta berk, 2 ta aylanma koʻcha nomlari aniqlandi va tahlil qilindi. Oʻrganishlar natijasida birgina Andijon shahrining oʻzida 505 ta koʻcha (518 ta tor koʻcha, 29 ta berk koʻcha), 3 ta shohkoʻcha (Choʻlpon, Bobur, Alisher Navoiy), 1 ta aylanma koʻchasi (Oʻsh koʻcha) mavjudligi aniqlandi. Albatta, koʻcha nomlari tor va berk koʻchalarda raqamlar bilan qoʻshilib takrorlanadi. Masalan, Andijon shahri Toʻqqizariq mahallasida joylashgan *Ulugʻbek kochasi* yana 9 ta tor koʻchani ham nomlaydi. Ulugʻbek 1-tor, Ulugʻbek 2-tor kabi. Islomobod mahallasida *Toshkent koʻchasining* 7 ta tor koʻchasi mavjud. Toshkent koʻchasi Doʻstlik, Islomobod, Navbahor mahallalarida ham uchraydi. *Al-Buhoriy* mahallasining Ozodlik nomi bilan ataluvchi 4 ta berk koʻchasi bor.

Andijon viloyatining godonimik maydoni koʻp qirrali va xilma-xildir, chunki shahar tuzilishi, ijtimoiy va iqtisodiy ustuvorliklar taʼsirida oʻzgarishlarga uchrab kelmoqda. Shu munosabat bilan godonimlarning tizimli tavsifi strukturaviy-semantik xususiyatlarning yaxlit koʻrinishini shakllantirish imkoniyatini beradi.

Dunyoda va mamlakatimizda joy nomlariga oid tadqiqotlar kundan-kunga koʻpaymoqda va har bir tadqiqot bilan joy nomlarining jamiyatlar uchun ahamiyati sezilarli ortib bormoqda.

Odatda, koʻchalarning tahlili va tasnifi uchun ikkita yondashuv qoʻllanilishi kerak boʻladi.

1. Kelib chiqishi va shakllanishiga eʼtibor berilsa, koʻcha nomlari nimanidir eslatib turadi, maʼlumot(informatsiya) tashiydi.

2. Koʻcha nomlari, ayniqsa, xalqning ijtimoiy, siyosiy jarayonlardagi roli va umumiy oʻziga xoslikni yaratishga qaratilgan taʼsirini ifodalaydi.

¹⁶ З.М. Бобур "Бобурнома" – Тошкент: "Шарқ". 1989. 6-7 б.

Geografik nomlar to'g'risidagi eng qadimgi toponimik ma'lumotlarni Gerodotning "Tarix", Strabonning "Geografiya" asarlari orqali o'rganishimiz mumkin. Ilmiy jihatdan joy nomlarini tasniflash borasida ilk bor XIX asrda ko'pgina olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Masalan, V.R.Semyonov-Tyan-Shanskiy, L.L.Gumetskaya, V.Tashitskiy, H.Hasanov, R.G'ulomovlar, Z.Do'simov, E.M.Murzayev kabi mutaxassis olimlarning ilmiy izlanishlarida joy nomlarining turlicha tasniflanishini asoslashga doir takliflar berilgan. Taklif etilgan tasniflashlar orasida E.M.Murzayevning (1979) toponimlarning obyekt nomlariga qarab (oronimlar, gidronimlar, fitonimlar, zoonimlar, oykonimlar) tasniflash usuli eng oddiy va qiyosan maqbul hisoblanadi¹⁷. Har bir narsaning o'z nomi borligi sababli, tasniflash onomastika uchun asosiy o'rinni egallaydi. Ko'rinib turibdiki, har bir fan sohasi uchun muhim bo'lgan tasniflash joy nomlari uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Geografik nomlarni barcha uchun qulay ilmiy tasniflanishini yaratish murakkab masala. Chunki bu fan integral fan ekanligi, ya'ni geografiya, lingvistika, tarix fanlarining manfaati tutashgan joyda shakllanganligini izohlash mumkin. Mazkur fanlar esa o'z yo'nalishida joy nomlarini ilmiy asoslay olishi bilan muhim hisoblanadi.

Keyingi yillarda H.Hasanovning "Geografik nomlar siri", S.Qorayevning "Geografik nomlar ma'nosi", Z.Do'simovning "Toponimlar tasnifi masalasiga doir", T.Enazarovning "O'zbek nomshunosligi", A.Nizomovning "Toponimika" kabi o'quv qo'llanma, darslik hamda kitoblarida joy nomlarining tasniflanishiga doir bir qator ilmiy ishlarning amalga oshirilganligi yoritilgan.

Tadqiqotchilar joy nomlarini turlicha tasniflashga harakat qilganlar. Bu tadqiqotlarning barchasi biz uchun Andijon viloyati joy nomlarini tasniflashda manba bo'ldi. Lekin biz bu nomlar uchun ulardan biriga asoslanib tasnif qilish o'rniga Andijon viloyati joy nomlarining xususiyatlarini hisobga olgan holda alohida tasnif qilishga harakat qildik. Bizning tasnifimizda muhokama qilgan toifalarni kichik sarlavhalarga bo'lish mumkin va tasnifga turli toifalarni kiritish mumkin. Biz bu joy nomlarining to'plagan materiallarimiz nuqtai nazaridan va nomlarning xususiyatlarini ochib berishni maqsad qilganmiz.

Godonimlar lug'aviy-mazmuniy (leksik-semantik) jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Antroponimlar asosida hosil qilingan godonimlar
2. Etnonimlar asosida hosil qilingan godonimlar
3. Gidronimlar asosida hosil qilingan godonimlar
4. Fitonimlar asosida hosil qilingan godonimlar

¹⁷ Ахмадалиев Ю.И. "Топонимика ва географик терминшунослик". Ўқув қўлланма. Фаргона. 2018.

5. Kasb-hunar nomlari asosida hosil qilingan godonimlar
6. Diniy tushuncha va diniy e'tiqodlar asosida shakllangan godonimlar
7. Toponimlar asosida hosil qilingan godonimlar
8. Mavhum tushunchalar asosida hosil qilingan godonimlar
9. Zoonimlar asosida hosil qilingan godonimlar
10. Oronimlar asosida hosil qilingan godonimlar
11. Muhim tarixiy voqealar asosida hosil qilingan godonimlar

Shahar ko'chalarining leksik-semantik tasnifidagi eng katta guruhini taniqli shaxslar, tarix va davlat, san'atning ko'zga ko'ringan arboblarning ismi, familiyasi, laqablari, hayotida o'rnak, xalq uchun buyuk ishlar qilgan va meros qoldirgan qahramonlarning ism va familiyalaridan tashkil topgan ko'cha nomlari tashkil etadi.

Andijon viloyatining Andijon shahri 504 ta ko'cha nomining tahlili misolida quyidagi fikrlarni aytishimiz mumkin. Hudud godonimlarining leksik-semantik guruhlari rang-barang va xilma-xil bo'lib, antroponimlar asosida *Abdulla Qahhor, Ahmaddonish, Ahmadbek hoji, Bedil, Furqat, Fitrat, Orif Garmon*; millat va elatlar nomi yordamida *Tojik, Qoraqalpoq, Uyg'ur*; fitonimlar asosida *Anorzor, Behizor, Boychechak, Chinor, Lolazor, Majnuntol*; gidronimlar asosida *Soy, Oybuloq, Anhor, Damariq*; toponimlar asosida *O'zbekiston, Hindiston, Samarqand, Toshkent, O'sh, Namangan, Andijon, Nukus*; kasb-hunar nomlari yordamida *Qandolatchilar, Payvandchilar, Oshpazlar, Misgarlar, Kosiblar, Kulollar*; dunyo tomonlarini ifodalovchi *Janubiy, Shimoliy, Sharq* kabi nomlardan iboratligi aniqlandi. Shuningdek, shaharning *Milliy tiklanish, Markaziy Sho'rbuloq, Ishchilar shaharchasi* kabi ko'cha nomlari hamda *Yangi Bobosaddin, Yangi Chuvama, Yangi Dehqon, Yangi Maorif, Yangi Obod, Yangi Sharq, Yangi Sho'rbuloq, Yangi Shodlik, Yangi Xorazm, Yangi Yaxshi* kabi "yangi" tarkibli nomlar ikki va undan ortiq komponentli birikmalar ham faol qo'llanilmoqda. O'rni keldanda shuni aytish mumkinki, hududda ikki va undan ortiq so'zlardan iborat joy nomlari nisbatan kam miqdorda bo'lgani bilan, xalq tilida ularning to'liq ifodalanishiga guvoh bo'lmadik. Masalan, Milliy tiklanish ko'chasi > Tiklanish, Markaziy Sho'rbuloq ko'chasi > Sho'rbuloq, Yangi Bobosaddin ko'chasi > Bobosaddin tarzida ishlatiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Abduruhmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov, Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: "O'qituvchi", 1980.
2. Qorayev S. O'zbekiston oykonimlarining toponimik leksikasi// Toshkent shahri va viloyati toponimlari muammolari. – T., 1994. - B. 54.

3. Qodirova Sh. Toshkent mikrotoponimlarining nomlanish prinsipiga doir // O'zbek tili va adabiyoti. - 1966. - № 6. – B. 38.
4. O‘rinboyev B. Jizzax viloyati toponimlari. - Jizzax, 1992. - 53 b.
5. Enazarov T. Toponimlarning ilmiy tadqiq qilishning ilmiy-nazariy va amaliy-uslubiy asoslari. K.1. – T., 2001. – 126 b.
6. Oxunov N. Joy nomlari ta'biri. - T.: O'zbekiston, 1994. - 86 b.

MUNDARIJA

Qodirova N.A. Maktabgacha ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashning nazariy asoslari	3
Xudayberganova G.T. Zamonaviy ta'lim tushunchasi va uni mohiyati.....	6
Зулхандерова Н.М., Л.Кабuloва An Arab Alchemy	9
Яриева З.Ш. Нутқ фаолияти турларининг лексик кўникмалари билан ўзаро фаолиятининг табиати.....	11
Хайруллоева N.A. Talabalarning pragmatik kompetensiyasini shakllantirishda korpusli texnologiyalarning lisoniy-didaktik imkoniyatlari	14
Салохиддинов F.M., Юлдашов Я.Х. Маъдан ва органик ўғитларнинг artemisia leucodes schrek ва sophora japonika l ўсимликлари томонидан микроэлементларни шимилишига таъсири.....	18
Alixonov M.P. O'zbekistonda xizmatlar eksportini mamlakat eksport salohiyatini oshirishdagi o'rni va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	22
Hasanova N.H. Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda innovatsion iqtisodiyotga o'tish zaruriyati	25
Alimbaev B.K., Ermatov Yu.A. Tajribadagi "lohmann brown-classic" va "lohmann sandy" krosslariga mansub tovuqlarning gematologik ko'rsatkichlari	28
Sobirova D.R. Reklama matni xilma-xil sohalar obyekti sifatida	31
Begimqulova D.B. Ingliz tilida soxta reduplikatlarning ifodalanishi	33
Ashurova D.M. Prokuratura organlari.....	37
Нуралиева М.Г. Коммуникативно-деятельностный подход к обучению русской морфологии учащихся средних классов с узбекским языком обучения.....	41
Нуралиева М.Г. Использование игровых методов в обучении русской морфологии у учащихся с узбекским языком обучения.....	43
Abdumajidova M.M. Ishlab chiqarishni boshqarishni tashkil etishning logistik konsepsiyasi	45
Abdumajidova M.M. Automation of technological processes using fuzzy logic.....	48
Toshboyeva L.J. Turizm sohasiga oid terminlarni talabalarga o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	51
Iskandarova Y.O. Elektron tijorat tushunchasi va unda iste'molchilarning huquqlari	54
Хакимова М.Х. Чаканданинг (hippophae rhamnoides l.) биоэкологик хусусиятлари	56
Нуруллаева Х.Т., Оллаберганов М.К. Влияние полимерных покрытий колосников волоконоочистительной машины на физико-механические свойства хлопка- волокна и пряжи.....	60
Дрёмова Н.В. Применение математического пакета «mathcad» при выполнении расчетно-графических работы по технической механике	63
Фатидинова Д.М. Рахбарлик услублари моҳияти ва тавсифланиши.....	66
Хайтбоева М.Н. Бўлғуси педагогларда медиа компетентлик ва ахборот маданиятини шакллантиришнинг педагогик асослари	68
Sherqulova M.X. Implementation of pragmatic maxims in advertising slogans	71
Hakimova M.S. Philosophical analysis of economic aspectsof globalization in Japan	75
Исмоилова Д.Д. Ўсмирлик даврида психик ривожланиш хусусиятларининг таҳлили...79	79
Qulmurodov O., Sobirjonova U.M. Qo'g'irchoq teatri kecha va bugun.....	83

Sevinchova N.N. Analysis of potential of e-tourism and e-commerce development trends of Uzbekistan	87
Kushakova G., Bayzakova M. Oila mustahkam bo'lmasa jamiyat ham mustahkam bo'lmaydi	93
Дадабаев И.И., Рахимкулов Ф.С. Прокачивание тормозной системы на гибридных автомобилях.....	95
Matyoqubov D.Z., Yunusxanov D.D. Ichki yonuv dvigatellarida qo'llaniladigan gaz yoqilg'ilarining yonish xususiyatlarini tadqiq qilish	99
Xolmurodov I. "Hayrat ul Abror" – muqaddimaviy doston asarning tuzulishi va hikoyatlar poetikasi	97
Xolmurodov I. Otashnafas shoir huvaydo hayot yo'liga bir nazar	99
Anarkulova Z.F., O'rolboyeva D.Sh. Turli yoshdagi odamlarga xorijiy tillarni o'rgatish ..	102
Ибрагимова С. Имом Муҳаммад ибн Ҳасан аш Шайбоний "Асл" асарининг ҳанафий мазҳабидаги аҳамияти	105
Мухамедова М.У. Особенности течения параноидной шизофрении.....	107
Мухамедова М.У. Обзор синдром отмены от нейролептиков при длительном лечении.	110
Мухамедова М.У. Особенности клинического течения депрессии и пути их лечения	111
Xolmurodov I. "Rohati dil" dostonida hamd va nat boblaridagi diniy qarashlarning badiiy talqini	115
Дадабаев И.И., Рахимов Р.Ш. Анализ тормозных систем электромобилей	117
Мирзаева З.О. Паралингвистик воситаларнинг лингвомаданий тадқиқи	121
To`xtayev A.I. Axborot texnologiyalaridan foydalanib, sodir etilayotgan jinoyatlarning eng ko'p tarqalgan turlari	129
Ziyatova I.S. Leading ethnic groups under the rule of the golden horde	131
Тухтаев А.И. Самые распространенные виды преступлений, совершенных с использованием информационных технологий.....	133
Эргашбоев Д.Э. Иқтисодиёт соҳасидаги жиноятлар- фирибгарлик жинояти.....	136
Эргашбоев Д.Э. Фирибгарлик жинояти учун жинойий жавобгарлик ва уни олдини олишнинг криминологик масалалари	138
Gofurova Kh.B. Importance of methodical methods in education and upbringing	141
Gofurova Kh.B. Role of new interactive methods in foreign language teaching	143
Mirzayeva L.E. Methodology of using web-quest technology in the educational system.....	145
Ниязов А.Т., Калабаев Б.С. Техники успешной подготовки юного боксера.....	148
Махамдалиев В.В. Budjet tashkilotlarida moliyaviy nazoratni tashkil etish va takomillashtirish.....	150
Hayitmurotov I. Gul karamni xo'jalik ahamiyati, botanik tasnifi va biologik xususiyatlari. tarqalishi, xo'jalik ahamiyati hamda ozuqaviy-dorivorlik xususiyatlari	153
Hayitmurotov I. Gul karamni asosiy yetishtirish muddatlarida tashqi muhit sharoitlariga bo'lgan talabi	156
Sattarova N. Godonimlarning leksik-semantik xususiyatlari.....	159